

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

J.Sh.Tuxtabaev, A.X.Eshbayev

RISKLARNI BOSHQARISH

o‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy o‘quv yurtlarining 5232400 - “Iqtisodiy xavfsizlik” ta‘lim mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta‘lim sohasi: 230000 – Iqtisod

Ta‘lim yo‘nalishi: 5232400 – Iqtisodiy xavfsizlik

TOSHKENT – 2021

**UO‘K:
KBK**

J.Sh.Tuxtabaev, A.X.Eshbayev. Risklarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. –T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, ___ bet.

ISBN 978–9943–

O‘quv qo‘llanmada risklarni boshqarishning nazariy asoslari va ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan mavzular yoritilgan. Ushbu mavzularda “Risklarni boshqarish” faniga kirish, riskning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, risklarning turlari va tasniflari va boshqa turdagi risklar, risk chegaralari, iqtisodiy va huquqiy asoslari, risklarniboshqarish usullari va instrumentlari, moliyaviy risk, moliyaviy risk chegaralari va sug‘urtalash, risklarning miqdoriy ko‘rsatkichlari va ularni baholash usullari, strategik biznes darajasidagi risklarni boshqarish, investision loyihalarda risklar tahlili va risklarni kamaytirish usullari ochib berilgan. O‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzularda mamlakatimizda risklarni oldini olish va ularni bartaraf etishni ta‘minlashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5232400–“Iqtisodiy xavfsizlik”bakalavrtalim mutaxassisligitalabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan, shuningdek, risklarniboshqarishbilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar, izlanuvchilarva shu sohaga qiziquvchi ko‘p sonli kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**UO‘K:
KBK**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil _____-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berildi.

Ж.Ш.Тухтабаев, А.Х.Эшбаев. Управление рисками. Учебное пособие. Ташкент. ТГЭУ, 2021. – с. 241.

J.Sh.Tukhtabaev, A.X.Eshbayev. Risk management. Textbook. Tashkent. TSUE, 2021. – p. 241.

Taqrizchilar:

T.Bekmurodov - i.f.n., O‘zbekiston Milliy Universiteti “Menejment” kafedrasida dotsenti;

B.Tursunov – i.f.f.d., (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasida mudiri.

ISBN 978–9943–

© **J.Sh.Tuxtabaev, A.X.Eshbayev. 2021.**

© **«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021.**

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida “Risklarni boshqarish” fani alohida o‘ringa ega bo‘lib, uning holati turli ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin tutadi. Bizga ma‘lumki, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning dolzarbligi uning risklarni boshqarish, oldini olish, barqarorlikni ta‘minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy sharoitlarida asosiy tahdid va iqtisodiy tizimdagi har qanday o‘zgarishlar turli xavf-xatar va tahdidlarning namoyon bo‘lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun risklarni oldini olishni ta‘minlash, unda bo‘ladigan tahdidlarni bartaraf etish masalasi yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”dagi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturning “Iqtisodiyotni yanada rivojlanirish va liberallashtirish” deb nomli uchinchi yo‘nalish 3.2-bandida “Tarkibiy o‘zlashtirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” vazifalari belgilangan. Shundan kelib chiqib qayd etish lozimki, mamlakatimizda risklarni olini olishni ta‘minlashning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mazkur o‘quv qo‘llanmada risklarni bartaraf etishni ta‘minlashning institutsional yo‘nalishlari bo‘yicha maqsad va vazifalar bayon etilgan.

Risklarni boshqarish fanining maqsadi talabalarga risklarni oldini olishni ta‘minlash va uning munitsipial shakllanishini baholashga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan zarur bilimlar berishdan iborat. Ushbu fanning vazifasi talabalarga risklarni oldini olishning nazariy asoslarini mamlakat darajadasida o‘rgatish; mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish uslublari va vositalarini tushuntirish; mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish yo‘llarini o‘rgatish; risk darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanib tahlil qilish va ularni baholash bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish; turli darajadagi milliy manfaatlarning ziddiyatini hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiy

xavfsizligini ta'minlashning alohida yo'nalishlarini strategik va taktik boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash va rivojlanish usullarini o'zlashtirib, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish bo'yicha zaruriy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

“Risklarni boshqarish” o‘quv fanini talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- haqiqiy faktlarni iqtisodiy nuqtai-nazardan tahlil qilish va izohlash imkonini beradigan risklarni boshqarish bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

- risklarni boshqarishni o'rganishning asosiy tadqiqot usullari va uni shakllanish omillarini tushunish;

- risk darajasini belgilovchi tizim indikatorlaridan foydalanib risk darajasini monitoring qilish va baholash qobiliyati;

- risklarni bartaraf etishda analitik mulohazalardan foydalana bilish;

- iqtisodiy muammolarni topish va hal qilish uchun analitik tadqiqotlardan foydalanish;

- mavjud iqtisodiy risk muammolarni jamoaviy ravishda tushunish va tahlil qilish;

- turli iqtisodiy muammolarning ahamiyatini, shuningdek ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosatning ijtimoiy ta'sirini tanqidiy baholay olish;

- risk bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni tahlil qila olishi, bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasida risklarni boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyatini hamda uni qo'llashda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlariga, farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi talablari va Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori bilan tasdiqlangan hamda 5232400 - “Iqtisodiy xavfsizlik” ta'lim

yoʻnalishlarining “Risklarni boshqarish” fanining oʻquv dasturi asosida yozilgan boʻlib, ushbu oʻquv qoʻllanmada oʻqitishning yangi taʼlim texnologiyasidan foydalanilgan holda har bir mavzu boʻyicha maqsad, mazmuni, mohiyati va ahamiyati yoritilgan hamda mavzu boʻyicha nazorat va muhokama uchun savollar, tayanch iboralar, glossariylar va foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxati keltirilgan.

“Risklarni boshqarish” fanining oʻquv qoʻllanmasi asosan oliy oʻquv yurtlarining bakalavr taʼlim yoʻnalishining 5232400 – “Iqtisodiy xavfsizlik” talabalari uchun moʻljallangan. Bundan tashqari, risklarni boshqarish muammolari bilan shugʻullanuvchi professor-oʻqituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar hamda iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlovchi soha xodimlari ham foydalanishlari mumkin. Ushbu oʻquv qoʻllanma risklarni boshqarish bilan bogʻliq muammolar, masalalar va ularni joriy etish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi degan fikrdamiz.

Mualliflar “Risklarni boshqarish” fanining oʻquv qoʻllanmasi sifatida unga bildirilgan fikr, mulohazalar hamda takliflarni minnatdorlik bilan qabul qiladilar va nashrlarga tayyorlash va chop etish jarayonida yordam berganlarning barchasiga samimiy minnatdorchilik bildiradilar.

I-BOB. “RISKLARNI BOSHQARISH” FANIGA KIRISH, RISKNING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. “Risklarni boshqarish” fanining mazmuni va maqsadi

Umumjaxon amaliyotida qabul qilingan tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyati tug‘risidagi qonunchilik tadbirkorlik, bu mulkiy mas’uliyat va o‘zining tavakkalchiligi bilan amalga oshiriluvchi, daromad olishga yo‘naltirilgan fuqarolar va ular guruhning mustaqil tashabbus faoliyati deb belgilanadi. Ko‘p xollarda tadbirkorlik; mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik, faol izlanuvchanlik, jushqinlik, chaqqonlik kabi xislatlar bilan tavsiflanadi. Bu xislatlarning yagona jamlamasi iqtisodiy faoliyatiga xos bo‘lib, to‘liq asosli xolda tadbirkorlik yoki biznes deyiladi. Tadbirkor uzluksiz ravishda o‘z hatti-xarakatlarini (mazmunan mehnat yutuqlarini ta‘minlash uchun) takomillashtirib boradi, chunki yutuqlar mahsulotlarini, texnologiyalarni tovar sifatini o‘zgartirishga, tabiiyki narx iste‘molchilar doirasi va ko‘pgina boshqa omillarga bog‘liq.

Muammolarni yechimini turli yo‘llarini topish, tanlash va o‘zgartirish faqat muqobil variantlar mavjudligidagina mumkin bo‘ladi. Shuning uchun tadbirkorlikning zaruriy sharti izlanish va hilmaxillik holatida iqtisodiy faoliyatning usullarini tanlashda, erkinlikda kurinadi. Biznesni tavakkalchiliksiz tasavvur etish mumkin emas. Tavakkalchilikni kuchayishi – bu mohiyatan tadbirkorlik erkinligining aksi bo‘lib, bu uchun o‘ziga xos to‘lov xamdir. Bozor munosabatlari sharoitida yashab qolish uchun, texnikaviy yangilanish va dadillik, jo‘shqin xarakterga tayaniladi, bu esa o‘z navbatida tavakkalchilikni kuchaytiradi. Demak, bundan tadbirkor tavakkalchilikni kuchaytiradi. Demak, bunda tadbirkor tavakkalchilikdan qochmasligi, balki uning darajasini baholay bilishi va tavakkalchilikni pasaytirish maqsadida uni boshqara bilishi lozimligi kelib chiqadi.

Tadbirkorlikning bosh xislati: “Tavakkalchilikdan qochmaslik, balki, uni oldindan ko‘ra bilishda va uning eng past darajagacha pasaytira olishda” namoyon bo‘ladi, deyiladi. Ta‘kidlaganlaridan mazkur o‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi va vazifalari kelib chiqib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- zamonaviy iqtisodiyotga xos bo'lgan omillardan biri bu - tavakkalchilikni hisobga olgan xolda iqtisodiy jarayonlarni sifat va miqdoriy xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish;

- tavakkalchilikni inobatga oluvchi iqtisodiy matematik model-larni tuzish, tahlil qilish va foydalanish usul va uslublarni o'zlashtirish;

- qarorlarni qabul qilish jarayonida iqtisodiy tavakkalchilikni hisobga oluvchi va modellashtiruvchi bir qator namunaviy uslublarni o'rganadi;

- hilma-xil muammolarni yechimini topishda amalda qo'llash maqsadida tegishli apparatlarni (qurollarni) o'zlashtirish;

Mazkur qo'llanmaning asosiy qismlarini bayon etishdan oldin, uning mazmun va mohiyatiga ma'lum darajada qo'shimcha izoh beramiz.

Tavakkalchilikni boshqarish, baholash va tahlil qilish bo'yicha shu kungacha o'zimizdagi mavjud va xorijiy materiallarni xar tomonlama keng o'rganish, bir tizimga keltirib, tahlil qilish ayni paytda quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- "risk" - tushunchasini hamma uchun bir xil qabul qilingan tarifi mavjud emas;

- har qanday amaliy va nazariy tasodiflar, holatlar uchun qo'llaniluvchi tavakkalchilikni kengaytirilgan ko'rsatkichlarini aniq hisoblash uslublari ishlab chiqilmagan;

- aniq vaziyatga tavakkalchilikning ma'lum darajasini "mos kelishi"ni aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan qo'llanmalar mavjud emas;

- tavakkalchilikni holatini miqdoriy baholashga asoslanuvchi qoida va me'yorlarni shakllantirish imkonini beruvchi me'yoriy-xuquqiy konsepsiya ishlab chiqilmagan.

Shuni ham nazardan qochirmaslik lozimki, tavakkalchilikning qadr-qimmatini belgilash, aniq vaziyatlarda qabul qilinishi zarur bo'lgan qarorlarga bog'lik bo'ladi.

1.2. “Risk”, “xatar”, “tasodif”, “tavakkalchilik” tushunchalari talqini

Mavjud adabiyotlarda tavakkalchilikning xislat, xususiyat va elementlari obyektiv va subyektiv jihatlari o‘zaro munosabatlari, uni mazmunini anglash turlicha tavsiflangan. Tavakkalchilikning mohiyati to‘g‘risidagi hilma-xil fikrlar ko‘p hollarda bu xodisaning serqirraligi amalda mavjudligidir. Xo‘jalik faoliyati qonuniyatlarida uni to‘liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotda va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo‘llanilmasligi bilan sharhlanadi. Undan tashqari tavakkalchilik bu – bir-biriga mos kelmaydigan, ba’zida xatto qarama-qarshi real holatlar yig‘indisidan iborat murakkab jarayondir. Tavakkalchilik tushunchasi rus tilidagi “Risk” so‘ziga ekvivalent sifatida olindi. Endi “Risk” toifasidagi tushunchaga nisbatan mavjud ba’zi-bir yondashuvlarni qarab chiqamiz.

“Risk” termini grekcha ridsikon, ridsa - so‘zlarida tik qoya, qoyatosh mazmunini anglatadi, italyancha “risiko” - so‘zida havfli, havf-xatar, risicarechzida qoyalarga chap bermoq mazmunini anglatadi. Fransuzcha “risdoe” tahlika, havf-xatar, qo‘rqinch, (tik qoyadan aylanib o‘tishda go‘yoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi. Vebster lug‘atida “risk” zarar yoki ziyon ko‘rish imkoniyati, havf-xatari deyilsa, Ojegov lug‘atida “risk” so‘ziga “havf-xatar xolati imkoniyati” yoki “muvaffaqiyatli xarakat” deb tarif beriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, maxsus lug‘atlarda (falsafa, xarbiy, iqtisodiy va x.z) – “risk” tushunchasi umuman uchramaydi. U xatto katta sovet ensiklopediyasi va sovet ensiklopedik lug‘atining oxirgi nashrlarida, besh tomli falsafiy ensiklopediya va falsafiy ensiklopedik lug‘atida, hamda “Ilmiy-texnik taraqqiyot” lug‘ati va boshqalarda ham uchramaydi. Tahlillar, adabiyotlarda “risk” to‘g‘risidagi tushunchaga omadsizlik yoki havf-xatarga (havf-xatar holati) imkoniyat degan tarif keng tarqalganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ham shu xol ko‘rinadi.

“Moliyaviy menejment” kitobida unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Risk” –tavakkalchilik - bu bashorat qilinayotgan variantlarga nisbatan daromad ololmaslik yoki zararlarini paydo bo‘lish ehtimoliyatidir. “Zamonaviy biznesda tavakkalchilik” kitobida: tavakkalchilik deganda ma’lum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida qo‘shimcha xarajatlarni paydo bo‘lishi yoki

daromadning olinmasligi hamda tashkilot tomonidan o‘z resurslarini yo‘qotish ehtimoliyatini anglash tushuniladi” - deb ta’rif beriladi. Yuqorida keltirilgan barcha ta’riflardan: “tavakkalchilikni havf-xatar, zarar ko‘rish holati” - degan hususiy xislatini ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Lekin keltirilgan ta’riflar tavakkalchilikning barcha mazmuni, mohiyatini to‘liq ifodalay olmaydi.

“Tavakkalchilik”ning tarifini to‘liq belgilash uchun, oldin “tavakkalchilik vaziyati” tushunchasiga ta’rif berishimiz kerak, chunki u bevosita “tavakkalchilik” -termini mazmuni bilan uzviy bog‘liq. Biz rus lug‘atida qabul qilingan gap “Risk” –so‘zini “tavakkalchilik” deb tarjima qildik. Bu terminning yana ekvivalenti o‘zbek tilida “qaltislik” va “risk”ni o‘zini ishlatish kerak degan fikrlar bor. Chunki “Tavakkalchilik” so‘zi “Risk”ni to‘la mazmunini o‘zbek tilida ifodalay olmaydi. Kelajak o‘zbek tilida qaysi so‘zni tanlashni ko‘rsatib berar. “Vaziyat” tushunchasi u yoki bu faoliyat uchun imkoniyat yaratuvchi turli holat va shart-sharoitlar jamlamasining birikuvi deb tarif berish mumkin. Bunday holda vaziyat mazkur faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish yoki unga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Har xil vaziyat turlari ichida, tavakkalchilik vaziyati alohida o‘rin tutadi. Aksariyat iqtisodiy jarayonlarni amal qilish va rivojlanishi noaniqlik, ya’ni, mavhumlik elementlarga tayanadi. Bu esa bir xil echimi bo‘lmagan vaziyatlarni yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Agar u yoki bu vaziyatni ehtimoliyati darajasini miqdor va sifat jihatdan aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lsa u tavakkalchilik vaziyati bo‘ladi. Bu yerda tavakkalchilik vaziyati statistik jarayonlarga bog‘liq bo‘lib, unga mavjud bo‘lgan uchta shart xamrohlik qiladi - degan xulosa kelib chiqadi. Ularga:

- noaniqlikning (mavhumlikning) mavjudligi;
- muqobil (alternativ) tanlovning zarurligi (bu holda, shuni ham nazarda tutish kerakki, tanlovdan voz kechish bo‘yicha tovlash xam tanlov xilma-xilligiga doir bo‘ladi);

- tanlangan muqobil variantni amalga oshirish ehtimoliyatini baholash imkoni borligi kiradi. Shuni qayd etish lozimki, tavakkalchilik vaziyati sifat jihatdan noaniklik (mavhumlik) vaziyatidan keskin farq qiladi.

Noaniqlik vaziyati - amalda o‘rnatish imkoni bo‘lmagan xodisa va qarorlar natijalarini xosil bo‘lish ehtimoliyatidir. Shunday qilib,

tavakkalchilik vaziyatini aniqlanishi mumkin bo'lgan va amalga oshuvchi xodisalar ehtimoliyatidagi noaniqliklar xilma-xilligi deb tarif berish mumkin. Ya'ni, bu holda taxminan sheriklarning ishlab chiqarishdagi hamkorligidagi faoliyati, raqiblarning qarshi harakati, iqtisodiyot taraqqiyotiga tabiiy muhitning ta'siri, ishlab chiqarishga ilmiy texnik yutuqlarni joriy etish natijasida paydo bo'luvchi xodisalar ehtimolini obyektiv baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Tavakkalchilikni bir necha turlarga bo'lish mumkin:

- ixtiyoridagi bir nechta muqobillikdan tanlovchi subyekt, bashorat qilinayotgan natijalarni olish uchun obyektiv ehtimoliyatiga (statistik tadqiqotlar natijalariga asoslanuvchi) ega bo'ladi;

- kutilayotgan natijalarni ro'y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni, subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi;

- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimollikka ega bo'ladi;

- kutilayotgan natijalarni ro'y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni, subyekt, subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi;

- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimolliklarga ega.

Tavakkalchilik vaziyatlardan "chiqish uchun", subyekt tanlov o'tkazadi va uni amalga oshirishga xarakat qiladi. Tavakkalchilik tushunchasini anglash aynan shu jarayonda o'z ifodasini topadi. Sub'yektning faoliyat rejasi esa bu jarayon tavakkalchilik tushunchasini anglashda o'z ifodasini topadi. Amalga oshirishga harakat qilish uchun qaror tanlovi bosqichida bo'lganidek, amalga oshirish bosqichida xam mavjud bo'ladi. Bu va boshqa xollarda tavakkalchilik konkret ziddiyatlarni noaniq vaziyatda rivojida qarama-qarshi intilishlari orqali amaliy yechimini topish usuli bilan subyekt tomonidan noaniqliklarni olish modelini ifodalaydi. Tavakkalchilik - bu omadsizlik holatida vaqtincha tanlovga qadar bo'lgan xoldan ham yomon vaziyatda bo'lish imkoniyati mavjud bo'lganida tanlov sharoitida amalga oshiriluvchi faoliyat (hatti-harakat)dir. Bu tarifda omadsizlik havf-xatar xolati bilan bir qatorda, alternativlik (muqobillik) kabi hislat ham ishtrok etadi. Tavakkalchilik - bu muqarrar tanlov vaziyatidagi noaniqliklarni bartaraf etish bilan bog'liq jarayonda ko'zlangan natijalarga erishish omadsizlik va maqsaddan

chekinish ehtimolini miqdor va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud xoldagi faoliyatidir.

1.3. Risk menejment tizimining tarkibiy elementlari

“Risk” - xodisasida uning mohiyatini tashkil etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tanlangan muqobillikni (alternativani) amalga oshirish maqsadida ko‘zlagan maqsaddan chekinish mumkinligi;

- ko‘zlagan natijaga erishishning ehtimolligi;

- ko‘zlagan maqsadga erishish uchun ishonchsizlik (ishonchning yo‘qligi);

- alternativani noaniq sharoitdagi tanlovni amalga oshirish bilan bog‘liq moddiy, ma’naviy va boshqa yo‘qotishlarning mavjudligi.

Riskning muhim elementlaridan biri bu tanlangan maqsaddan chekinish ehtimolining borligidir. Bunday holdagi farqlanish ijobiy va salbiy hislatda bo‘lishi mumkin. Ko‘rsatib o‘tilgan elementlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirchanligi riskning mazmun mohiyatida namayon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda riskka uning mohiyatini anglash imkonini beruvchi bir qancha hislatlar xosdir. Unga quyidagi hislatlar kiradi.

- qarama-qarshilik (zidlik);

- alternativlik (muqobillik);

- noaniqlik (mavhumlilik).

Qarama-qarshilik riskning muhim hislatlaridan biri bo‘lib u turli qarashlarda namoyon bo‘ladi. Risk faoliyatining hilma-xilligini ifodalar ekan, bir tomondan tanlov muqarrarlik vaziyatida va noaniqlik sharoitidaligi murakkab uslublar bilan umum ahamiyatga moyil natijalarni olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda u konservatizm, dogmatizm, qoloqlik kabi jamiyat taraqqiyotga ruhiy to‘siqlarni bartaraf etadi. Tugatmoq, bo‘luvchi ruhiy to‘siqlarni bartaraf etadi va yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga qarshilik jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchilarga qarshi muvaffaqiyatni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga tashabbuskor ijtimoiy eksperimentlarni yangi g‘oyalarni amalga oshirishni ta’minlaydi.

Tavakkalchilikning bu hususiyati muhim iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy ruhiy oqibatga sabab bo'ladi, chunki u jamiyat va texnika taraqqiyotini ta'minlaydi, jamoatchilikning fikirlash doirasiga ijobiy ta'sir etadi. Ikkinchi tomondan, tavakkalchilik avantiyurizm, valyun-tarizm, subyektivizimga, ijtimoiy taraqqiyotni to'xtatishga olib keladi. Riskning qarama-qarshi tabiati mavjud tavakkal xarkatlarning to'qnashuvida namoyon bo'ladi. Masalan, u yoki bu xarakterni amalga oshirish uchun maqbul yo'lni tanlagan kishi o'zini tavakkal ish qilgan deb xisoblasa, boshqa odamlar tomonidan u ehtiyotkorlik har qanday riskdan xolis yoki aksincha deb baholash mumkin.

Riskning muqobillik xususiyati ikki va undan ortiq variantdagi imkoniyatlar, yo'nalishlar, harakatlar orasidan o'ziga mos keluvchi variantni tanlash zaruratidan kelib chiqadi. Tanlov imkoniyatining mavjud bo'lmasligi, risk holatini inkor etadi. Qayerdagi tanlov bo'lmasa u yerda risk xarakterdagi vaziyat yuzaga kelmaydi, demak risk mavjud bo'lmaydi. Risk vaziyatning aniq mazmuniga bog'liq xolda alternativlik turli darajada murakkablikka ega bo'ladi va u turli usullarda xal etiladi. Agar oddiy vaziyatlarda tanlov amalda to'plangan tajriba va ichki xis tuyg'uga asoslansa, murakkab vaziyatlarda qo'shimcha maxsus usul va uslublardan foydalanish zarur. Riskni mavjudligi bevosita o'z ma'zmun shaklining hilma-xiligi bilan farqlanuvchi noaniqliklar bilan bog'liq.

Riskning bu hislatiga risk manbalarini o'rganayotganimizda batafsil to'xtalamiz. Bu yerda biz faqat "Risk"ni ishonchsiz va bir xillikni inkor etuvchi noaniqlikni "bartaraf etish" usullari sifatida qarab chiqamiz. Riskni bu xislatiga e'tiborni qaratishimizning muhimligi shundan iboratki u noaniqlikning obyektiv va subyektiv manbaalarini inkor etadi va boshqaruv jarayonlarini amalga opti-mallashtiradi, qolaversa gap qandaydir noaniqliklarni to'liq bartaraf etish ustida emas (amalda mumkin bo'lmagan), balki ratsional alter-nativani tanlash maqsadida riskni hisobga olish zarurati ustida ketmoqda.

1.4. Risklarni turlariga ajratish

Risk - bu mumkin bo'lgan noaniqliklarda ma'lum xajmdagi faoliyatni bajarish, ya'ni, bajariladigan ishlar natijasiga zarar

etkazuvchi xar hil ziyonlar yoki katta xajmda daromad olish imkoniyatidir. Ko‘p hollarda tadbirkor ma’lum bir risk asosida ishlab chiqarishga majbur. Majburiy riskda riskni boshqarish uchun mumkin bulgan noaniqliklarni bartaraf etishga intilinadi. Qarorlar qabul qilishda biz ikki turdagi riskka yo‘l qo‘yamiz:

1. riskni hisobga olgan holda umumdavlat qarorlarini qabul qilish;

2. mahalliy ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishida talab va taklif munosabatlari orasida ham ma’lum bir riskka tayaniladi. Noaniq qarshiliklar natijasida yuzaga keluvchi risk “Fors – major” deyiladi. Ko‘p hollarda noaniqliklar va tavakkalchilikni sinash tushunchalari deyiladi. Lekin (risk uchun) noaniqliklar ba’zi hollarda risk sifatida ko‘rinadi yoki ba’zi bir noma’lum xodisalarni paydo bo‘lishida yoki paydo bo‘lishi bizga noaniq vaziyat ehtimoli ko‘rinishida paydo bo‘ladi. Amalda uzoq muddatli va qisqa muddatli risk mavjud. Uzoq muddatli risk qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlarini rivoji bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda butun xalq xo‘jaligi darajasida qabul qilinadi. Qisqa muddatli risk kon’yunkturali hisoblanadi6 ya’ni, ma’lum vaqt davomida bajariladigan ma’lum turdagi ishlarni bajarishda qabul qilinadi.

Risk turlari quyidagi sinflarga bo‘linadi:

- 1) xo‘jalik riski;
- 2) inson tabiati bilan bog‘liq risk;
- 3) tabiiy omillar bilan bog‘liq risk.

Xo‘jalik riski muvaqqat va obyektiv riskdan tashkil topadi. Muvaqqat risk bu - ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltirilgan mahsulot keraksiz bo‘lib qolishidir. Obyektiv risk bu - mazkur mahsulot mazkur xududda sotilmay qolishidir. Tadbirkorlar o‘z faoliyatlari davomida quyidagi vaziyatlarda tavakkalchilikni hisobga olishlari lozim.

1) Ishlab chiqarish sohasida: boshqaruv, taqsimot, texnologiya, texnika va ob-havo bilan bog‘liq risk;

2) vositachilik sohasida: fuqarolik ma’suliyati imkoniyatlari, mulk, pul vositalari va daromadni yo‘qotish bilan bog‘liq risk;

3) savdo sohasida: tovarning sotilmasligi, mahsulotni o‘z vaqtida yetkazib bera olmaslik bilan bog‘liq risk;

4) moliya sohasida: baho bilan bog‘liq, nelikvidlik, depozit, bank opreatsiyalari, valyuta, sug‘urta, mulkchilik kredit bilan bog‘liq risk.

Asosiy tayanch tushunchalar

Risk, moliya, baho, valyuta, likvidlik, depozit, bank, sug‘urta, kredit, risk, texnologiya, qaror, talab, taklif, bozor, menejment, fors-major, xo‘jalik riski.

Takrorlash uchun savollar

1. “Risk nazariyasi” fani necha davrga ega?
2. “Daromad yoki kutilayotgan daromad davlat qimmatli qog‘ozlarni foiz ko‘rsatkichlari bilan aniqlanishi zarur, bu jarayon risk darajasi bilan bog‘langan bo‘lib, kutilayotgan risk darajasi qanchalik katta ekanligini aniqlab beradi” bu fikrni kimlar bildirgan?
3. “Risk” so‘zining ispancha - portugolcha ma‘nolarini tasniflang?
4. “Risk” so‘zining rus tilidagi manosi tasniflang?
5. “Risk - bu “salbiy, yomon: mahsulot bo‘lib, uni sotish yoki sotib olish mumkin” - bu fikrni kim bildirgan?
6. Biznes Oksford lug‘atida riskka qanday tarif berilgan?
7. Noaniqlik qanday omillar harakati tufayli yuzaga keladi?
8. “Risk - bu moliyaviy yo‘qotish darajasini belgilaydi” degan fikrni kim bergan?
9. Risk qanday moliyaviy yo‘qotish darajalarini belgilaydi?
10. Riskni nimalar bilan bog‘langan holda qarash lozim?

2-BOB. RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Risklarni boshqarishning asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hamda u bilan bog'lik moliyaviy, ma'naviy boshqa yo'qotishlarda ma'lum bir mexanizm yordamida talab paydo bo'ladi, uning natijasida tadbirkor (firma) erishishi mumkin bo'lgan maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay imkoniyatdagi usulda xo'jalik qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish uchun tavakkalchilik xavf-xatarini xisobga oladi.

Bu mexanizm tavakkalchilikni boshqarish deyiladi. Tavakkalchilikni boshqarish bu qandaydir darajada tavakkal vaziyatlar sodir bo'lishi imkoniyatini bashorat qiluvchi xamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkonini beruvchi tadbirlar, usullar va uslublar jamlamasi deb tarif beriladi. Tavakkalchilikni boshqarish bir tizim sifatida ikki kichik tizimdan tashkil topadi. Unga boshqariluvchi quyi tizim (boshqaruv ob'yekti) va boshqaruvchi yuqori tizim (boshqaruv subyekti) kiradi.

Tavakkalchilikni boshqarish tizimida boshqaruv ob'yekti bo'lib kapital kiritishning tavakkalchiligi va tavakkalchilikni amalga oshirish jarayonida xo'jalik subyektlari (tadbirkor va raqiblar, raqobatchilar, qarz oluvchi va qarz beruvchilar, sug'urtachi va sug'urta oluvchilar) orasidagi iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Tavakkalchilikni boshqarish tizimida boshqaruv subyekti bo'lib o'z faoliyatlari vositasida boshqaruv ob'yektiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi maxsus odamlar guruxi (tadbirkor, moliyaviy menejer, tavakkalchilik buyicha menejer, sug'urtalash buyicha mutaxassis va boshqalar) gavdalanadi.

Tavakkalchilikni boshqarish iqtisodiy faoliyatda maxsus soha bo'lib, u xo'jalik faoliyatining iqtisodiy taxlili, psixologiya, sug'urta ishlari, xo'jalik qarorlarini optimallashtirish usullari sohasida chuqur bilim talab qiladi.

Bu soxada tadbirkorning asosiy vazifasi loyiha qanchalik daromadli bo'lsa, uni amalga oshirishda tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo'lishidan kelib chiqib, mazkur loyiha uchun daromad va tavakkalchilikning birikuvini optimal darajada ta'minlovchi xarakter

variantini topishdan iborat bo‘ladi. Bu yerda shuni ta’kidlash lozim-ki, iqtisodiy jarayonning ajralmas bo‘lagi bo‘lgan tavakkalchilikning mavjudligi, shuningdek, bu soxada qo‘llanilayotgan boshqaruvga ta’sir vositalari shunga olib kelmoqdaki, tavakkalchilikni boshqarish qator xollarda maxsus mustaqil kasbiy faoliyat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu turdagi faoliyatni ixtisoslashgan institutlar mutaxassislari, sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, moliyaviy, tavakkalchilik bo‘yicha menjerlar sug‘urta mutaxassislari amalga oshiradi.

Tavakkalchilik bo‘yicha mutaxassislarning bosh vazifasiga:

- Kuchaygan tavakkalchilik soxalarini aniqlash;
- Tavakkalchilik darajalarini baholash;
- tashkilot (firma) uchun mos keluvchi tavakkalchilik darajasini taxlil qilish;

- zarur vaziyatlarda tavakkalchilik darajasini pasaytirish yoki undan himoyalash tadbirlarini ishlab chiqish;

- Tavakkalchilik xodisasi sodir bo‘lganida undan ko‘rilgan zararni maksimal darajada to‘plam bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish kabilar kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining xususiyatiga qarab, tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilish yoki uni amalga oshirish bo‘yicha aniq usul va uslublar ma’lum darajada farq qiladi, xamda firmaning maqsadga erishish uchun tanlangan strategiyasi, konkret vaziyatga bog‘lik bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda boshqaruv subyektlari uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etiluvchi tavakkalchilik nazariyasi va amaliyotini boshqarish bo‘yicha bir qator asosli prinsiplari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘z kapitalingiz imkoniyatidan ortiq xavf-xatarga yo‘l qo‘ymang;

- tavakkalchilik oqibati to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring yoki yetti o‘lchab bir kesing;

- arzimmas narsa uchun katta xatarga bormang.

Birinchi prinsipni amalga oshirishning ma’nosi shuki tadbirkor tavakkal vaziyatda qaror qabul qilishida: agar ishi aksiga ketsa ko‘radigan zararini maksimal hajmini hisobga olishi; agar ishi aksiga sodir bo‘lsa ko‘radigan zararini maksimal hajmini hisobga olishi.

Uni kirayotgan kapitali va boshqa xususiy moliyaviy resurslar bilan taqqoslab, kelgusida ko‘rilgan zarar bankrotga olib kelmasligini

hisobga olish lozim. Ikkinchi prinsipni amalga oshirish esa tadbirkor ko‘rishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini bilgan xolda tavakkalchilik ehtimoli qanday, uning oqibati nimaga olib kelishni aniqlashini hamda bu ma’lumotlar asosida tadbirkor tavakkalchilik xatari uchun mas’uliyatini o‘z zimmasiga olish yoki shu mas’uliyatni o‘zgalar (sug‘urtalash orqali) zimmasiga yuklanish yoki shu tadbirni bajarishdan voz kechish to‘g‘risida qaror qabul qilishni talab qiladi. Uchinchi prinsipni amalga oshirishda tadbirkor xatarga borishni tavakkal qilishda uning nazarda tutayotgan natijalarni, yo‘qotish hajmini hisobga olish lozim.

Tadbirkor uchun tavakkalchilikdan ko‘rilgan zarar va foyda nisbatan qoniqarli bo‘lsagina tavakkal qilish to‘g‘risida bir qarorga kelish mumkin. Bu yerda shuni ta’kidlash lozim-ki, xar bir yuqorida qayd etilgan nisbatni mos kelgan xar bir aniq vaziyati xilma xil bo‘lib u ko‘plab omillarga ya’ni, mulkiy holatga tadbirkorning tavakkalchilik xavf-xatari sohasidagi siyosati, taktika va strategiyasi loyiha vazifa va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Vaxolanki, mas’uliyatning bu masalasi ham iqtisodiy va hukukiy jixatlar mavjud. Xo‘jalik qarorlari bilan bog‘liq tavakkalchilikdagi mas’uliyat masalalari, amaliy tajribalar va bu sohada to‘plagan tajribalar to‘g‘risida batafsil to‘xtalamiz.

Tavakkalchilik tushunchasi tabiiy fanlarda aniqlab o‘z tarifini topgan hamda matematik formulada ifoda etilgan. Ammo iqtisodiyot o‘ziga xos hislat va xususiyatga ega. Shuning uchun «xo‘jalik tavakkalchiligi» degan maxsus atama tarifini berishimiz zarur. Keyingi yillarda ko‘plab maqola va ilmiy ishlarda mualliflar tashkilotning xo‘jalik faoliyati, rejalashtirish, bozor mexanizmi, talab va taklif munosabatlarini qarab chiqishda xo‘jalik tavakkalchiligi masalalariga katta e’tiborni qaratmoqdalar.

Biz ko‘plab xollarda, ilmiy xulosalarda yuqorida aytib o‘tilgan soxalarda qarorlar qabul kilishda tavakkalchilik elementlarini hisobga olish zarurligini va hatto uni maqsadga muvofiqligini qayd etilishini kuzatdik. Aksariyat mualliflar texnikaviy va xo‘jalik qarorlarini qabul qilishni tavakkalchiliksiz amalga oshirib bo‘lmaydigan g‘oyani ilgari surmoqdalar, chunki tavakkalchilikni tan olmaslik, rivojlanishga sun’iy to‘siq qo‘ygan bilan barobardir. Biz ishlari bilan tanishgan yana bir gurux mualliflar: tavakkalchilikning moxiiyati, maqsadga erishishda ko‘riladigan zararda emas, balki maqsadga erishish uchun yo‘nalishni

o'zgartirish to'g'risida kabul kilingan qarorlar uchun yaratilgan imkoniyatda degan g'oyani ilgari suradilar. Tavakkalchilik tushunchasining ko'rinishi mumkin bo'lgan zarar imkoniyati tor ma'noda talqin qilinishi, uni iqtisodiy soxada to'g'ri qo'llanilishini ancha cheklab qo'yadi.

2.2. Risk tushunchasi va terminlariga nazariy yondashuv

Shuni ham qayd etish lozimki, ba'zi iqtisodchilar so'zma-so'z «tavakkalchilik» va «noaniqlik» terminlar tushunchalari orasidagi farqni izlashadi. Noaniq va ziddiyatlardan tavakkalchilik vaziyati sifatida sodir bo'lishi extimol bo'lgan va hatto baholangan noma'lum xodisalar qaraladi. Ayni paytda sodir bo'lishi extimolini oldindan bilmagan noaniq vaziyatlar endi biz an'anaviy usullar bilan bartaraf etilmagan vaziyatlarni - «noaniqlik» deb ataymiz. Bundan ancha mashhur bo'lgani «vis major» (yengilmas to'siq) bo'lib, uning sodir bo'lishi hamma vaqt to'la tasodifdir.

Shuni qayd etish lozimki, rejalashtirilgan kelgusi natijalardan chekinish hamma vaqt zarar ko'rish bilan bog'liq bo'lmay, goho qo'shimcha daromad ham keltiradi. Shunga ko'ra siz, tushumlar tavakkalchiligi to'g'risida ham ketishi mumkin, ya'ni xarajatlar qilish tavakkalchiligi bilan bir qatorda, qo'shimcha daromad (foyda) olish tavakkalchiligi ham mavjud.

Oldindan rejalashtirilgan iqtisodiy o'sishda tasodifiy omillar ta'sirini tan olinishi, kutilgan va ziddiyatni sodir bo'lishini orqaga surishi, yoki uni mazmun- moxiyatini o'zgartirishi mumkin-ki, u o'z-o'zidan kun tartibiga xo'jalik tavakkalchiligi muammolarini qo'yadi. Iqtisodiyotni davlat boshqaruvi sharoitida ikki turdagi xo'jalik tavakkalchiligi mavjud, aynan xalq xo'jaligi tavakkalchiligi (global, umumiy) va tashkilot doirasidagi tavakkalchilik (lokal, maxalliy) bo'lib, ular dialektik yagona qarama-qarshilikda turadi, bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir etadi, ayni paytda ma'lum darajada avtonom holda uchraydi. Ular shuningdek, o'zaro qarama-qarshi mayl, rag'batlarni tashuvchi hamdir, ayniqsa u iqtisodiy muhit ikkala tavakkalchilik vaziyatini vujudga keltirish uchun bir xil imkoniyat yaratganda yaqqol namoyon bo'ladi. Tavakkalchilik elementlarini paydo bo'lish imkoniyatlari nafaqat yirik yo'qotishlarda ifodalanadi, balki

birinchi navbatda katta daromad olishda ham gavdalanadi, shuning uchun ham barcha xo‘jalik raxbarlari tavakkalchilikka borishadi. Bir xil sharoitda olinadigan katta daromad-jadal rivojlanish natijasidir. Tavakkalchilikni xisobga oluvchi rejalashtirilgan tadbirda ijobiy natijaga erishishni ta‘minlovchi sharoit yaratish murakkab ish. Bu sharoit birinchi navbatda iqtisodni boshqarish tizimi bilan belgilanadi.

2.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarni boshqarish

Davlat tomonidan boshqariluvchi iqtisodiyotni boshqarish tizimida katta rolni (katta hajmda) tashkilotlar o‘ynaydi. Ular nafaqat o‘zlari ishlab chiqaruvchi mahsulotlar miqdorini belgilaydi, ya‘ni kelgusida ularni sotilishga tavakkalchilikka boradi va shuning uchun ham tashkilot rivoji uchun yo‘naltirilgan bir qism mablag‘larning xususiy qarorlari ixtiyorida bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy shart-sharoit tashkilot darajasida, shuningdek, xalq xo‘jaligining barcha darajasida jadal rivojlanish bilan bog‘liq tavakkalchilikni qabul qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Tavakkalchilikning ikki (globalva lokal) turini yana ikkiga ajratish mumkin:

- uzoq muddatli (rivojlanish bilan bog‘lik tavakkalchilik);
- qisqa muddatli (kon’yunkturali) tavakkalchilik.

Endi quyidagi qizikarli xulasaga kelamiz; to‘g‘ri xulosa sxemali va ixcham; ya‘ni uzoq muddatli tavakkalchilik (ya‘ni rivojlanish bilan bog‘liq tavakkalchilik) hammadan oldin xalq xo‘jaligining barcha darajasida qarorlar qabul qilish uchun xarakterli bo‘lsa, qisqa muddatli (kon’yunkturali) tavakkalchilik bosh darajada lokal tavakkalchilikka xosdir, ya‘ni, tashkilot darajasidagi qarorlar tavakkalchiligidir. Lekin bunday xulosa bizni o‘ta noto‘g‘ri yo‘nalishga olib borishi mumkin. Bir tomondan u xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirishda kon’yunktur imkoniyatlardan foydalanish va uni tarifini o‘z ichiga olmaydi, ikkinchi tomondan tashkilot oldida istiqbolli rivojlanishni bo‘g‘ib qo‘yadi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmog‘i, alohida tashkilot rivoji uchun bunday xulosaning naq adar salbiy ekanligini quyidagi misolda aniq ko‘rish mumkin.

Tashkilot ishlab chiqarishdagi o‘zini tutgan o‘rnidan kelib chiqib, kon’yunktur o‘zgarishga jadal moslashdi, deylik, lekin u buni

faqatgina o'zini joriy rejalarini barqaror kon'yunktur intilishni ishlab chiqish orqali amalga oshiradi.

Qaror qabul qilishning bu jarayoni nafaqat o'z imkoniyatlarini xisobga olishga tayanishi, balki shunday strategiyani ishlab chiqishi kerak-ki, u «hamkor»lar, hamda raqiblarning xatti harakati va qabul qilishi mumkin bo'lgan qarorlarini ham hisobga oladi. Faqat bunday mo'ljallarni obyektiv baholash orqaligina tashkilotni kelgusi muvafaqiyatini ta'minlash mumkin.

Maxsus adabiyotlarda tavakkalchilik turlarini boshqa usulda sinflarga ajratish uchraydi. Ular uch yirik guruhdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik tavakkalchiligi;
- insonning o'zini tabiati bilan bog'liq tavakkalchilik;
- tabiiy omillar bilan bog'liq tavakkalchilik.

Bu tavakkalchilik eng sodda qarordan tortib eng murakkab qarorgacha barchasini ajralmas hislati ekanini yaqqol namoyon etadi.

Qolaversa, "Xo'jalik tavakkalchiligi tushunchasi o'z tarkibiga bevosita tabiat omillari bilan bog'liq tavakkalchilikni hamda keyingi ikki turdagi tavakkalchilikni iqtisodiy oqibatlarini biriktiradi.

Ayni paytda jamiyatning iqtisodiy hayoti inson tabiati va tabiiy omillar bilan bog'liq tavakkalchilikka aks ta'sir ko'rsatadi va ularning mazmunini o'zgartiradi. Bu o'zaro bog'liklikda bir qancha ta'sir etuvchi omillar shakllanadi, masalan: «inson tabiati bilan bog'liq tavakkalchilikda quyidagi elementlarini (masalan: kasallik, baxtsiz xodisa, o'lim, qobiliyat, hayrixoxlik va boshqalar), «iqtisodiy» elementlarini (masalan: ish kuchini unimsizligi, kamomad, o'zlashtirish, ishchilarning malaka darajasi, iqtisodiy manfaatdorlik) kabilar.

Qayd etib o'tilgan tavakkalchilik turlaridan xo'jalik tavakkalchiligi uchun ancha muhimi bu tabiat omillari bilan bog'lik tavakkalchilik bo'ladi, tabiiki u ishlab chiqarishi kimyoviy, biologik va boshqa tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lsa.

Xo'jalik tavakkalchiligi ham ikki turga: muvaqqat va obyektiv (hududiy)ga bo'linadi.

Masalan: Murakkab tavakkalchilik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida keraksiz bo'lib qolganda paydo bo'ladi, u holda ishlab chiqarish to'g'risidagi qaror mahsulot uchun talab barqaror bo'ladi deb hisoblanadi.

Obyektiv tavakkalchilik mazkur hududda, aniq bozorda ishlab chiqarilgan mahsulot sotilmay qolganida paydo bo'ladi. Bu hol asosan tashqi savdo muammolari, xalqaro bozor kon'yunkturasiga ta'sir oqibatida vujudga keladi. Biz endi xo'jalik tavakkalchiligini ta'kidlab o'tilgan yuqoridagi turlarining alohida xususiyatlariga to'xtalamiz.

Xo'jalik tavakkalchiligi kategoriyalari noaniq sharoitlarda ishlab chiqarishni rejalashtirish, iqtisodiy qonunlar tavsifi, ishlab chiqarish jarayonlari, tadbirkorlik daromadi kabi siyosiy, iqtisodiy tushuncha va masalalar bilan bog'liq, uning taxlili nafaqat ta'kidlangan kategoriyalarni tadqiq etish uchun, balki mustaqil kategoriya sifatida ham zarur.

Tadbirkorlik daromadini tadqiq etishdagi tavakkalchilik to'g'risida klassik nazariyotchilar (Senior, Mill) boshlanishda tadbirkorlikda daromadi strukturasi foiz, (kiritilgan kapitalga nisbatan hissa sifatida), tadbirkorning ish haki va nixoyat tavakkalchilik uchun to'lov (tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilik imkoniyatlarini qoplashi misolida) kabi bo'laklarga ajratdilar. Natijada ko'pchilik horijiy iqtisodchilar (Samyuel Rod, Seligman, Sey, Klark va boshqalar) tadbirkorlik daromadini bevosita tavakkalchilik nuqtai nazaridan turib, ya'ni, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni baholay olishda deb ifodalamoqda.

Muhim so'zlar va savollar: Tavakkalchilikning nazariy va amaliy aspektlari, tavakkalchilikni huquqiy va iqtisodiy aspektlari, sof tavakkalchilik, xo'jalik tavakkalchiligi va tadbirkorlik. Xorijiy iqtisodchilar nuqtai nazari.

Asosiy tayanch tushunchalar

Tamoyil. risk, moliya, tadbirkor, mexanizm, bashorat, ob'yekt, subyekt, sug'urta, iqtisod, psixologiya, qaror, optimallashtirish, loyiha, daromad, institut. kompaniya, firma, kapital, foyda, termin, global, lokal, sxema, konyunktura.

Takrorlash uchun savollar

1. Biznes risklaridan samarali foydalanishda qaysi davlat tadbirkorlari faol foydalanishmoqda?

2.Risklarning biznesdagi salbiy ta'siri sotiladigan mahsulot hajmini necha foizga kamaytirishi mumkin?

3.Risklarning biznesdagi salbiy ta'siri aylanma mablag'lar hajmini necha foizga kamaytirishi mumkin?

4.Biznes risklarini boshqarishda avvalo nima qilish zarur?

5.Biznes risklarini boshqarishda nechta tamoyillarga amal qilinadi?

6.Biznes riskini baholashda nechta maqsadlar inobatga olinadi?

7.Biznes riski maqsadlarini baholashning 7-maqsadi nimadan iborat?

8.Biznes riskini baholashda ishlatiladigan axborotni umuman olganda nechta guruhga bo'lsa bo'linadi?

9.Biznesni riskini baholashda ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarni nechta guruh bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir?

10.Biznes riskini boshqarish jarayonida riskni baholash uchun zarur axborot nechta bo'lishi mumkin?

3-BOB.RISKLARNI BOSHQARISH KONSEPSIYASI

3.1. Risklarni boshqarish konsepsiyasining vujudga kelishi

Iqtisodiyotda shunday tushuncha mavjudki, iqtisodiyot mavjud bo‘lmasidan oldin bu tushuncha amalda bo‘lgan. Ammo e’tibor qaratilmagan bu tushuncha, hali hanuz ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bu tushuncha riskdir! Unga dunyo miqyosida katta e’tibor berilayotgan paytda, O‘zbekistondagi milliy ishlab chiqaruvchilar, xo‘jalik yurituvchi subyektlari e’tiboridan chetta qolayotgani, balki yirik korxonalarining, korporatsiyalarning vujudga kelishiga to‘sqinlik qilayotgan bo‘lsa ajab emas! Ammo, bu muammoni bartaraf qilish uchun quyidagi savollarga javob topmog‘imiz darkor:

“Risk” o‘zi nima?

Uning faoliyatga ta’siri qanday? U qayerdan paydo bo‘ladi?

Undan qochish yoki uning ta’sirini kamaytirish imkoni bormi?

Xalqaro tajribada risklarni boshqarish bilan bog‘liq muammolar N.I. Babenkoning “Sanoat holdingida integratsiyalashgan risklarni boshqarishni tashkil etish”, D.B. Pomelovning “Tashkilotda risklarni boshqarishning nazariy va axborot ta’minotidagi jihatlari”, N.N.Skribaning “Risklarni boshqarishning maxsus fanlararo ta’limot sifatidagi konsepsiyasi”, E.Xolmsning “Risklarni boshqarish” va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, risk tushunchasiga, ya’ni, kompaniyaning risk-menejmenti asosida yotuvchi: istalgan natijadan og‘ishuvchi risk-yo‘qotish, risk-imkon, risk-chetlanish kabi yondoshuvlarga ega bo‘lgan turlicha qarashlar va paradigmalarni borligini ko‘rsatadi.

Shunga ko‘ra, Rossiyalik iqtisodchi olim V.T.Sevruk riskka quyidagicha ta’rif beradi: “Risk – bu zarar ko‘rish yoki manfaatni qo‘ldan chiqarish bilan bog‘liq ehtimollar o‘lchovidir”. Professor V.M.Usoskin o‘zining “Zamonaviy tijorat banklari” nomli izlanishida “Risk doimo noaniqlik bilan kelib, oxiri o‘z navbatida oldindan ko‘ra bilish yoki mumkin bo‘lmagan voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi”, deb izoh beradi. Agar iqtisodiy adabiyotlarda berilgan ta’riflarni umumlashtirilsa quyidagi ma’noni olish mumkin: Risk – bu iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u jamiyatning rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy

jarayonlarda aniq bir yechimga ega bo'lmagan holatning miqdor va sifat jihatdan qo'shimcha daromad ko'rish yoki ma'lum zarar ko'rish ehtimoliga aylanishi mumkin bo'lgan voqelikdir.

Risk – bu, miqdor va sifat jihatdan yo'qotishlar ehtimolini ko'rsatsa, unga hayotning har bir jabhasida duch kelishimiz hech kimga sir bo'lmay qoldi. Xususan, risk iqtisodiyot subyektlari oldida yechimi topilmagan muammolardan bo'lib hisoblanishi, unga bo'lgan e'tibor yildan yilga ko'payotganligidan dalolat beradi. O'zbekistonda risklarni boshqarish standarti mavjud emas, uni milliy iqtisodiyotga tatbiq etishdan oldin, xalqaro andozalarni ko'rib chiqqan ma'qul hisoblanadi, zero "Tayyoriga qarab to'n bichish" ham oson, ham qulay va eng asosiysi, vaqtni va pulni tejaydi. Bu o'z navbatida yo'limizni oydinlashtiradi, chunki xalqaro standartlar yuqoridagi savollarga to'liq javob bera oladi!

Birinchi navbatda, moliyaviy risklarni boshqarishning alohida faoliyat sohasi sifatida paydo bo'lish va rivojlanishi bosqishlarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, u risk sohasining o'ziga qaraganda uncha uzoq bo'lmagan, ya'ni taxminan 40 yillik tarixga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu sohani paydo bo'lishi 1973-yildagi 3 ta muhim voqeiliklar bilan bog'liq:

- Qat'iy belgilangan valyuta kurslar siyosatining tugashi (Bretton-Vuds tizimining qulashi);

- Chikago opsionlar birjasi ish faoliyatini boshlanishi (Chikago Board Options Exchange);

- Amerika iqtisodchilari Blek, Shoulz va Mertonlarning opsionlar qiymatini hisoblash modeli (yevropacha) nashr etilishi.

Moliyaviy-risklarni boshqarish rivojlanishi, asosiy moliyaviy risklarni baholashning yangi metod va yondoshuvlari shakllangan uch bosqichdan o'tdi, ular:

Birinchi sifat bosqichi, moliyaviy risklarni baholash, nazorat va boshqaruvi metodologiyasi sohasidagi, 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshidagi risk me'yori qiymati modeli VaR (Value-at-risk, "riskdagi qiymat") paydo bo'lishi bilan bog'liq. VaR moliyaviy instrument bilan egalik qilgandagi yo'qotishning mutloq maksimal hajmini ko'rsatadi. VaR ko'rsatkichi birinchi navbatda, yirik moliyaviy institutlar tomonidan ma'qullangandan keyin, moliya bozori boshqaruvchilari tomonidan e'tirof etilgan. Bunda ehtimol so'ngisi bo'lib, 1994 yilda

J.P. Morgan banki tomonidan Risk Metriks tizimida risklarni boshqarish metodologiyasini ochilishi bo‘ldi. Shunday qilib, moliyaviy risklarni boshqarish sohasidagi birinchi sifatli yuksalish bozor riskini baholash, nazorat va boshqarish bilan bog‘liq bo‘ldi.

Limitlash-bu limitlar o'rnatish, ya'ni, savdo, kapital, xarajat summalariga ma'lum bir chegara qo'yishdir. Cheklashlar, limitlash riskini pasaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. U banklarda ssudalar berishda, xo'jalik subyektlarida tovarlarni (kredit kartochkalari orqali) kreditga sotishda, investorlarda ma'lum bir summadagi kapitalni oborotga qo'yishda qo'llaniladi. Sug'urtalashning mohiyati shundaki, investor risk oldini olish uchun bir qism daromadidan kechishga shay, ya'ni, u trisk darajasini nolga tenglashtirish uchun tulovga tayyor. Aslida, agar sug'urta qiymati kutilayotgan zarar bilan teng bulsa, (ya'ni, 200 ming sum ko'rilishi kutilayotgan zararning sug'urta polisi 200 ming sum bo'lsa) investor riskka yon bermaydi, balki u ko'rinishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni o'rnini to'ldirish uchun uzini sug'urtalaydi. Moliyaviy riskni sug'urtalash uning darajasini pasaytiruvchi keng tarqalgan usullardan biridir.

10.3. Sug'urtalash va xedjirlash

Sug'urtalash-xujalik subyektlari va fuqarolar mulkiy manfaatdorligini ma'lum bir baxtsiz xodisalar (sug'urtalovchi vaziyatlar)dan o'zlari to'lagan a'zolik badallari hisobiga shakllangan pul fondi hisobidan himoyalash bo'yicha munosabatdir. Sug'urtalash quyidagi turlarga bo'linadi shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta, mas'uliyatini sug'urtalash, oldindan sug'urtalash. SHxsiy sug'urta-fuqarolarni sug'urtalash u o'ziga xayotni baxtsiz xodisalardan va

kasalliklardan sug'urtalash hamda tibbiy sug'urtani o'z ichiga oladi. Hujaliksi byektlarini sug'urtalash, mulkiy sug'urtavamas' uliyatni sug'urt alash bilan bog'lik. Mulkiy sug'urta tarkibiga-er ustki qismidagi transportlar mablag'larini sug'urtalash kiradi:

- "havo" transportlar mablag'larni sug'urtalash;

- suv transporti mablag'larini sug'urtalash, moliyaviy risk, xar hil yuklar va boshka mulk turlarini sug'urtalash kiradi.

Mas'uliyatni sug'urtalash: kreditlarni tulay olmagan uchun karzdorlarni sug'urtalash, avtotransport vositalari egalarini sug'urtalash, boshka turdagi ma'suliyatlarni sug'urtalashni o'ziga qamrab oladi. Sug'urtalash majburiy va kungilli tarzda amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtalash-qonun asosida amalga oshiriluvchi sug'urta. Majburiy sug'urta (mol-mulkni majburiy sug'urtalash, majburiy tibbiy sug'urta) harajatlari mahsulot tannarxiga olib boriladi. Kungilli sug'urtalash-sug'urtalovchi va sug'urtalashuvchiorasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Sug'urtalashuvchi- o'z obyektini sug'urtalaydi. Sug'urtalovchi- bo'lib sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyasi (ruksatnomasi) bo'lgan va uni amalga oshiruvchi har qanday xo'jalik subyektiga aytiladi. Sug'urtalash sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) orqali rasmiylashtiriladi. Masalan: Tijorat faoliyatini sug'urtalash-xaridor sotuvchidan 10mln sumga tovar sotib olmoqchi. Ularga bu faoliyatni amalga oshirish uchun xulosa kerak va ular sug'urta jamiyatga murojat qiladilar. Sug'urta jamiyati bu faliyatni sug'urtalaydi, ya'ni, xaridorni 10mln sumga xarid qilishi va sotuvchisi 10mln sumga savdo qilishini sug'urtalaydi.

Sug'urta ta'rif sotuvchi va xaridor uchun bir-xil 10%dan bo'ladi. Demak jamiyat tomonidan olingan sug'urtamukofotining umumiy summasi $10 \cdot 10 = 10 \cdot 10$ buladi.

100 100

Sug'urtashartnomasi gaxarhildagishartlar va izohlarni kiritish mumkin. Ulardan biri- Franshiza. Franshiza-buma'lum biro' lchamdan ortiq bo'lmagan zararni qoplashdani sug'urtalovchini ozod etish. Franshiza o'lchashdebsug'urtalovchi tomonidan to'lanish shart bo'lmagan ko'rilgan zarar qismiga aytiladi.

Ko‘rilgan zarararning buqismi sug‘urtapolisi orqali belgilanadi. Franshiza sug‘urtasummasigavasug‘urtalashobyektiganisbatan absolyut yokinisbiyqiymatdabelgilanishimumkin. Franshiza ko‘rilgan zarar miqdoriganisbatan foizlarda aniqlanishimumkin. Franshizaning 2 hilgamavjud: shartli va muqarrar. SHartli, ya‘ni, hisoblab bulmaydigan franshiza deyilganda agar keltirilgan zarar miqdori franshiza miqdoridan ortiq bo‘lgan holatda to‘lov bilan qoplash va belgilangan summadan ortiq bo‘lmagan miqdordagi zarardan sug‘urtalovchi mas‘uliyatini ozod qilinishi tushuniladi. SHartli franshiza sug‘urta polisida maxsus atama-klauzula ko‘rinishida yuritiladi hamda “X foizdan ozod etilgan” -yozuv ko‘rinishida ifodalanadi (bu erda X-1,2,3 sug‘urta summasidan foiz qiymati). Agar keltirilgan zarar belgilangan franshizadan oshib ketsa u holda sug‘urtalovchi sug‘urtalangan qoplanishni berilgan izohga e‘tibor qilmay to‘liq to‘lashga majbur. Masalan: sug‘urta shartnomasi bo‘yicha shartli franshiza “1 mln sumdan ozod etiladi” deb ko‘rsatilgan. Ko‘rilgan haqiqiy zarar miqdori 0,8 mln so‘mni tashkil etadi, ya‘ni, franshiza summasidan kichik bo‘ladi, shuning uchun zarar qoplanmaydi. Agar ko‘rilgan zarar miqdori 1,2 mln so‘mni tashkil etsa, ya‘ni, franshiza summasidan ortiq bo‘lsa, u zarar to‘liq 1,2 mln sum miqdorida qoplanadi.

Muqarrar yoki hisobga olinuvchi franshiza-mazkur franshiza xech qanday shartlarsiz so‘zsiz qo‘llanilishini anglatadi. Muqarrar franshizda zarar har qanday sharoitda belgilangan franshiza miqdorida kamaytirilib qoplanadi. Muqarrar franshiza sug‘urta polisidaklauzula yordamida “birinchi X foizdan ozod qilinadi” kurinishdagi matn bilan ifodalaniladi.(bu erda X foizlar hamma vaqt ko‘rilgan zarar miqdoridan qat‘iy nazar sug‘urtalangan qoplash summasidan hisoblanadi). Muqarrar franshizada sug‘urtalangan qoplash ko‘rilgan zarar miqdoridan shu franshiza qiymatini farqiga ayirmasiga teng bo‘ladi.

Sug‘urtalash, sug‘urtalangan xodisa, sug‘urtalangan summa, sug‘urtalangan qoplash, sug‘urta badali (yoki sug‘urta mukofoti) ga ajratiladi. Sug‘urtalangan xodisa- shartnomada yoki qonun bo‘yicha sodir bo‘lishi bilan sug‘urtalashuvchiga yoki qandaydir uchinchi shaxsga sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish bo‘yicha sug‘urtalovchi mas‘uliyatni paydo qiluvchi xodisalarga aytiladi. Sug‘urtalangan xodisalarda sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalangan qoplash ko‘rinishda

beriladi. Sug'urtalangan summa bo'lib aniq shartnoma yoki qonun asosida ko'rsatilgan. Sug'urtalanuvchi xayoti va solig'i fuqarolik ma'suliyati, qimmatliliklarini sug'urtalangan pul summasi ifodalanadi. SHundan kelib chiqqan holda sug'urta badali va summasi o'lchami belgilanadi.

Uchinchi shaxs oldida sug'urtalanuvchining keltirgan moddiy zararini fuqarolik ma'suliyati va mol-mulkini sug'urtalash orqali sug'urta fondi hisobidan zarar qoplash uchun ishlatilgan to'lov summasiga sug'urtalangan qoplash deyiladi. Sug'urtalangan qoplash sug'urta shartnomasi yoki aniqsug'urtalangan xodisa shart- sharoitidan kelib chiqqan holda sug'urta summasidan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Sug'urtalangan qoplash miqdori sug'urta sistemasidan kelib chiqqan holda turli usullarda hisoblanadi. Mol-mulkni xaqiqiy qiymati bo'yicha sug'urtalashda sug'urtalangan qoplash summasi shartnoma imzolangan kundan xaqiqiy mulk qiymati bo'yicha aniqlanadi. Sug'urta ta'minoti ko'rilgan zararga teng bo'ladi. Proporsional javobgarlik sistemasi buyicha sug'urtalashda sug'urtalangan qoplash qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = \frac{S * U}{S}$$

Buerda: V- sug'urtalanganqoplashqiymati.(sum)da;

S-shartnomabuyichasug'urtasummasi.(sum);

U-kurilganzararningxakikiysummasi (sum);

S-Sug'urtalanganobyektini baholangannarxi (sum).

Masalan:sug'urtalanganobyektning baholangansummasi-10mln sum.Sug'urta summasi-5mln sum. Sug'urtalovchini obyektini shikastlanishidan ko'rilgan zarar-4mln sumni tashkil etadi. Buholatdasug'urtalanganqoplashsummasi.

$$V = \frac{S * U}{S} = \frac{5 * 4}{5} = 2 \text{mln sumnitashkiletadi.}$$

Birinchorisktizimibuyichasug'urtalashda, sug'urtalanganqoplash ko'rilganzarar miqdoridalekinsug'urtalangan summa chegarasida to'lanadi. Unda barcha ko'rilganzararsug'urtalangan summa chegarasida (birinchoriskda)

to'liqqaytariladiamosug'urtalangansummadanortiqzarar miqdori.(ikkinchi tris) umumanqoplanmaydi.Masalan: birinchi risk sistemasi buyicha avtomabil 4 mln so'mga sug'urtalangan. SHikastlanish tufayli avtomabilga 2 mln so'mlik zarar etdi.

Sug'urtalangan qoplash miqdori 2mln sum bo'ladi. Masalan: birinchi risk sistemasi buyicha mol-mulk 40mln sumga sug'urtalangan. Ko'rilgan zarar 60mln so'mni tashkil etdi. Sug'urtalangan qoplash summasi 40mln so'mga teng bo'ladi.

"Kasr qismi" (nisbat qismi) sistemasi bo'yicha sug'urtalash holatida ikkita sug'urta summasi o'rnatiladi va ulardan birini ko'rsatilgan qiymat deyiladi. Bu qiymat buyicha sug'urtalovchi foizlarda yoki natural kasrda ifodalangan riskni qoplash summasini oladi. Sug'urtalovchi ma'suliyati kasr qismlari o'lchami buyicha cheklangan bo'ladi. SHuning uchun sug'urta summasi ko'rsatilgan qiymatdan va uning kasr qismidan kam bo'ladi. Sug'urtalangan qoplash sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan xajmdagi ko'rilgan zarar miqdoriga teng bo'ladi. Qiymatni tiklash bo'yicha sug'urtalashda obyekt uchun sug'urtalangan qoplash miqdori mos turdagi mulkni yangi bahosiga teng bo'ladi. Mulkni eskirishi hisobga olinmaydi.

Mulkni sug'urtalashda sug'urta summasi shartnoma imzolangan vaqtidagi uning xaqiqiy bahosidan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar sug'urta shartnomasida to'lanishi lozim bo'lgan sug'urtalangan qoplashning aniq summasi ko'rsatilmagan bo'lsa sug'urta vaziyatida sug'urtalangan qoplash sug'urtalovchi yoki uchinchi shahsning sug'urtalangan mulkiga etkazilgan zarar miqdoridan oshmasligi kerak. Agar sug'urtalovchi bir nechta sug'urta kompaniyasi bilan o'z mulki qiymatidan bir necha barobar ortiq miqdordagi summaga sug'urta shartnomasi tuzsa (ikkilamchi sug'urtalash). U holda uning barcha sug'urtalangan kompaniyalardan oladigan sug'urtalangan qoplash miqdori shu mulkning sug'urtalangan qiymatidan ortiq bo'lmasligi kerak. Unda har bir sug'urta kompaniyasi ko'rsatilgan mulkni sug'urtalash bo'yicha sug'urtalovchi bilan tuzilgan hamma shartnomalarning umumiy summasiga proporsional nisbatda sug'urtalangan qoplam summasini to'laydi.

Sug'urtashartnomasida ko'rilgan zarar summasini sug'urtalangan summasi chegarasida natura shakli da berish ham nazarda tutilishi mumkin. Sug'urta badali. Xorijda sug'urta mukofoti bu sug'urta shartnomasi yoki qonun asosida sug'urtalovchini sug'urta qiluvchiga sug'urta uchun to'lash majbur bo'lgan tulovi. Risk ehtimoli quyidagi ko'rsatgichlar bilan

aniqlanadi. Sug'urtalangan xodisalar takrorlanishi bu bir sug'urta obyektidagi sug'urtalangan xodisalar takrorlanishi miqdori.

1) Riskning kumulyasiya koeffitsienti-shikastlangan obyektlar sonini, sug'urtalangan xodisalar soniga nisbati bilan hisoblanadi.

2) Sug'urtalangan summaning ko'radigan zarari-bu to'langan sug'urtalangan qoplash summasini sug'urtalangan barcha obyektlarning sug'urta summasiga nisbati.

3) SHikastlanishining og'irligi - bu sug'urta summasining qanday qismi yo'qqilinganini ko'rsatadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$U=V*n/c*m/$$

Bu erda: V- to'langan sug'urtalangan qoplash summasi.(sum);

n - sug'urtalangan obyektlar soni (ta);

s- sug'urta summasi.(sum);

m- sug'urtalangan zarar ko'rilgan sug'urtalangan obyektlar soni.(dona).

Sug'urta operatsiyachlarining moliyaviy barqarorligi to'liqsug'urta fondi buyicha. ya'ni, sug'urtalovchi (straxovshik) harajatlari mablag'lari taqchilligi yoki daromadni harajatdan ustunligini ifodalanadi. Mablag'lar takchilligining ehtimollik darajasi V Konipin koeffitsienti bilan aniqlanadi:

$$Kk= \frac{1-q}{n*q}$$

bu erda: Kk -Konipin koeffitsienti qoplash portfildagi barcha sug'urtalar o'rtacha tarif stavkasi, sum;

n- sug'urtalangan obyektlar soni (ta) Xarajatga nisbatan daromadlarning ortishi sug'urta fondining moliyaviy barqarorlik koeffitsientini ifodalaydi.

$$Ku= \frac{D+Z}{R}$$

buerda: Ku- sug'urtafondining barqarorlikkoeffitsienti;

D-ta'rif

davridavomidasi sug'urtalovchining daromad summasi (sum.);

R-ta'rif davridavomidasi sug'urtalovchining harajati summasi (sum);

Z-zahirafondidagi mablag' summasi (sum).

Sug'urtalovchi qayta sug'urtalashi imkoniyatiga ega. Qayta sug'urtalash-bu alohida obyektlarni yoki sug'urtalashdagi riskning bir qismini bir sug'urtalovchidan ikkinchisiga o'tkazish demakdir. Sug'urtalovchi sug'urtalash bo'yicha majburiyatini qoplashga o'z mablag'i va zahirasi etarli bo'lmasa bu majburiyatni qayta sug'urtalash yo'li bilan qoplashni taminlashga majbur. Xedjirlash-valyuta riskni sug'urtalash usuli. Adabiyotlarda "xedjirlash" -iborasi har qanday tovar moddiy qimmatliklarni nomaqbul narxlar bo'yicha riskiga oid kontraktlarni sug'urtalash degan ma'noda keng qo'llaniladi. Sug'urtalashgaoid kontrakt xedj deyiladi. Xedjirlashni oshirish va pasaytirishning ikki operatsiyasi mavjud.

Oshirish xedjiri yoki xarid xedjiri opsiyon yoki tezkor kontrakt xarid qilish buyicha birja operatsiyasi tushuniladi. Oshirish bo'yicha xedj kelgusidan narx (valyuta kursi) oshishi imkoniyatida sug'urtalash zarurati tug'ilgan holda qullaniladi.

U real tovarni sotib olingan vaqtidan ancha oldin xarid narxini belgilash imkonini beradi. Pasaytirish xedjiri yoki sotish xedjiri bute zkor kontrakt ni sotishgaoid birja operatsiyasi. Pasaytirishgaoid xedjirlashni amalga oshiruvchi xedjir kelgusidan tovarni sotish imkonini beradi, shuning uchun birja date zkor kontrakt yoki opsiyonni sotib, u kelgusidan narxning pasayib ketishidano'zini sug'urtalaydi.

Valyuta kursini oshirishgaoid xedj misolida xedjirlash texnologiyasini qarab chikamiz. Valyuta riskini xedjirlashdan xo'jalik subyektini yuz ugirishi. Xo'jalik subyektini xedjirlashdan yuz ugirganda, riskni o'z zimmasiga oladi va valyuta kursining qulay dinamikasiga tayanib (nogahon) o'zi bilmagan holda valyuta qallobiga (chayqovchisiga) aylanadi. Bu holda aktivlar qiymati valyuta kursi o'zgarishga to'g'ri bog'lanishda bo'ladi.

Xedjing- bu bozorda narxlarning salbiy o'zgarishidan sug'urta qilishdir. Odatda xedjing o'xshash moliyaviy vositalar bilan ko'p yo'nalishli operatsiyalarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi (yoki bir-biri bilan yuqori korrelyasiyaga ega). Xedjlash - bu omadli tasodif bo'lgan taqdirda olinishi mumkin bo'lgan foyda evaziga riskdan qochish imkoniyatidir.

Xedjlashning asosiy himoya instrumentlari

YUqorida aytib o‘tilganidek, asosiy moliyaviy aktiv bo‘yicha hosilalar (hosilaviy moliyaviy vositalar - bu sug‘urta qilinayotgan bitim) asosan xedjlash vositalari sifatida ishlatiladi. Ushbu vositalarni shartli ravishda ikkita asosiy toifaga bo‘lish mumkin:

Birja savdolarida xedjlash instrumentlari;

Birjadan tashqari savdolarida xedjlash instrumentlari.



Birja instrumentlari

Birja, nomidan ko‘rinib turibdiki, birjalarda sotiladi. Bunga fyuchers va opsiya kabi moliyaviy instrumentlar kiradi. Ularning afzalliklari orasida mavjudlik, likvidlik, nisbatan past komissiya xarajatlari va ishonchlilik mavjud. Va asosiy kamchilik - bu almashinuv qoidalari tufayli bunday shartnomalarni aniq standartlashtirish (etkazib berish muddati, tovarlarning miqdori va turi qat’iy cheklangan).

Fyuchers shartnomalari

Fyuchers yoki fyuchers shartnomalari, xuddi forwardlar kabi, ikki tomonning asosiy aktivni etkazib berish to‘g‘risidagi kelishuvidir. Bu erda narx va etkazib berish muddati ham muhokama qilinadi. Fyuchers shartnomalarining barcha shartlari ular sotiladigan har bir birja saytlari uchun standartlashtirilgan. Aslida, fyucherslar bir xil forward, faqat

standartlashtirilgan shartnoma shartlari bilan va ular aytganidek, oqim (birja savdolari orqali) orqali etkazib beriladi. Fyucherslar etkazib berish va hisob-kitoblarga ham bo‘linadi. Biroq, ularning faqat kichik bir qismi tovarlarni (asosiy aktivni) haqiqiy etkazib berish bilan tugaydi, aksariyat fyucherslar shartnomada ko‘rsatilgan narx bilan real bozor narxi o‘rtasidagi farq shaklida hisob-kitobni o‘z ichiga oladi, ya’ni ular hisoblangan.

Opsionlar (tanlovlar)

Variantlar ma’lum bir asosiy aktivni oldindan belgilangan narx va muddat bo‘yicha sotib olish yoki sotish huquqini anglatadi. CALL opsiyasi sotib olish huquqini beradi va PUT opsiyasi sotish huquqini beradi. Fyucherslardan farqli o‘laroq, opsion bitim tuzish (sotib olish yoki sotish) majburiyatini emas, balki to‘liq huquqni nazarda tutadi. Variantlarning ikkita asosiy turi mavjud:

Evropa;
Amerika.

Evropa opsionlari aniq belgilangan sanada (opsionning amal qilish muddati deb ataladi) mashq qilishni o‘z ichiga oladi, Amerika opsionlari esa opsionning amal qilish muddati tugagan vaqt oralig‘ida istalgan sanada amalga oshirilishiga imkon beradi.

Birjadan tashqari instrumentlar

Birjadan tashqari chetlab o‘tish vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki diler orqali tomonlar o‘rtasidagi aloqa orqali qo‘llaniladi. Bunga forvard shartnomalari va svoplar kiradi. Bu erda afzallik - tovar turlari, ularning hajmi va etkazib berish vaqtlari bo‘yicha cheklovlarning yo‘qligi (hamma narsa tomonlar o‘zaro kelishgan holda yoki dilerning vositachisi orqali bo‘ladi). Bu erda yana ko‘plab kamchiliklar mavjud, ularning asosiylariga quyidagilar kiradi: nisbatan yuqori qo‘shimcha xarajatlar, past likvidlik, tomonlardan birining o‘z majburiyatlarini bajarmaganlikrisi.

Forvard shartnomalari

Forvard yoki forvard shartnomalar - bu ikki tomon o‘rtasida bittasi boshqasiga, asosiy aktivni (bitimning predmeti bo‘lgan) belgilangan miqdorda, belgilangan vaqtda va belgilangan narxda etkazib beradigan bitim. Birja tovarlari, fond bozori vositalari va valyuta bozoridagi vositalar forvard uchun asosiy aktiv bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Eng ko‘p ishlatiladigan tovarlar (ishlab chiqarish va

sanoat maqsadlari uchun) va valyuta forvardlari (ma'lum miqdordagi valyutani ma'lum sanaga etkazib berishni o'z ichiga olgan). Barcha forvardlar etkazib berish va hisob-kitoblarga bo'linadi. Etkazib beriladigan - asosiy aktivning haqiqiy etkazib berilishini o'z zimmasiga oling, hisoblanganlar esa forvard shartnomasida ko'rsatilgan narx bilan forvard ijro sanasidagi real bozor narxi o'rtasidagi farqni to'lashni o'z ichiga oladi.

Svoplar (almashtirishlar)

Svoplar shartnomalar bo'lib, unga binoan asosiy aktiv oldindan belgilangan narx bo'yicha keyinchalik qayta sotib olish majburiyati bilan sotiladi. Forvard singari, svop ham birjadan tashqari moliyaviy vositadir va shuning uchun shartlarning aniq standartlashuvi mavjud emas. Asosiy aktivni xedjirovka qilish turiga qarab quyidagi svop turlari ajratiladi:

Foiz stavkasini almashtirish;

Valyuta svopi;

Birja almashtirish;

Tovarlarni almashtirish.

Asosiy tayanch tushunchalar

Moliyaviy risk, risk

chegarasi, xedjirlash, investor, venchur, foyda, spekulyatsiya, kredit, foyda, foiz, valyuta, fond, sug'urta, portfel, prinsip, divesifikatsiya, limit, investor, franshizm.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy risk nima?
2. Toza risk nima?
3. Spekulyativ risk nima?
4. Moliyaviy risk turlarini tushintirib bering.
5. Risklardan saqlanish deganda nimani tushinasiz?
6. Risk darajasini pasaytirish deganda nimani tushinasiz?
7. Risk darajasini pasaytirish prinsiplari nimalardan iborat?
8. Risk darajasini pasaytirish usullarini aytib bering.
9. Sug'urtalash nima?
10. Xedjerlash nima?

XI-BOB. RISKLARNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI

11.1. Iqtisodiy risk ko‘rsatkichlari

Rentabellik (daromadlilik) - bu ma’lum bir korxonalar yoki tarmoqning ma’lum bir davr uchun iqtisodiy samaradorligining umumlashtirilgan ko‘rsatkichidir. Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari tarmoqlar va korxonalar bo‘yicha mutanosib bo‘lishi uchun ularning hisob-kitoblari yagona metodikaga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ushbu shartlarning faqat uchasi kapital qo‘yilmalarning to‘g‘ri yo‘nalishlarini, yangi va kengaytirilayotgan mavjud obyektlarni yaratish ketma-ketligini, yangi kapital qurilish loyihalarining eng ilg‘or va iqtisodiy variantlarini aniqlash mumkin.

Rentabellikning asosiy ko‘rsatkichlari, %.

Ko‘rsatkichlar	Hisoblash usuli
Barcha mulklarning rentabelligi	Soliqqacha bo‘lgan foyda / Yillik o‘rtacha mulk
O‘z kapitalingiz rentabelligi	Sof foyda / O‘rtacha bir yillik o‘z kapitalingiz
Sotish rentabelligi	Sotishdan tushadigan daromad / Savdo daromadlari
Asosiy faoliyatning rentabelligi	Sotishdan tushadigan daromad / (Sotilgan mahsulot tannarxi + biznes xarajatlari + boshqaruwxarajatlari

Rentabellik turlari

Ishlab chiqarish rentabelligi (Ich.R) - asosiy va aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

U quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Ich.R} = \left(\frac{\text{Soliqqacha bo‘lgan ishlab chiqarish}}{\text{asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati} + \text{aylanma vositalarning o‘rtacha yillik qiymati}} \right) \times 100\%$$

Mahsulotlar rentabelligi (Mrent) - korxonaning ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari samaradorligini tavsiflaydi.

U quyidagicha hisoblanadi:

$Mrent = (\text{Mahsulot birligiga tushadigan foyda} / \text{mahsulotning tannarx birligi}) \times 100\%$.

Foyda - bu kompaniyaning sof daromad shakllaridan biri bo'lib, kompaniyaning mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishdan tushadigan pul mablag'larining bir qismi. U korxonaning ulgurji narxida sotiladigan mahsulotlar hajmi va ushbu mahsulotlarning to'liq tannarxi o'rtasidagi farqni aks ettiradi. Sotsializm sharoitidagi foyda korxonalaridagi ishchilarning mehnat faoliyati natijasidir. Bu ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining eng muhim ko'rsatkichidir.

Foyda

bu –olingan daromad va iqtisodiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

$$F = D - X.$$

Buerda:

D – olingandaromad;

X – iqtisodiyxarajatlar.

Mehnat resurslari - jismoniy rivojlanish va intellektual (aqliy) qobiliyatlari bo'lgan aholining ishga yaroqli bo'lgan qismi. Ishchi kuchi tarkibiga ish bilan ta'minlangan va potensial xodimlar kiradi.

"Mehnat resurslari" tushunchasi 1922 yilda akademik Stanislav Strumilin tomonidan yozilgan maqolalarida keltirilgan. CHet el adabiyotida ushbu tushuncha "kadrlar" atamasiga mos keladi.


Ish kuchi miqdoriy jihatdan ijtimoiy iqtisodiyot va individual mehnat faoliyati sohalarida yoshidan qat'i nazar ish bilan ta'minlangan barcha mehnatga yaroqli aholini qamrab oladi. SHuningdek, ular mehnatga jalb etilishi mumkin bo'lgan, ammo uy xo'jaligi va shaxsiy dehqon xo'jaligida, ish joyida o'qishda, harbiy xizmatda ishlaydigan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarni o'z ichiga oladi.

Bandlik - bu fuqarolarning qonunchilikka zid bo'lmagan, ularning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda ularga daromad va mehnat daromadlarini jalb qilish bilan bog'liq faoliyatidir.

Bandlik turlari

Доимийбандлик -
жисмонийшахснингга бутун умри
давомидакафолатланганиши

Иккиламчибандлик -
фуқароларнингасосийишжойида
нташқарикўшимчаишбиланбоғли
қфаолияти



miqdoriy ko'rsatkichdir. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichi, avvalambor, mehnat natijasining sifat jihatini ifodalaydi, shuningdek undan tejankor foydalanish zarurligini aks ettiradi.

Mehnat unumdorligi bu - korxonada ishchilari samaradorligi, ularning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining ko'rsatkichidir.

Mehnat unumdorligi - vaqt birligida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot birligi, bu ishlab chiqarishga ketgan ish vaqti miqdori va mahsulot miqdorida ifodalanadi, ya'ni vaqt birligi davomida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir.

Yuqorida keltirilgan tarifdan foydalangan holda mehnat unumdorligini aniqlovchi hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$M_y = \frac{M_x}{T} \quad \text{yoki} \quad M_y = \frac{M_x}{M_m}$$

Bu erda: M_u - mehnat unumdorligi, M_x - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, T - barcha mahsulot ishlab chiqarilishiga sarflangan vaqt, M_m - mahsulot ishlab chiqarishda sarflangan mehnat miqdori.

Unumdorlik tushunchasi mahsulotning har qanday xarajatlar turiga yoki barcha turlariga nisbatini aniq ko'rsatkichlarda ifodalash uchun qo'llaniladi. Statistik ma'noda unumdorlik deyilganda, ishlab chiqarish natijalarining foydalanish omillari sarflariga nisbati tushuniladi, yoki boshqacha qilib aytganda, xarajat birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidir. SHunga ko'ra ishlab

chiqarish natijasini uning barcha o'lchash mumkin bo'lgan omillari majmuiga nisbatan yoki alohida guruh omillarga nisbatan hisoblash mumkin. SHunday omillar jumlasiga qo'yidagilar kiradi:

1) sarflangan ishlab chiqarish omillarning miqdori va sifati (sarf samarasi);

2) sarflangan omillar miqdorlarining foydalanilishi darajasi (foydalanishsamarasi);

3) ishlab chiqarish omillari kombinatsiyalarining miqdori (substitutsiyasamarasi);

4) texnika taraqqiyoti (texnika samarasi);

5) ishlab chiqarish jarayoni tashkil qilinishi (daraja samarasi);

6) alohida jarayonlar sektorlarning yoki xarajatlar yohud mahsulotning umumiy miqdorida ishtirok etishi (tarkib samarasi);

7) alohida sektorlar va jarayonlar orasidagi o'zaro aloqalar darajasi va tarkibi (o'zaro aloqadorlik samarasi).

Mehnat intensivligi

Mehnat intensivligi - mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan insonning ish vaqti miqdori. Mehnat zichligi mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga (ish vaqti birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori) teskari proporsionaldir.

Mehnat intensivligi - bu vaqt nisbati tahlilini o'tkazishga imkon beruvchi ko'rsatkich. Qiymat mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni anglatadi. Uning hisob-kitobi tadbirlarni rejalashtirish uchun talab qilinadi. Ko'rsatkich ma'lum bir muhitda erishish mumkin bo'lgan ishlash darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu tashkilot samaradorligini oshiradi. Mehnat zichligi formulasi ma'lum bir davr uchun xodimlarning ish faoliyatini baholash uchun ishlatiladi.

Bu mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat miqdori. Mehnat zichligi - bu mehnat xarajatlarining o'ziga xos xususiyati (ishchi kuchi sarflari).

Mehnat intensivligi (MI) - bu mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun jonli mehnat xarajatlari yig'indisi.

$$MI = V/ICHX$$

Bu erda, V - barcha mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt, stavka-soat, kishi-soat.

ICHX - natura shaklida ishlab chiqarish hajmi.

Ishsizlik darajasi

Ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining hozirgi holatini tavsiflaydi. Iqtisodchilarning zamonaviy tushunchasiga ko'ra, ishsizlik darajasi 4-5% norma deb hisoblanadi. Kam ishsizlik (2-4%) tiklanish davrini, yuqori 7% va undan yuqori.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) metodologiyasiga ko'ra, ishsizlar orasida ma'lum vaqt davomida ishi bo'lmagan, mehnatga layoqatli va ish topishga harakat qilayotgan, ammo uni topa olmaydigan mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar kiradi. Ishni nafaqat yollanma ish, balki o'z-o'zini ish bilan ta'minlash ham deb hisoblash mumkin. Ma'lumotlarning xalqaro taqqoslanishini ta'minlash uchun XMT 15 yoshdan oshgan barcha odamlarni mehnatga layoqatli deb tasniflashni tavsiya qiladi. SHu bilan birga, har bir mamlakat mehnat qobiliyatining yosh mezonlarini mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, yosh chegarasi belgilanishi mumkin.

Ishsizlik darajasi bu - ishsizlar sonining umumiy ishchi kuchiga nisbati, foizda ifodalanadi.

$$ID = IS/IKS \times 100\%$$

Bu erda: IS - ishsizlar soni;

IKS - ishchi kuchi soni;

ID - ishsizlik darajasi

Фрикцион ишсизлик -
буишизлашгасарфқил
инганвақтбиланбоғлик
бўлганишсизлик

Тизимли ишсизлик

Табиий ишсизлик

То'лиқ bandlik = $Ishchi\ kuchi \times (1 - ishsizlikning\ tabiiy\ darajasi)$
Ishsizlikning tabiiy darajasi - bumamlakatdafaqattizimliva friksion
ishsizlik mavjud bo'lgan holatdir.

11.2. Risklarning namoyon bo'lish xususiyati bo'yicha tasnifi

Namoyon bo'lish shakli	Risklarning namoyon bo'lish turi
Risklarning sohalari bo'yicha namoyon bo'lish shakli	<ul style="list-style-type: none"> • <i>siyosiy</i>, davlatning siyosiy tanlagan yo'lining o'zgarishi (xususan, xarbiy-siyosiy, diniy-siyosiy) • <i>iqtisodiy</i>, iqtisodiy omlarning o'zgarishi (<i>marketing</i>, <i>valyuta</i>, <i>investitsiyaviy</i>, <i>moliyaviy</i> vax.k.) • <i>normativ-huquqiy</i>, huquqiy normativ bazaning o'zgarishi (<i>huquqiy</i>, <i>shartnomaviy</i>); • <i>banklarga bog'liq</i> (<i>kredit</i>, <i>inflatsiyasu'rati</i>, <i>likvidlik</i>, <i>oparatsion</i> vax.k.)
Risklarning mansubligi bo'yicha namoyon bo'lish shakli	<ul style="list-style-type: none"> • ishlabchiqarish va texnologik (texniko-texnologik, qurilish, transport vax.k.) • ijtimoiy, ijtimoiy tebranishlar (masalan, namoyishlar) • ekologik, tabiiy ofatlar (malasan, suvtoshqini, er qimirlash vax.k.)

	<ul style="list-style-type: none"> • axborotxuruji (masalan, kiberxujumivax.k.)
Xujaliksubyektlaridanamoyonbo‘lishshakli	<ul style="list-style-type: none"> • operatsion • investitsiyaviy • moliyaviy


Tizimlirisklar:

- Siyosiy risk mamlakatdavujudgakelgansiyosiyholatnatijasi. Siyosiy risk o‘znavbatidavlatningiqtisodiyosatidanomutanosibliklar, qonunchilikdagikeskino‘zgarishlar.

- Iqtisodiy risk mamlakatiqtisodiyotiningkeskin yomonlashuvi. Davlatningiqtisodiy o‘shiningsekinlashishi, soliqlarmi qdoriningoshirilishi, inflyasiya sur’atiningoshishi, tashqiqarzningsko‘payishi, to‘lovbalansiningyomonlashuvivax.k.lardanamoyonbo‘ladi.

- Fors-major xolatlardan risk tibiiyofatlarningsodirbo‘lishehtimolligidanyuzagakeladi (er qimirlashi, suvtoshqini, qurg‘oqchilikvax.k.)

11.3.Risklarni tahlil qilish va baholash



Risklarnimiqdoriy baholash metodi: Statistik tahlil:

Extimollikni aniqlovchi metodlar:

- Ob'ektiv baholash metodi –

sodir bo'layotgan jarayonning aniqlanib qolgan ob'ektlarini xisoblash asosida aniqlanadi.

- Sub'ektiv baholash metodi –
extimollik ekspertlar tomonidan aniqlanadi.

1. Matematik kutilish (o'rtacha kutilayotgan ahamiyatlilik) –
natijalarning o'rtacha darajalari aniqlanadi.

2. Dispersiya – kutilayotgan natijada o'rtacha kvadrat
o'zgarishi aniqlanadi.

3. Variatsiya koeffitsienti – riskning nisbiy chegarasini ifodalaydi.

4. Korrelyatsiya koeffitsienti –
kurib chiqilayotgan xolatning o'zaro o'zgarishlardagi aloqasini ifodalaydi

Iqtisodiy – matematik modelashtirish metodi

Risklarni ushbu metod bilan aniqlashda quyidagi uslublardan foydalaniladi:

- CHiziqli dasturlash
- Korrelyatsion-regression tahlil
- Dinamik baholash

Ushbu metod bilan risklarni baholashning ustunlik tomonlari:

-

Risklarni kamaytirishda kupa variantlarni kurib chiqish imkonini beradi

- Boshqa metodlar bilan baholash imkonini bo'lgani matematik modelni qurishni qurish mumkin bo'ladi.

Risklarni sifatli jihatidan baholash metodi

SWOT-tahlil, ingliz tilining bosh xarflaridan tuzilgan tahlil metodi, kuchli ichki manbalar mavjudligini nazarda tutadi (*Strengths*), zaif, kuchsiz tomonlar yoki ichki muammolarning mavjudligi (*Weaknesses*), tashkillashtirishdan tashkari rivojlanish uchun mavjud bulgan imkoniyatlar (*Opportunities*), tashkari muxitda mavjud bo'lgan xaf-xatarlar, to'siqlar (*Threats*). Ushbu metod risklarni sifatli baholash imkonini beradi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Baho, iqtisod, risk, rentabellik, daromad, kapital, korxonalar, tarmoqlar, foydalar, resurslar, bandlik, mehnat, unumdorlik, texnika, investitsiya, moliya, fursat, major, texnologik risk, marketing, statistika, dispersiya, variatsiya, korrelyatsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Rentabellik deganda nima tushinasiz?
2. Rentabellik turlarini aytib bering.
3. Foyda nima?
4. Mehnat resurslari nima?
5. Bandlik deganda nima tushinasiz?
6. Bandlik turlarini aytib bering.
7. Mehnat unumdorligi nima?
8. Mehnat intensivligi nima?
9. Tizimli risklar deganda nima tushinasiz?
10. Tizimsiz risklarni tushintirib bering.

XII-BOB. RISKLARNI MIQDORIY KO'RSATKICHLARI VA ULARNI BAHOLASH USULLARI

12.1. Risklarni miqdoriy baholash

Risk - ehtimollik toifasiga kirgani uchun xam risk darajasini miqdordan aniqlash va noaniqlikni baholash jarayonida ehtimollik hisob- kitoblaridan foydalaniladi. Oldin aytib o'tganimizdek riskni miqdoriy baholashda ancha keng tarqalgan usullaridan biri- bu statistik usullaridir. Riskni hisoblashdagi statistik usullarga quyidagilar kiradi:

- o'rgatayotgan tasodifiy miqdorni o'rtacha qiymati (qandaydir xatti-xarakati oqibati masalan: foyda, daromad va x.z.);

- dispersiya;

- standart (o'rta kvadratik) og'ish;

- variatsiya koeffitsienti;

- o'rganilayotgan tasodifiy miqdor uchun ehtimollikning taqsimoti statistika nazariyasidan ma'lumki, miqdorning qiymati uchun uning o'rtacha qiymati orqali aniqlanadi. O'rtacha miqdor-kutilayotgan natijaning umumlashgan miqdoriy tavsifini ifodalaydi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan natijalar o'lchamini belgilovchi muhim tavsif-bu o'rtachadan xaqiqiy natijalarning kvadratik og'ishini o'rtacha o'lchami bo'lgan dispersiyadir. Dispersiya va o'rtakvadratik og'ishlar absolyut tarqoklikning o'lchami bo'lib xizmat qiladi va variatsiyalangan belgilari o'lchanuvchi kattaliklar bilan o'lchanadi.

O'zgaruvchanlik darajasini tahlil qilish uchun ko'p xollarda (o'rta arifmetikdan o'rta kvadratik og'ishni ifodalovchi va olingan qiymatlardan og'ish darajasini ifodalovchi variatsiya koeffitsientidan foydalaniladi:). Variatsiya koeffitsienti nisbiy miqdoridir. SHuning uchun ham uning yordamida turli xil o'lchov birliklarida ifodalangan belgilar tebranishini taqqoslash mumkin. Ma'lumki kutilayotgan natijalarni (masalan daromad miqdorini) shakllanishi uchun juda ko'plab tasodifiy omillar ta'sir etadi, tabiiyki ular tasodifiy miqdor bo'ladi.

Tasodifiy miqdorning yana bir hislati uning ehtimoliyatining taqsimot qonunidir. Taqsimot turining hislati o'rganilayotgan ko'rsatkichlar (variatsiyasiga ta'sir etuvchi xususiyatlar, xodisalar tabiati va mohiyatidan kelib chiquvchi umumiy sharoitlarni

ifodalaydi.). Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki ijtimoiy-iqtisodiy taqsimot tavsifi uchun ko'prok me'yoriy taqsimot qo'llanilmoqda. Aksariyat xo'jalik faoliyatning natijalari (daromad, foyda va x.z.) tasodifiy miqdor sifatidan qandaydir me'yorga yaqin qonuniyatga bo'ysinadi, iqtisodiy riskning miqdoriy baholash muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda keng qo'llaniladi. SHu narsa ma'lumki, me'yoriy taqsimot qonuniyati sodir bo'lishi bir qancha o'zaro bog'lik bo'lmagan omillar ta'sirida bo'lib va bu omillarning birorta ham ustunlik qiliuvchi ta'siriga ega bo'lmagan holatidagi xodisalar taqsimoti uchun xarakterlidir.

Xaqiqatda iqtisodiy xodisalar me'yoriy taqsimoti asl holda kam uchraydi lekin, agar to'planish bir hilligiga rioya etilsa, kup hollarda xaqiqiy taqsimot me'yoriga yaqin bo'ladi. Amaliyotda qabul qilingan taqsimotning asosliligi tekshirish uchun kelishuvining turli mezonlari (empirik kuzatish va nazariy taqsimot) qo'llaniladiki, uning oqibatlarida taqsimot qonuniyatlari to'g'risidagi gipotezani qabul qilish yoki inkor etish mumkin bo'ladi. Ehtimoliyat nazariyasi va matematika statistika kursidan ma'lumki normal tasodifiy miqdorning taqsimoti uzliksiz.

Normal me'yoriy taqsimot funksiyasi grafigi normal egri chiziq bo'ladi (Guasse egri chizigi). Normal taqsimot differensial funksiyasining grafigini muhim xossasi shuki, unda normal egri chiziq va chegaralangan maydon har doim birga teng. Normal taqsimot zichligi funksiyasidan foydalanish tasodifiy miqdorni sodir bulish tebranish (ehtimoliyati)ni hisoblash imkoni paydo bo'ladi. YUqorida aytib o'tilgan hollar statistik usullar bilan riskni miqdoriy baholash uchun asosli baza bo'lib hisoblanadi. Bundan keyin faraz kilamizki, o'rganiliyotgan miqdor normal taqsimot qonuniga bo'ysinadi.

Keyingi mulohazalarimizni tasdiqlash va namoyon etish uchun quyidagi oddiy misolni keltiramiz. O'zimizni ma'lum bir enlilikdagi ariqdan sakrovchi kishi deb faraz qilamiz. Agar ariq tor bo'lib sakrovchi kishi yaxshi sportchi bo'lsa, risk to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Agar ariq keng bo'lib, yaxshi sportchilarning 80% sakrash ehtimoli bo'lsa, vaziyat darrov uzgaradi. Agar chuqurligi bir metrli ariqdan emas, balki chuqurligi yuz metrli jarlikdan sakrash to'g'ri kelsachi, u xolda risk nuqtai nazaridan muammo yana hzgaradi. YAna albatta risk ta'rifi nuqtai nazaridan shuni e'tiborga olish

muhimki maqsadga erishish qanday mukofot bilan rag'batlantiriladi. Bizning kundalik riskni baholashimiz xamma vaqt sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni sodir bo'lish holatlarini noqulay vaziyatlarda ko'rishimiz mumkin bo'lgan zararlarni taqqoslashga asoslanadi. Endi biz yuqotish va yutuqlarni baholarini hisobga olgan holda riskni sonda ifodalash to'g'risidagi mulohazalarimizga qaytamiz.

12.2. Risklarni miqdoriy baholash va uning aniqlash usullari

Oddiy amaliyotda - riskni taqsimlanishi - projekt ishtirokchilaridan mas'uliyatni tanlab qiladi, hammadan ko'ra muhim riskni hisoblash va nazorat qilishdir. Riskni taqsimlanishi - moliyaviy reja, projekt va kontrakt xujjatlarini tayyorlashda aniqlaniladi. Risk analizi kabi - projekt ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanish sifatli va miqdorli bo'lishi mumkin. Riskni proektlarda taqsimlanishi uchun konseptual sifatli model dan foydalanish tavsiya etiladi. Model standart metodlarga asoslangan bo'lib, uning asosi "Extimollar va qarorlar" daraxti bo'lib, qarorlarning ketma-ketligini aniqlash uchun foydalidir. Ammo bu muammo ikki xil xarakterga ega bo'lib, investitsion projekt dagi ishtirokka asoslanganidir. Bir tomondan buyurtmachining qadar kontrakt qiymatini kamaytirish gantiladi, bunda muddat va sifat bo'yicha barcha talablar bajarilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan bajaruvchi - buyurtmalar portfeli tashkilotga maksimal foyda olish gantiladi.

Bajaruvchining foydasi - buyurtmalar portfeli ni baholashda quyidagi formula buyicha hisoblanishi mumkin.

$$P = (k + U_1)r(U_1) (k + U_2)r(U_2) \dots (k + U_p)r(U_p)$$

Bu erda: p - firma foydasi;

k - firmaning boshlang'ich kapitali;

U_p - firmaning iqtisodiy foydasi.

($U=1,2,3,\dots,p$): p - projektning bajarishdagi xodisalar soni;

R (U_p) har birtugallanish ehtimolligi.

Proektlarni investirlash davomiyligini va zararlarini o'z ichiga olgan qimmatli kvaxilma-xillik, ularni tadqiqatishda muhitni yuqori dinamikligi, raqobatlilik, inflyasiya va boshqa salbiy faktorlar - projektning

ro'yobgachiqarishdariskdarajasinio'sishigaolibkeladi. Riskni sifatli taqsimlanishida - proekt ishtirokchilari qator karorlar qabul qiladiki ular investorlar diapazonini yo kengaytiradilar yoki qisqartiradilar. Risk darajasini investorlarga yuklamoqchi bo'lsa, proekt ishtirokchilari proektni moliyalashtirish uchun tajribali investorlarni jalb qilishi qiyin bo'ladi. SHuning uchun proekt ishtirokchilariga fikr almashish vaqtida riskning qaysi qismini o'ziga olishni xoxlashi masalasida maksimal egiluvchanlik tavsiya etiladi.

Proekt ishtirokchilari tomonidan riskni quyi qismini olish xoxishi bildirilsa tajribali investorlarni o'z talablarini pasaytirishga undashi mumkin. Kuchlilik katta proektlar uchun ularni tadbiiqqilinishidagi to'xtalish bo'lib buyurtachi uchun ishlar qiymatini o'sishiga olib keladiki bu proektni boshlang'ich qiymatini o'sishiga olib keladi. Masalan: elektr bilan ta'minlash liniyalarini o'z vaqtida ulab bermaslik natijasida, to'xtalish bo'lganligi uchun pudratchi to'laydigan jarima, buyurtmachini harajatlaridan kamroq bo'ladi. Bunday holatdan chiqish uchun, proektda ishtirok etishga sug'urta kompaniyalarini jalb qilish zarur.

Risk sug'urtasi - aniqriskni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishdir. Bu masalani yirik qurilish kompleksini bunyod etish misolida ko'rib chiqamiz. Sug'urtani 2 hili qullanilishi mumkin: mulk sug'urtasi va baxtsiz xodisalardan sug'urta. Mulk sug'urtasining quyidagi formalari bor:

- pudrat qurilishi risk sug'urtasi;
- dengiz yuklari sug'urtasi;
- pudratchiga taaluqli bo'lgan jixozlar sug'urtasi.

Baxtsiz xodisalardan sug'urta:

- umumiy fuqarolik ma'suliyati sug'urtasi;
- proeffssional ma'suliyat sug'urtasini o'z ichiga oladi.

Pudratchi qurilish riski sug'urtasi, tugallanmagan qurilish sug'urtasi uchun mo'ljallangan bo'lib, moddiy yo'qotishlar uchun mo'ljallangan. Pudratchi qurilish riski sug'urtasi shartnomasi sug'urta riskiga ko'ra 3 tipda bo'lishi mumkin. YOng'in sug'urtasi standart shartnomasi - moddiy yo'qotishlardan yoki yong'inga qarshi mulkchilik shartnomasida ko'rsatilganidek zaralardan himoya sifatida xizmat qiladi. YOng'inga qarshi sug'urtani kengaytirilgan shartnomasi hz ichiga sug'urtani standart shartnomasini va bir yoki bir necha

qo‘shimchalarni (konkret sug‘urtachini ehtiyojini hisobga oluvchi) oladi.

Barcha risklardan sug‘urta shartnomasi pudratchining konkret ehtiyojini hisobga oladi va unga sug‘urta xizmatining keng tanlovini taqdim etadi. Bunday shartnoma tugallanmagan qurilishni qamrab oladi. (barcha materiallar, jihozlar, mehnat natijalari). Dengiz yuklari sug‘urtasi - moddiy yo‘qotishlardan ximoyani ko‘zda tutadi. (havo transportida, dengiz orqali keltirilayotgan yuklarni). Sug‘urta riskini barcha turini qamraydi, shu jumladan urush, zabastavkalar, tirlarni yuk yuboruvchi omborlaridan yuk qabul qiluvchini omborigacha tashish. Pudratchiga tegishli jixoz sug‘urtasi pudratchilar tomonidan keng foydalaniladi. O‘z faoliyatlarida jixozlarning katta sonini yuqori qiymat bilan qo‘llanadi. Sug‘urtani bu formasi - ijaradagi jixozlarga ham tarqatiladi (taalluqlilar).

Umumiy fuqarolik ma‘suliyati sug‘urtasi - sug‘urtaning baxtsiz xodisalarda formasi bqlib, bosh pudratchini himoya qilish maqsadi bo‘lib, (faoliyati natijasida uchinchi tomondan jaroxati, mulki jaroxatlangan bo‘lsa). Professional ma‘suliyat sug‘urtasi shu vaqtda talab etiladiki - qachonki bosh pudratchi arxitektura va texnik proektlarni tayyorlash, proekt boshqaruvi, proekt bo‘yicha proeffsional xizmat ko‘rsatishda ma‘suliyatni zimmasiga olsa. Bosh pudratchi yuridik ma‘suliyati - professonal xizmatlarni aniq sifat standartiga muvofiqligini ta‘minlay olmagani holda yuzaga keladi.

Ko‘zdatutilmagan xarajatlar uchun mablag‘larni rezervlash

Ko‘zdatutilmagan xarajatlar uchun mablag‘lar rezervini tashkilot risk bilan kurashomili bo‘lib, potensial risk o‘rtasida muvozanat o‘rnatishni ko‘zdatutadi, (proekt qiymatiga xarajatlarning razmeriga ta‘sir etadi). Ko‘zdatutilmagan xarajatlarni qoplash uchun rezerv tashkilotda asosiy muammo bo‘lib riskni potensial oqibatini baholash hisoblanadi. Proekt qiymatini aniq baholash ko‘zdatutilmagan xarajatlarni qoplash uchun rezerv razmeriga ta‘sir etadi. Ko‘zdatutilmagan xarajatlar bahosini sinchkovlik bilan ishlab chiqilsa mablag‘lar xarajati minimumga olib keladi.

Ko‘zdatutilmagan xarajatlarni qoplashga rezerv strukturasi (tarkibini) aniqlash 2 yo‘nalishda olib boriladi:

2-yoʻnalishda rezerv 2 boʻlakka boʻlinadi: umumiy va maxsus. Umumiy rezerv smetadagi oʻzgarishlarni qoplashi kerak. Maxsus rezerv - narx oshishida ustamalarni alohida pozitsiyalar boʻyicha xarajatlar oʻsishini, shuningdek kontraktlar boʻyicha daʼvolarni toʻlashni oʻz ichiga oladi. Yoʻnalish chiqimlar turi boʻyicha koʻzda tutilmagan xarajatlarni aniqlash. Masalan: mehnat xaqi uchun materiallar, subkontraktlar. Bunday diferensiyalash risk darajasini aniqlashga imkon yaratadi. Bu yoʻnalish koʻzda tutilmagan xarajatlar ustidan nazoratni taʼminlaydi va nisbatan katta boʻlmagan proektlarga qoʻllaniladi. Koʻzda tutilmagan xarajatlar rezervi boshlangʻich smetaga kirgan chiqimlar turi boʻyicha aniqlanadi.

Rezerv qoniqarsiz ishlash natijasida yuzaga kelgan chiqimlar kompensatsiyasi uchun ishlatilmasligi kerak. Umuman rezerv quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin: projekt boʻyicha yangi aniqlangan ishlar uchun pul mablagʻlari ajratishda bajarilayotgan ish uchun pul mablagʻlari ajratishni koʻpaytirish byudjetni vaqtinchalik tashkil etish, shunday ishlarni hisobga olib, zaruriy pul mablagʻlari ajratilmagan - proektlar ustida ishlashda yuzaga kelgan, koʻzda tutilmagan chiqimlar kompensatsiyasi. Rezervni joriy xarajatlari boʻlajak riskni qoplash uchun qoldiqlar bilantaʼminlashda baholanishi kerak.

Koʻzda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun rezerv ajratilgan ishlarni bajargandan keyin, koʻzda tutilmagan xarajatlarni rejali va xaqiqiy taqsimlanishini taqqoslash mumkin va shu asosda koʻzda tutilmagan xarajatlardan foydalanishni projekt tugaguncha aniqlanadi. Bu vaqtda ajratilgan rezervni foydalanilmagan qismi projekt rezerviga qaytarilishi mumkin.

Koʻzda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun ketgan mablagʻni bir qismi - umumiy rezerv debataluvchi qismi - yuqori rahbar nazoratida boʻladi.

12.3. Risklarni pasaytirish yoʻllari

Risklarni boshqarish tizimining muhim elementi ularni pasaytirish choralarini ishlab chiqishdir. Kompaniya risklarini pasaytirish boʻyicha quyidagi choralar mavjud:

- normativ usul;
- sugʻurta (zaxira) fondlarini yaratish;

- tavakkalchilikni sug'urtalash;
- foiz stavkasi xavfini sug'urtalash;
- himoya qilish;
 - diversifikatsiya.

Normativ usul - bu muayyan standartlarni, chegaralarni, muayyan harakatlarni amalga oshirishda cheklovlarni belgilash, ya'ni, ishlab chiqarishning maksimal hajmini, mahsulotni kreditga jo'natishning maksimal hajmini (iste'molchilarning moliyaviy holatini hisobga olgan holda) belgilash qarz mablag'larini jalb qilish, faoliyatning ma'lum bir sohasiga investitsiyalar hajmining chegaralari (aniq tarkibiy bo'linmalar, javobgarlik darajalari va boshqalar uchun) va boshqalar.

Sug'urta orqali risklarni kamaytirish

Sug'urta (zaxira) fondlarini yaratish, xususan, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari uchun zaxira fondlarini shakllantirishni, kompaniyaning joriy hisob raqamidagi mablag'larning zaxira qoldig'ini, obligatsiyalar va dividendlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun zaxira fondini o'z ichiga oladi. Zaxira fondlarini yaratish kapital aylanmasini susaytiradi va shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini pasayishga olib keladi. Riskni sug'urtalashning asosiy shakllari - xodimlarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, mol-mulkni sug'urta qilish (yuk, transport, mol-mulk va boshqalar), moliyaviy risklarni sug'urtalash, javobgarlikni sug'urtalash. Albatta, barcha risklarni sug'urtalash yaxshi bo'lar edi, ammo kompaniya bepul moliyaviy manbalarni qaerdan topishi mumkin? Kompaniya kuponli obligatsiyalar chiqarganda paydo bo'ladigan va foiz stavkalarining pasayishi, zayom obligatsiyalarini muddatidan oldin qaytarib olish, o'zgaruvchan (suzuvchi) kuponni belgilash va hokazolardan kelib chiqadigan zarar bilan bog'liq bo'lgan foiz stavkasini sug'urtalash uchun.

Xejlash va diversifikatsiya qilish orqali risklarni pasaytirish

Xejlash - bu xom ashyo, tayyor mahsulotlar narxlarining o'zgarishi, valyuta kurslarining o'zgarishi va boshqalar bilan bog'liq. Xedjlash protseduralari mahsulotni sotib olish (sotish) bo'yicha forvard shartnomalari (Forvard shartnoma - bu majburiy fyuchers shartnomasi bo'lib, unga binoan xaridor va sotuvchi kelgusida belgilangan sifat va miqdordagi tovarlarni yoki valyutani belgilangan

sanada etkazib berishga kelishadilar. Tovarlarining narxi, valyuta kursi va boshqa shartlar bitim tuzilayotganda belgilanadi.) tuzilguncha yoki belgilangan yangi qiymatidagi valyuta qiymatlari bilan bog'liq. Xedjlashning asosiy turlari - bu kelajakda mahsulotni shartnomada belgilangan narxlarda sotib olish va sotish bo'yicha tomonlarning o'zaro majburiyatlarini, shuningdek, valyuta va valyuta opsiyalari bo'yicha forvard shartnomalarini nazarda tutuvchi forvard shartnomalari.

Diversifikatsiya - bu korxonaning texnologik jihatdan turli sohalarini kengaytirish. Bu korxonada turli xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mahsulotlarning xilma-xilligini o'z ichiga oladi, ularning bir qismi ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi bilan bog'liq emas va ko'pincha yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishni talab qiladi; kapital qo'yilmalarni mintaqalar va ishlab chiqarish turlari bo'yicha diversifikatsiya qilish; moliyaviy aktivlarni diversifikatsiyasi - har xil turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish. Diversifikatsiya korxonalarining bankrotlik xavfi va ehtimolini kamaytirishning muhim omilidir, ammo bu ishlab chiqarish moslashuvchanligi va katta xarajatlarni talab qiladi. Amalda, kompaniyalar riskni kamaytirish usullarining kombinatsiyasidan foydalanadilar va menejerlar avvalgi tajribaga asoslanib, risklarni boshqarish qoidalarini shakllantirishadi: Siz o'zingizning kapitalingiz imkoniyatidan ko'proq xavf tug'dira olmaysiz;

- xavfning oqibatlari haqida o'ylashingiz kerak;
- ozi uchun ko'p tavakkal qila olmaysiz;
- sarmoyaviy qaror faqat shubha bo'lmaganda qabul qilinadi;
- agar shubhangiz bo'lsa, bunday qaror qabul qilinmaydi;
- har doim faqat bitta echim bor deb o'ylamang. Ehtimol, boshqa echimlar mavjud.

Tadbirkorlik, uning ta'rifidan kelib chiqqan holda, risk qilmasdan mumkin emas. SHuning uchun risklarni boshqarishni o'rganish, ya'ni, ularni tahlil qilish, rejalashtirish va baholashni o'rganish muhimdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Tavakkalchilik, baho, standart, dispersiya, variatsiya, empirik, risk, kontrakt, model, standart, inflyatsiya, diapazon, sug'urta, pudrat, rezerv, moliyalashtirish, kompaniya, normativ xujjat, forvard shartnomasi, xedjlash, diversifikatsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Xo‘jalik tavakkalchiligining nazariy asoslari nima?
2. Lokal va global tavakkalchilik tugrisida ayting?
3. Tavakkalchilik turlarini asoslab bering?
4. Xo‘jalik tavakkalchiligini aloxida xislot va xususiyatlarini izoxlang?
5. Normativ usullar deb nimaga aytiladi?
6. Xejlashni tushuntirib bering.
7. Diversifikatsiya nima?
8. Forvard shartnomasini tushuntirib bering.
9. Eng katta tavakkalchilik nima?
10. Moliyalashtirish nechta asosiy masalani bajarishga qaratilgan bo‘lishi kerak?

XIII- BOB. STRATEGIK BIZNES DARAJADAGI RISKLARNI BOSHQARISH

13.1. Strategik biznes darajasida riklarning turi

Sogʻlom bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xoʻjalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlari ustidan javobgarlikni oʻz zimmasiga olmaydi va riskning oqibatlari esa tadbirkorning zimmasiga tushadi. Risksiz biznes boʻlish mumkin emas. Risk tadbirkorning faoliyat yuritish boʻyicha qaror qabul qilishdagi mustaqilligining mahsulidir. Riskni talqin qilish, uning sinonimi adabiyotlarda turlicha boʻlib, “risk” soʻzi ispancha – portugolcha soʻzdan olinib, “suv ostidagi qoya” degan maʼnoni bildiradi. V.Kuznetsov “risk” bu “kutilgan moliyaviy daromad xavf-xatari” deb taʼrif beradi, V.CHerkasov – esa, “risk – ishlab chiqaruvchining muayayn holati” sifatida qaraydi va bizning fikrimizga koʻra ham risk – bu zarar koʻrish yoki kutilayotgan iqtisodiy, moliyaviy manfaatni boy berish bilan bogʻliq bulgan ehtimoldir.

Milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarining kuchayishi bilan raqobat muhiti ham kuchaya boradi. Kuchli raqobat muhitiga bardosh berish uchun ishlab chiqarish jarayoniga texnikaviy yangiliklarni joriy etish zaruriyatini tugʻdiradi va oqibatda riskni koʻpaytiradi. Bunday holda riskni baholash va uning natijasida kutilayotgan zararlarni oldini olish muhim hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ishlab chiqarish riski;
2. Tijorat riski;
3. Moliyaviy risk.

Ishlab chiqarish riski mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar koʻrsatish bilan yoki ishlab chiqarish faoliyatining har qanday turini amalga oshirish bilan bogʻliqdir. Bu riskni vujudga kelish sabablarining eng muhimlari quyidagilardan iborat:

a) ishlab chiqarish hajmining koʻzda tutilgan darajasidan pasayishi;

b) moddiyokiboshqaxarajatlarning oʻsishi;

v) yuqoridarajadagi (orttirilgan) soliqlarni vaboshqa ajratmalarni oʻlash vah.k.

13.2. Strategik biznes darajasida yuzaga keladigan risklar

Tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan tovarlar, mahsulotlar va xizmatlarni sotish jarayonida vujudga keladigan risk – tijorat riski deyiladi.

Bu riskning sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin.

- a) bozor kon’yunkturasining o‘zgarishi natijasida savdo hajmining kamayishi;
- b) mahsulotlarni sotish bahosining ko‘tarilishi;
- v) sotib olish hajmining ko‘zdatililmagan holda pasayishi;
- g) muomalaja jarayonida mahsulotlarning ko‘payib ketish va boshqalar.

Moliyaviy risk –

bukorxonaning banklar va boshqa moliyaviy institutlar bilan vujudga keladigan munosabatlar sohasidagi risklardir. Korxonada faoliyatining moliyaviy riski, aksariyat hollarda, u qarzmablag‘larining o‘z mablag‘lariga munosabati (nisbati) bilan o‘lchanadi. Masalan,

korxonada qarzmablag‘larining o‘z mablag‘lariga nisbat qanchayiq qoribo‘lsa,

bukorxonada shu darajada o‘z faoliyatida davomida kreditorga bog‘liq bo‘lib qoladi.

SHunga mos ravishda moliyaviy risk ham shunchayiq qoribo‘ladi,

chunki kreditlashning to‘xtatilishi yoki kredit

shartlarining o‘g‘irlashu natijasida xom-ashyo,

materiallar va boshqalarning etarli emasligi tufayli ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatib qolish mumkin.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlari yirik firmalarining ko‘pchiligi risk

bo‘yicha maxsus menejerga egadir. U firma

faoliyatining boshqasohalarida ish olib borayotgan boshqa menejerlar bilan birgalikda

risk xatarlari bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Xususan,

moliyaviy menejer bilan birgalikda risk darajasini aniqlash masalalari,

moliyaviy faoliyat hammaturlarining oqibatlarini baholash,

qimmatbahoqog'ozlargainvestitsionrisklarinibaholashvaboshqalarbilanshug'ulla nadi. Ko'pginamuammolarni risk bo'yichamenejer marketolog, xodimlarbo'yichamas'ulbo'lganmenejerva texnika xavfsizligibo'yichamuhandisbilanbirgalikdahaletadi.

13.3. Strategik biznes darajasida yuzaga keladigan risklarni baholash

Riskni baholash har bir tadbirkorning vaziyatni idrok etishiga bevosita bog'liqdir. Risk darajasini to'g'ri tanlash tadbirkorning muvaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bilan bog'liq bo'lgan qarori bilan belgilanadi. Ba'zi tadbirkorlar, odatda yangiliklarga haddan tashqari intilmasdan, har qanday riskdan qochib qutilishga harakat qiladilar. Boshqa bir tadbirkorlar esa, risk yuqori bo'lgan qarorlarni qabul qilish yo'lini tanlaydilar. SHu bilan birgalikda, ular agar riskni boshqarish imkoni cheklangan bo'lsa riskdan qochishga harakat qiladilar. SHu toifadagi tadbirkorlar mahoratlariga to'la ishonsalar, ular eng qiyin yoki murakkab holatlarda ham riskli qarorlarni qabul qiladilar. Tadbirkorning riskli qaror qabul qilishi, ko'p jihatdan, noaniqlilik sharoitida qabul qilingan shunga o'xshash qarorlarning amalga oshirilishi natijalari ta'siri tufayli shakllanadi. Agar shunga o'xshash qaror qabul qilish natijasida o'tgan davrda zarar ko'rilgan bo'lsa, tadbirkorda ehtiyotkorroq faoliyat yuritishga, aksincha, muvaffaqiyatga erishilgan bo'lsa yana risk qilishga etaklaydi.

Tadbirkorlarning ko'pchiligi risksiz loyihalarni tanlashi tabiiy. Lekin shu bilan birga, riskka bo'lgan munosabat ko'p jihatdan tadbirkor ega bo'lgan investitsiya hajmiga bog'liqdir. Tadbirkorning investitsiyasi 100 mln. so'mga teng bo'lsa, u uchun 30 mln. so'mlik zarar juda katta qiymatdagi zarardir. Agar tadbirkor 10 mlrd. so'mlik investitsiyaga ega bo'lsa, u holda 30 mln. so'm bilan risk qilish mumkin. Ko'rinib turibdiki, tadbirkorlar risk darajasi belgilashda kutilayotgan zararining qiymati bilan aniqlaydilar va risk muayyan qiymat chegarasidan o'tgunga qadar qo'rqmasdan risk qiladilar.

Qarorlarning muqobil variantlarini baholash jarayonida tadbirkor bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy natijalarning istiqbolini belgilashi

lozim. Lekin bu erda quyidagi savollarning tugʻilishi tabiiy: Qanday sharoitlarda bunday tahlil amalga oshiriladi? Aniqlik sharoitidami? Riskli sharoitdami? Noaniqlilikdami? Va qanday qarorlar qabul qilinadi?

SHuni taʼkidlash lozimki, agar tadbirkor har bir muqobil variant qarorlarining natijalarini aniq bilsa, qaror aniqlik tartibida qabul qilingan hisoblanadi. Misol tariqasida bunga depozit sertifikatlar va davlat obligatsiyalariga qoʻyilgan investitsiyalarni koʻrsatish mumkin. Chunki bunday hollarda qoʻyilgan mablagʻlarga hyillik, masalan, 80 foiz daromad olinishi oldindan maʼlum boʻladi.

Riskli sharoitda qabul qilingan karorlarga har bir olinishi mumkin boʻlgan natijalarning ehtimoli maʼlum boʻlgan qarorlar kiradi. Bu holda ehtimollik maʼlum voqealar sodir boʻlishi imkoniyatining darajasi sifatida aniqlanadi va u “0” dan “1”gacha oʻlchanadi. Hamma muqobillar ehtimollarining yigʻindisi “1” ga teng boʻlishi kerak.

Agar sodir boʻlishi lozim boʻlgan natijalar ehtimolini baholashning imkoniyati boʻlmasa, karor noaniqlilik sharoitida qabul qilingan sanaladi. Masalan, shunday boʻlishi mumkinki, hisobga olinishi lozim boʻlgan omillar shunchalik murakkab va yangi boʻlib, ular toʻgʻrisida etarli darajada maʼlumotlar boʻlmasligi yoki ular haddan ziyod qimmat boʻlishi mumkin. Bunday holda u yoki bu natijaning ehtimolini etarli darajadagi haqqoniylik bilan oldindan aytib berishning imkoni boʻlmay qoladi. Tez-tez oʻzgarib turuvchi holatlardan qabul qilinadigan koʻpgina qarorlar uchun ham xuddi shunaqangi noaniqlilik xarakterlidir. Hozirgi kunda bu narsani har bir ishbilarmon oʻzining faoliyati davomida har qadamda sezib turibdi.

Dastlab shuni taʼkidlash lozimki, riskni tahlil etish uning manbalari va sabablarini anglashdan boshlanadi. SHu oʻrinda, qaysi manbalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini aniqlash va ularga nisbatan tahlilni mujassamlashtirish muhim ekanligini alohida taʼkidlash zarur. SHunday qilib, korxonalar faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirishda tashqi risklarni tahlil qilishga, xususan, raqobatlik ustunligini yoʻqotib qoʻymaslikka harakat qiladilar. Bozor iqtisodiyotida barcha iqtisodiy subyektlar faoliyati raqobatlilik tamoyiliga asoslanadi. Dunyo mamlakatlarida raqobat muhiti davlat tomonidan tartibga solinadi va bu milliy iqtisodiyot resurslarini optimal foydalanish imkonini beradi. SHuni ham qayd etish kerakki,

raqobat muhitida faoliyati samarasiz bo‘lgan korxonalar bozordan chiqib ketishga majbur bo‘ladilar.

Xulosa tariqasida ta’kidlash mumkinki, tadbirkorlik qarori bu boshqaruv asosidir. Unga ko‘ra, tadbirkor bir qancha imkoniyatdan eng maqbulini tanlaydi. Risk ikki qarama-qarshi bo‘lgan manfiy va musbat natijalarning nisbati bilan aniqlanib, korxonada faoliyatini batafsil tahlil qilish asosida oqilona ishlab chiqarish va moliyaviy siyosat bir tomondan noqulay holatlar ehtimolini kamaytirsa, ikkinchi tomondan, bunday holatlarning salbiy oqibatlarini kamaytiradi. Tadbirkor tomonidan qabul qilingan qaror korxonada faoliyati muvaffaqiyatining garovidir, chunki u riskni sezilarli darajada kamaytiradi va oxir oqibatda yuqori natijaga erishish imkonini beradi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Strategiya, baho, ishlab chiqarish riski, tijorat riski, moliyaviy risk, soliq, kon’yunktura, tadbirkor, qaror, investitsiya, biznes, menejer, texnika, marktolog, firma, kompaniya.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyotida risklar nechiga bo‘linadi?
2. Risksiz biznes bo‘ladimi?
3. Risk so‘zi nima ma’noni anglatadi?
4. V. Kuznetsov risk xaqida nima degan?
5. V. Cherkasov nima degan?
6. Tijorat riski nima?
7. Moliyaviy risk nima?
8. Moliyaviy risk nima bilan o‘dchanadi?
9. Riskni taxlil etish nimadan boshlanadi?
10. Iqtisodiy subyektlar nimaga aytiladi?

XIV- BOB. RISKLARNI KAMAYTIRISH USULLARI

14.1. Ishlab chiqarishda risklarni kamaytirish zarurligi va yo'llari

Mavjud noaniqliklar va xatarlar tadbirkorni o'z loyihasining foydaliligini chuqur tahlil etishga, ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni tejamkorlik asosida puxta sarflashga, asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga, baho siyosatini to'g'ri belgilashga undaydi. Aks holda korxonada faoliyati inqiroz bilan yakun topishi mumkin.

Tavakkalchilikni kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Tavakkalchilikning paydo bo'lishidan qochish;
2. Tavakkalchilikning ta'sirini kamaytirish.

Birinchi holatda tadbirkor o'z faoliyatiga xavf tug'diradigan har qanday xatarni chetlab o'tishga harakat qiladi.

Ikkinchi holatda esa tadbirkor tavakkalchilikning subyekt ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga ta'sirini (zararni) pasaytirish choralari izlaydi. Tavakkalchilikni kamaytirishning yo'nalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak: agar tadbirkorning faoliyat turi muqarrar ravishda tavakkalchilik

- bilan bog'langan bo'lsa, bunday holatda uni chetlab o'tish imkoniyati bo'lmaydi;

- bir turdagi tavakkalchilikdan qochish uning ikkinchi turini tug'dirishi mumkin;

- tavakkalchilikdan qochish yuqori darajada foyda keltiradigan sohalarida biznes imkoniyatlarini cheklaydi;

- tadbirkorlik faoliyatining ko'lami yirik va kutilayotgan foydaning miqdori qancha ko'p bo'lsa, tavakkalchilikning yuzaga kelishi ehtimoli ham shuncha yuqori bo'ladi va hokazo.

Tavakkalchilikni kamaytirishda tadbirkor uning ta'sirini o'ziga olishi, taqsimlashi yoki boshqalarga o'tkazishi mumkin.

Tavakkalchilikni o'ziga olish quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. Oldindan rejalashtirilgan holda zararlarni qoplovchi maxsus zahira jamg'armalarini yaratish.

2. Rejalashtirilmagan tavakkalchilikdan ko‘rilgan zararlarni foyda yoki aktivlar hisobidan qoplash.

Oldindan rejalashtirilgan zahira jamg‘armalarini yaratish o‘zini-o‘zi sug‘urtalash jarayonini anglatadi. Sub’ekt favqulodda yuz beradigan tavakkalchilik holatlari uchun foydadan ajratma hisobiga maxsus jamg‘arma (tavakkalchilik jamg‘armasi) yaratadi. Masalan, yirik tadbirkorlik subyekti uncha qimmat bo‘lmagan uskunani tasodifiy xatarlardan sug‘urtalashni maxsus sug‘urta kompaniyasi orqali amalga oshirishni ma’qul ko‘rmaydi. O‘zini-o‘zi sug‘urtalash zarar ehtimoli kichik bo‘lgandagina maqsadga muvofiq. Biroq, zahira jamg‘armasi foyda keltirmaydigan o‘lik kapital ekanligi uchun, tadbirkorlar bunday jamg‘armani qisqartirishga harakat qiladilar.

Ikkinchi holatda, ya’ni rejalashtirilmagan tavakkalchilikni o‘ziga olishda tadbirkorlik firmasi tavakkalchilik natijasidagi yo‘qotishlarni foyda yoki aktivlardan qoplashiga to‘g‘ri keladi. Agar yo‘qotishlar hajmi foydadan katta bo‘lsa, joriy likvidli aktivlar yoki xususiy kapitalning bir qismidan voz kechishga to‘g‘ri keladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini pasaytirishning yana bir usuli bu tavakkalchilikni taqsimlash yoki birlashtirish yo‘li bilan yo‘qotishlarni qisqartirish hisoblanadi.

Tavakkalchilikni taqsimlash odatda, tadbirkorlik firmasining aktivlarini taqsimlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mulk tadbirkor oilasining turli a‘zolari nomiga o‘tkaziladi yoki shu maqsad uchun yaratilgan korporatsiya va trust firmalari nomiga o‘tkaziladi. Bunda bir maqsad atrofida birlashgan tadbirkor oilasining a‘zolari yoki yaqin aloqada bo‘lgan tadbirkorlarning guruhi (shirkat, korporatsiya, konsern va boshqa) tavakkalchilik qilish oqibatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan foyda va zararlarni o‘zaro taqsimlaydilar.

Tavakkalchilikni taqsimlash orqalikamaytirish usullaridan biri – diversifikatsiyalashdir. Uning mohiyati bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan turli xildagi faoliyat ko‘rinishlarida o‘rtasida kapital quyilmalarni va tovar-moddiy resurslarni taqsimlashdan iborat. Agar tavakkalchilik oqibatida bir faoliyat turidan zarar ko‘rilsa, boshqasida ko‘rilgan foyda hisobidan uni qoplash mumkin.

Diversifikatsiyalash ishlab chiqarish, tijorat va investitsiya faoliyati sohalarida tavakkalchilikning darajasini kamaytirish imkonini yaratadi.

Uni diversifikatsiyalash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

kapital sarflarni bir nechta faoliyat turlariga bo‘lib sarflash;

- har xil turdagi yuqori daromad keltiradigan qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish;

- moddiy-texnik ta‘minoti bo‘yicha tashqi sheriklarning sonini ko‘paytirish;

- turli sigmentlarni o‘amrab olgan bozor va iste‘molchilarning talabiga mos tovarlar ishlab chiqarish;

- bozor kon‘yukturasi va iste‘molchilar sigmentiga mos keluvchi turli baho siyosatini yuritish;

- yuk tashuvchi turli transport subyektlarining xizmatidan foydalanish;

- tovar-moddiy zahiralarni bir nechta joyda bo‘lib asrash va hokazo.

Amaliyotda diversifikatsiyalash tavakkalchilikni faqat kamaytirishi emas, aksincha oshirishi ham mumkin. Tadbirkor o‘z mablag‘ini samarasiz ishlab chiqarish faoliyatiga sarflagan taqdirda tavakkalchilik ehtimoli ortadi. Tavakkalchilikni birlashtirish ikki yoki undan ortiq korxonalarining qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladi va buning natijasida yangi tashqil topgan korxonalar dastlabkilariga qaraganda ko‘p aktivga ega bo‘ladi. Tavakkalchilik xatarlarini pasaytirish yo‘lida tadbirkorlarning o‘z kapitallarini birlashtirishi, ular o‘rtasida olingan foydani va zararlarni bo‘lish imkonini yaratadi. Ushbu holat korxonani tavakkalchilikdan butunlay holi qilmaydi, lekin uning xatar darajasini bir muncha pasaytirishga yordam beradi.

Tavakkalchilikni boshqalarga o‘tkazish yoki tavakkalchilik transferti – tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytirishning yana bir usuli hisoblanadi. Bunda tavakkalchilik xatarlari shartnoma asosida ikkinchi bir yuridik shaxs zimmasiga o‘tkaziladi.

Tavakkalchilikni boshqalarga o‘tkazishning ikki tomon uchun ham foydali sabablari mavjud:

1. Tavakkalchilikni o‘ziga olishda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarning miqdori tavakkalchilikni o‘tkazishdagiga nisbatan ko‘p bo‘lishi mumkin.

2. Tavakkalchilik o‘tkaziladigan tashqi subyekt xatarlarni kamaytirishning samarali usullarini bilishi va ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

3. Tavakkalchilikni o‘tkazuvchi ma’lum to‘lov evaziga ehtimol tutilgan zararlardan o‘zini himoyalashga erishsa, tavakkalchilikni oluvchi o‘tkazuvchilar badali hisobidan daromad ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tavakkalchilikni o‘tkazishning quyidagi shakllari uchraydi:

1. Qurilish shartnomalari – bunday shartnomani tuzish orqali tadbirkor turli obyektlarni qurish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tavakkalchilikni qurilish firmasining bo‘yniga o‘tkazadi.

2. Yuklarni asrash va jo‘natish shartnomasini imzolash orqali tadbirkor mahsulotlarni tashish va asrash davrida yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar va buzilishlar bo‘yicha xatarin ma’lum to‘lov evaziga transport kompaniyasining zimmasiga o‘tkazadi.

3. Sotish, xizmat ko‘rsatish va ta’minlash shartnomasi tadbirkorga tovar va xizmatlarni tarqatish bilan bog‘liq tavakkalchilik xatarlarini distribyutorlar zimmasiga o‘tkazish orqali, ehtimol tutilgan yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon yaratadi. Bu yo‘l bilan subyekt iste’molchi sifatida asosiy vositalar va asbob-uskunalarining buzilishi, ishdan chiqishi xatarlarini kafolat muddati davomida ularni ishlab chiqargan yoki sotgan kompaniyaning zimmasiga o‘tkazadi.

4. Ijara – tavakkalchilikni o‘tkazishning keng qo‘llaniladigan usullaridan biri. Keyingi paytlarda keng tarqalayotgan ijara turlaridan biri moliyaviy ijara yoki lizingdir. Ijaraga beruvchi o‘z mulkini ma’lum bir davr oralig‘iga ijaraga berib, uning saqlanishi va ishlatilishi bilan bog‘liq tavakkalchilikni ijaraga oluvchining zimmasiga o‘tkazadi.

5. Faktoring – debitor qarz majburiyatini faktor vositachiga o‘tkazayotgan subyektning qarz undirish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladigan shartnomadir. Sub’ektlar o‘rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo‘lganda, ya’ni tovar-moddiy qiymatliklarni jo‘natgan subyekt xaridordan mahsulot haqini o‘z muddatida undirolmasa yoki bunday qarzlar shubhali, ularni undirish ehtimoli kam bo‘lsa faktoring vositasida qarzni undirish amaliyoti qo‘llaniladi. Faktoringda vositachi korxonalar (odatda bank) qarz bergan subyektdan ma’lum bir komission to‘lov evaziga qarzdordan mablag‘ni

undirish huquqini qo‘lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilish bilan subyekt undirolmay turgan qarzning aksariyat qismini faktoring subyektidan (yokibankdan) oladi. So‘ngra factoring korxonasi qarzdor korxonaga qarzni undirish bo‘yicha da’vo qo‘zg‘atadi. Faktoring afzalligi shundaki, u noto‘lovlarmuammosini qisman bo‘lsada echishga imkon beradi.

6. Sub’ektning faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchilikni o‘tkazishning eng samarali usullaridan biri – sug‘urtadir. Sug‘urtalashda subyektning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy faoliyati yoki tabiiy omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning tavakkalchiligi ma’lum haq to‘lash evaziga, shartnoma asosida sug‘urta kompaniyasining zimmasiga o‘tkaziladi. Tavakkalchilikning biror turi natijasida subyekt zarar ko‘rsa, zararning katta qismi sug‘urta shartnomasiga asosan sug‘urta kompaniyasi tomonidan o‘qoplanadi.

Sug‘urta obyektini sifatida quyidagilar chiqishi mumkin:

- subyekt aktivlarini buzilish, ishdan chiqish, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlardan sug‘urtalash, ya’ni mulk sug‘urtasi; subyekt qabul qiladigan va jo‘natiladigan yuklar sug‘urtasi;
- qarzga olingan mablag‘larning qaytarilmasligi, ya’ni kredit tavakkalchiligi sug‘urtasi;
- garovga qo‘yilgan mulkni sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollari tabiiy ofatlar, kasalliklar va zararkunandalardan sug‘urtalash;
- xodimlarni ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash va hokazo.

7. Xedjirlash – moliyaviy yoki tijorat faoliyatida baholarning (valyuta kursining) tebranib turishidan yo‘qotishlarni kamaytirish uchun tavakkalchilikni fyuchers shartnomalari yordamida sug‘urtalash shakli hisoblanadi.

Baho (kurs)ning o‘zgarishi tavakkalchiligini sug‘urtalashga xizmat qiluvchi shartnoma «xedj» deb ataladi. Xedjrlashni amalga oshiruvchi subyekt «xedjer» deb ataladi.

Xedjrlashning ikki turi mavjud:

1. Oshishdan xedjrlash;
2. Pasayishdan xedjrlash.

Oshishdan xedjrlash kelgusida subyekt iste’mol qiladigan moddiy resurslarning narxlari (valyuta kurslar)ining oshishi ehtimolidan

sug'urtalanishi zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Masalan, resursning bahosi (yoki valyuta kursi, qimmatli qog'oz narxi) uch oydan keyin o'sadi deb taxmin qilinmoqda va u subyektga 3 oydan keyin kerak bo'ladi. Baholar (kursning) oshishidan ko'riladigan yo'qotishlarni qoplash uchun, resurslarni bugungi kundagi baholarda sotib olish shartnomasini qo'lga kiritish lozim bo'ladi. Agar 3 oydan keyin resursning bahosi oshib ketgan ta'oldirda ham, fyuchers shartnomasini sotgan subyekt resursni shartnoma sotilgan sanadagi (3 oy oldingi) baholarda etkazib berish majburiyatini zimmasiga oladi. SHu yo'l bilan oshishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer o'zini kelgusida baholarni oshishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi.

Pasayishdan xedjerlash kelgusida tovarning bahosi pasayishi tavakkalchiligidan qochib, uning oldi-sotdi shartnomasini fyuchers bozoridagi hozirgi baho darajasida sotish bilan bog'liq birja operatsiyasini anglatadi. Pasayishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer kelajakda sotadigan tovar shartnomasini birjada shoshilinch sotib, o'zini kelajakda ko'rishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi. Xedjer shoshilinch shartnomalarni sotish yoki sotib olish yordamida bozorlardagi baholarning noaniqligidan kelib chiqadigan tavakkalchilikni kamaytirishga harakat qiladi.

14.2. Sug'urtalash orqali ishlab chiqarish tavakkalchiligini kamaytirishning asosiy masalalari

Sug'urtalash chora tadbirlarini xavf-xatar oqibatida yuzaga keladigan yo'qotishni (kutulmagan xolatlarda mol-mulk, mablag'lar va ishlab chiqarishni) to'la yoki qisman qoplash (tabiiy ofat, avariya, baxtsiz xodisalar, bankrotlikka uchragan xamkorlarni shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarmasligi va boshqa xolatlar yuz berganda) yoki yo'qotishlarni iloji boricha ko'proq sonli yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlash yo'li bilan qoplash kabi usullarda amalga oshirish mumkin. Ishbilarmon va korxonalar uchun tavakkalchilikni ximoya mudofa tadbirlar bilan bartaraf etish yoki seziralli moliyaviy zarar etkazish mumkin bo'lgan xavf xatarni o'z

elkasiga olishga hoxishi bo'lmagan paytda sug'urtalash maqsadga muvofiqdir.

Sug'urtalashda ikki tomonning ishtiroki majburiydir – sug'urta fondini bunyod etish va uni ishlatish bilan shugullanuvchi maxsus tashkilot yoki sug'urtalovchi xamda ushbu fondga belgilangan to'lovni to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Ular orasidagi munosabat sug'urta shartnomasi (polis) asosida tashkil topadi.

Tavakkalchilikni pasaytirish maqsadiga qilinadigan sug'urtalash ixtiyoriy tartibda o'tkaziladi. Tadbirkorning xar qanday faoliyati, odatda sug'urtalanishi mumkin. Ammo, bu bazi bir, xavf-xatar yuqori bo'lgan xolatlardagina amalga oshiriladi. Tadbirkorlik sug'urtasi faoliyatning yakuniy natijalari bilan birgalikda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'sir qiluvchi turli omillar himoyasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Natijada sug'urta vositasida ulkan bozor fazosida suzib yurgan har bir shaxsga xavf soluvchi kutilmagan holatlarga qarshi kafolat yaratishi kerak.

Sug'urtalanuvchining xuquqlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta muddati davrida sug'urta masalalari buyicha maslaxatlar olish;
- kredit shartnomasi asosida sug'urtalovchiga tekshiruv o'tkazishni topshirish;
- tashkilotlar mansabdor shaxslarning xuquqiy qobiliyatini tekshirish;
- tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarning to'g'riligi va xaqiqiyiligini tekshirish.

Foyda oluvchining xuquqlari:

- sug'urta xodisasi sodir bo'lganidan so'ng shartnoma muddati tomom bo'lgan vaqtdan boshlab 20 kun mobaynida belgilangan shaklda ariza berish;

Sug'urtalovchining mas'uliyatlari:

- sug'urtalanuvchining sug'urta qoidalari bilan tanishtirish;
- foyda oluvchiga sug'urta xodisasi sodir bo'lganidan keyin sug'urta kompaniyasini to'lash;
- sug'urta qoidasida ko'zda tutilganidan tashqari xollarda sug'urtalanuvchi va uning mulkiy xolati to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatmaslik.

Sug'urtalanuvchining mas'uliyatlari:

- sug'urta shartnomasi tuzilayotgan sug'urtalovchiga unga ma'lum sug'urta tavakkalchiligini baxolash bilan bog'lik bo'lgan barcha xolatlarni ma'lum qilish;

- shartnomada ko'rsatilgan sug'urta badalini qoida asosida to'lash;

- sug'urta xolatini sodir bo'lgandan keyin sug'urtalovchiga sug'urta xujjatlarini to'la-to'kis taqdim etish;

- qarzni to'lash uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish;

- sug'urta xodisasi sodir bo'lganidan keyin ikki tomonlama kelishilgan muddatda sug'urtalovchini sug'urta xodisasi bo'yicha to'langan sug'urta qoplamasini to'lash.

Sug'urta qilinadigan tavakkalchilik turlari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi, yangi texnika va texnologiya tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasining obykti sug'urtalanuvchining tijorat faoliyati xisoblanadi, qaysiki biron – bir ishlab chiqarish, ishlar yoki xizmatlar turiga pul mablag'lari va boshqa resurslarni investitsiya qilish xamda ma'lum davrdan so'ng bu qo'yilmalardan daromad olishni ko'zlovchi sug'urtaning bu turi shartnoma tuzish va uni amal qilish butun davri bo'yicha ancha murakkab turlarda xisoblanadi. Bu sug'urtaning maqsadi agar ma'lum davrdan so'ng sug'urtalangan operatsiyalar ko'zda tutilgan natijani bermasa sug'urtalanuvchiga ko'rilishi mumkin bo'lgan zarlarni qoplashdan iboratdir.

Sug'urta qoplamasi sug'urta summasi va sug'urtalangan tijorat faoliyatidan olingan xaqiqatdagi moliyaviy natijalar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi. Sug'urtaning boshqa turlari kabi sug'urtaga va sug'urta javobgarligiga qabul qilayotganda ba'zi bir chegaralarni qo'llash zarur. Demak, sug'urtadan vositachilik faoliyatini, azartli o'yinlarga qo'yilmalar va shu kabilarni chiqarish maqsadida xisoblanadi. Umuman, xar qaysi sug'urta tashkiloti o'zining javobgarligiga qabul qiluvchi tavakkalchiliklarni chegaralash yoki kengaytirish xuquqiga ega.

Tijorat tavakkalchiligi bo'yicha ta'rif stavkalari ko'plab omillarga: faoliyat turiga, sug'urta muddatiga, bozor munosabatlarining turg'unlik (stabil) darajasiga va boshqalarga bog'liq. Xarbir korxonaga uchun tavakkalchilik va to'lov stavkasi

aloxida xisoblanadi. Yangi texnika vatexnologiya tavakkalchiliklari sug'urtasini ishlab chiqarishga ikkita yo'nalishga bo'lish mumkin, birinchidan, bu texnikani o'zini, texnologik liniyalarini ularni ishdan chiqiishi, ishlash jarayonining buzilishi, talofat ko'rish xollaridan sug'urtalash. Mazkur xolatda sug'urtalangan obyektidagi bevositako'riladigan zararlardan ximoyanazardatutiladi.

Ikkinchidan – yangi texnika, texnologiyani ko'llash yoki ularni buzilishi, talofat ko'rish xollaridan sug'urtalash.

Buerda qo'shimcha xarajatlar va olinmagan foyda ko'rinishidagi bevositaz ararlarinobatga olinadi. Bu ikkala sug'urtaham alohidadir.

Bu sug'urtaning obyektisidagi vatekshirishlardan keyin ishlatishdayaroqli deb tanolingan mashinalar, texnik vatexnologik qurilmalar xisoblanadi.

Mazkur sug'urtaning xususiyatlari,

alohid shaxslarning ayib bilani yuzagakeladigan zararlarni qoplashdan iborat. Zararlarni agardayangi texnika

vatexnologiyalar bilan ishlash uchun zarur kasbiy tayyorgarlikka ega shaxslarning tasodifiy xatolari yoki ataylab qilingan xarakterli natijasi dayuzagakel saqoplanishi ko'zdatutiladi.

Korxonalarda ishlab chiqarish tavakkalchiligi turlarini sug'urtalash uchun yo'nalishda amalga oshiriladi:

A) Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olish, kapital hajmini ko'paytirish hisoblanadi. SHuning uchun kutilgan foydani yo'qotish ehtimoli yoki ko'zlangan daromadni ololmaslik holatlaridan sug'urtalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydani yo'qotilishiga (ololmaslikka) olib keluvchi barcha sabablar ikki guruhga bo'linadi:

1. Tabiiy ofatlar, avariya va boshqa shunga o'xshash hodisalar natijasida ishlab chiqarish jarayonining buzilishi.

2. Bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, mahsulot etkazib beruvchi yoki sotib oluvchi tomonidan shartnomalarning buzilishi va boshqalar.

Omillarning bu ikkala guruhi ham sug'urta sohasida bo'lishi lozim. Samarali tadbirkorlik faoliyatini yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishsiz, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo'shimcha mablag'larni qidirishdagi ongli

tavakkalchiliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu yo'ldagilarning hammasi ham muvaffaqiyatni kafolatlamaydi, yo'qotishlar ham bo'lishi mumkin. Bunday texnik va texnologik tavakkalchiliklardan sug'urtalash ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim qo'llab-quvvatlovchisi bo'lishi mumkin.

B) Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Bu sug'urta turining obyekti sug'urtalanuvchining tijorat faoliyati hisoblanadi, qaysiki biron-bir ishlab chiqarish, ishlar yoki xizmatlar turiga pul mablag'lari va boshqa resurslarni investitsiya qilish hamda ma'lum davrdan so'ng bu qo'yimlardan daromad olishni ko'zlovchi.

Sug'urtaning bu turi shartnoma tuzish va uni amal qilish butun davri bo'yicha ancha murakkab turlardan biri hisoblanadi. Sug'urta tashkilotining tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi bo'yicha javobgarligi sug'urtalanuvchining bozor kon'yunkturasining noqulay, oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlari va ko'zlangan tijorat faoliyatini amalga oshirish sharoitlarini yomonlashuvi natijasidagi yo'qotishlarini qoplashdan iborat.

Sug'urtaning maqsadi, agar ma'lum davrdan so'ng sug'urtalangan operatsiyalar ko'zda tutilgan natijani bermasa, sug'urtalanuvchiga ko'rilgan zararlarni qoplashdan iboratdir. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasi va sug'urtalangan tijorat faoliyatidan olingan haqiqatdagi moliyaviy natijalar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi. Sug'urta turining maqsadi qo'yimlarni yo'qotilish ehtimolidan himoyalaniish hisoblanar ekan, sug'urta shartnomasining amal qilish muddati kapital xarajatlarning qoplanish muddati bilan asoslanadi. SHuni ta'kidlash kerakki, sug'urta shartnomasining amal qilish muddati belgilanayotganda sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchining manfaatlari bu erda turlicha namoyon bo'ladi. Sug'urtalanuvchi amalga oshirayotgan faoliyatini tezroq qoplanishiga intilar ekan, obyektiv ravishda sug'urta muddatining qisqarishidan manfaatdordir. Sug'urta tashkiloti uchun shartnomani amal qilish muddatining qisqaligi tavakkalchilikni oshirib yuboradi. Muddatning uzaytirilishi qoplanishni aniqroq qiladi, shundan kelib chiqib sug'urta tashkiloti tomonidan qoplanadigan zararlarni ro'y berish ehtimolligini kamaytiradi.

Ko‘rilayotgan sug‘urta turining xususiyati ham shundan iboratki, sug‘urta qoplamalarining to‘lanishi, asosan, sug‘urta muddati tugagandan so‘ng amalga oshiriladi, qachonki sug‘urtalangan tijorat amallarining yakuniy natijalari aniqlanganda.

Sug‘urtaning boshqa turlari bo‘yicha esa, zararlarni kompensatsiyalash zarurati sug‘urta shartnomasini amal qilishining istalgan vaqtida amal qilishi mumkin.

Tijorat tavakkalchiliklari sug‘urtasida to‘lanishi mumkin bo‘lgan to‘lovlar bo‘yicha muddatning belgilanishi tushgan badallardan rejali foydalanish imkonini beradi, bu davrda zahiralar hosil qilish uchun sharoitlar yaratadi. SHuning uchun sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati kelishilayotganda ilmiy asoslangan ko‘rsatmalardan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining turli sohalarida investitsiyalarning o‘zini qoplash amaliyotini tahlilidan kelib chiqish zarur.

V) YAngi texnika va texnologiya tavakkalchiliklarisug‘urtasi. Ishlabchiqarishgayangi texnika vatexnologiyalarniqo‘llashtavakkalchiligisug‘urtasiniikkityo‘nalishga bo‘lishmumkin. Birinchisi – butexnikanio‘zini, texnologikliniyalarniularniishdanchiqishi, ishlashjarayoniningbuzilishi, talofatko‘rishhollaridansug‘urtalash.

Mazkur holatda sug‘urtalangan obyektlardagi bevosita ko‘riladigan zararlardan himoya nazarda tutiladi.

Ikkinchisi – yangi texnika, texnologiyani qo‘llash yoki ularni buzilishi, to‘xtab qolishi bilan bog‘liq ko‘zda tutilmagan oqibatlar sug‘urtasi. Bu erda qo‘shimcha xarajatlar va olinmagan foyda ko‘rinishidagi bilvosita zararlar inobatga olinadi. Bu ikkala sug‘urta ham alohidadir. Biroq ularni birgalikda qo‘llash o‘zini oqlagan. Busug‘urtaturiningobyektisinovvatekshirishlardankeyinishlatishgayaro qlidebtanolingan mashinalar, texnik vatexnologikqurilmalarhisoblanadi. Yangi texnika vatexnologiyalarsug‘urtasiularniqo‘llashtavakkalchiliklariganisbatana malgaoshiriladi. Bunday tavakkalchiliklarga mashinalar konstruksiyalaridagi va texnologiyalardagi, materiallarni tanlash yoki tayyorlashdagi xatoliklar; kutilmaganda bozorda yana ham unumli texnika va texnologiyalarning paydo bo‘lishi; sinov paytida aniqlash mumkin bo‘lmagan yashirin defektlar; o‘lchov, me‘yorlashtirish va

boshqa asboblarning ishdan chiqishi; elektr quvvati va bosimning ortib ketishi, qisqa tutashuvlar; mashinalarni buzilishi va ishlab chiqarishni to'xtashiga olib keluvchi texnika va texnologik liniyalarga xizmat ko'rsatishdagi xatoliklar, extiyotsizlik, alohida shaxslarning g'arazgo'yligi va boshqa sabablar. Mazkur sug'urta turining xususiyati, ko'rinib turibdiki, alohida shaxslarning aybi bilan yuzaga keladigan zararlarni qoplashdan iborat. Zararlar, agarda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlash uchun zarur kasbiy tayyorgarlikka ega shaxslarning tasodifiy xatolari yoki ataylab qilgan harakatlari natijasida yuzaga kelsa, qoplanishi ko'zda tutiladi.

Umuman, har qaysi sug'urta tashqiloti o'zining javobgarligiga qabul qiluvchi tavakkalchiliklarni chegaralash yoki kengaytirish huquqiga ega. Tijorat tavakkalchiliklari sug'urtasi bo'yicha tarif stavkalari ko'plab omillarga: faoliyat turiga, sug'urta muddatiga, bozor munosabatlarining barqarorlik darajasiga va boshqalarga bog'liq. Harbirkorxonachuntavakkalchilikvato'lovstavkasialohida (individual)dir.

Sug'urtanisohalargabo'lishasosidaularningobyektlaribo'yichafarqlanis hiyotadi.

Bu omilga mos ravishda sug'urta munosabatlari yigindisini to'rtta sohaga bo'lish mumkin:

1. Mulkiy sug'urta;
2. Fukarolar xayot darajasi sugurtasi;
3. Javobgarlik sugurtasi;
4. Tadbirkorlik tavakkalchiligi sugurtasi.

Mulkiy sug'urtada obyekt bo'lib, moddiy qiymatliklar xisoblanadi; fuqarolarning xayot darajasi sug'urtasida – ularning xayoti, sog'ligi, mehnat layokati; javobgarlik sug'urtasida - obyekt bo'lib sugurtalanuvchilarning turli javobgarliklari, ma'suliyati, majburiyatlari xisoblanadi; tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa – obyekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida 2 tarmoq mavjud: daromadlarni be'vosita xamda bilvosita yo'qotish tavakkalchiligi sug'urtasi. Tadbirkorlik tavakkalchiligi sug'urtasi dastgoxlarni to'xtab kolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish yoki foyda ola olmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash

tavakkalchiligi sugʻurtasi va boshka turlarga boʻlinadi. Koʻrinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyati va sugʻurta bozor munosabatlarining uzviy bogʻliq kategoriyalaridir. Tadbirkorlik sugʻurtasi faoliyatning yakuniy natijalari bilan birga koʻzlangan maqsadga erishish uchun taʼsir qiluvchi turli omillar ximoyasiga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olish. Kapital xajmini koʻpaytirish xisoblanadi. SHuning uchun kutilgan foydani yoʻkotish extimoli yoki koʻzlangan daromadni ola olmaslik xolatlaridan sugurtalash muxim axamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sugʻurtaning oʻzi tijorat faoliyatining bir sohasi boʻlib boradi. SHuning uchun sugʻurtalovchi oʻz javobgarligiga u yoki bu tavakkalchilikni olish bilan, avvalo oʻzi xaqida oʻylaydi, yaʼni tuzilayotgan sugʻurta shartnomasi unga nima beradi.

SHuningdek, u yirik tavakkalchiliklarning yukori xavfi mavjud boʻlgan sugurtaning ayrim turlariga qoʻl ura olmaydi. SHuning uchun bunday turlarning koʻpchiligi birgalikdagi sugʻurtaning predmeti boʻlishi mumkin. Samarali tadbirkorlik faoliyatini yangi texnika va texnologiyalarni oʻzlashtirishga intilishsiz, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qoʻshimcha mablagʻni qidirishdagi ongli tavakkalchilikni tassavur qila olmaydi. Bu yoʻldigalarning xammasi xam muvaffaqiyati kafolatlanmaydi, yoʻkotishlar xam boʻlishi mumkin, bunday texnik va texnologik tavakkalchiliklarni sugʻurtalash ilmiy texnik, taraqqiyotni muxim qoʻllab-quvvatlovchisi boʻlishi mumkin.

Bozor xoʻjaligining kengayishi bilan tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq koʻplab obyektlar sugʻurtaga jalb qilinadi. Lekin sugʻurta ximoyalarning extimolligi real sugʻurta bozorini shakllanishi, sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy bazasini mustaxakamlanishi bilan amalga oshadi.

14.3. Korxonalar raqobatdoshligini taʼminlash ishlab chiqarish tavakkalchiligini kamaytirishning muhim sharti sifatida

Mamlaktimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirmasdan, raqobatdosh iqtisodiyot, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, oʻrta muddatli istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib

chiqishdek strategik vazifani amalga oshirish mumkin emasligi YUrtboshimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi.

2008 yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jahon iqtisodiyotiga ta'siri davom etayotgan bir sharoitda xomashyo va tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabning davomli ravishda pasayishi korxonalar, mamlakatlar o'rtasidagi raqobat kurashi barcha mahsulotlar, ayniqsa tayyor mahsulotlar bozorlarida kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlash orqaligina mamlakatni barqaror rivojlantirish mumkinligi sir emas.

Bu maqsad mamlakat iqtisodiyotini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini ilg'or davlatlar tajribasi ko'rsatib turgani Prezidentimiz ma'ruzasida alohida qayd etildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini ta'minlash shartlari. "Respublika sanoatini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, kompleksi va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida" qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning amalga oshirilishi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda yangi bosqich bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etish hamda o'zlashtirish orqaligina erishiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 oktyabrdagi «YAngi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va o'zlashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi 1623-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, 2012-2016 yillarda, hisob-kitoblar bo'yicha, qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqishni ta'minlash shartlari Iqtisodiyotni izchil isloh qilish Tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish Faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish YUqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash 32. O'zbekiston Respublikasi sanoatini 2015 yilga qadar rivojlantirish ko'rsatkichlari5.

Joriy yilda Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo kompleksi, Dehqonobod kaliy o'g'itlari va Qo'ng'irotda soda zavodlarining ikkinchi navbatlari, sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari yakunlanish arafasida. Sintetik suyuq yoqilg'i, "Neksiya" klassidagi avtomobillarning yangi modelini, avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish ichki va tashqi bozorlar uchun yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga olib keladi.

Ushbu loyihalarning aksariyati mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan. Avtomobilsozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning ko'payishi, o'ziga xos klasterlarning yuzaga kelishi, butlovchi qismlar ishlab chiqarishning mahalliyashtirilishi tayyorlanayotgan avtomobillar narxining barqarorligini, ularning tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kabel o'tkazgichlar ishlab chiqarishini kengaytirish va texnik modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan "Andijonkabel" OAJ QKda amalga oshirilishi mo'ljallangan 5 ta loyiha, "Uzkabel" OAJ bilan tashkil etilishi mo'ljallanayotgan qo'shma korxonalar negizida yiliga 6 ming kilometr kuchlanish kabellari ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha 2015-2016 yillarda amalga oshiriladigan, umumiy 5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini

rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida»gi qarori. 33 qiymati 23,4 million dollarga teng boʻlgan loyiha va boshqa bir qator loyihalar raqobatdosh tayor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytiradi.

Iqtisodiyotning etakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnikaviy qayta qurollantirish loyihalari amalga oshirilishini taʼminlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan mazkur jamgʻarma oʻziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Fondning nizom jamgʻarmasini 5 milliard dollardan 2014 yilga qadar bosqichma-bosqich 10 milliard dollarga etkazish boʻyicha qabul qilingan qaror ijrosi natijasida 2015 yil boshiga kelib uning miqdori 10 milliard dollardan oshib ketdi.

YUrtimizning eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalariga, eksport qilinayotgan mahsulotning turi, ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushiga bogʻliq tarzda bir qator imtiyozlar (masalan, foyda soligʻining pasaytirilgan imtiyozli stavkalarini qoʻllash, bojxona bojlari boʻyicha imtiyozlar) belgilab berilan. 2009-2012 yillarga moʻljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturiga koʻra, mahsulot eksport qiluchi korxonalarga beriladigan imtiyozlar doirasi kengaytirildi. Jumladan, jahon bozorida eksport qilayotgan mahsulotiga talab pasaygan korxonalarga bank kreditlarini qaytarish muddatlari prolangatsiya qilindi, soliq toʻlovlari kechiktirilgani uchun penya hisoblash toʻxtatib qoʻyildi va h.k.

Ammo, jahon bozorida raqobat kurashi kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimizning mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini qoʻllabquvvatlash tizimini takomillashtirish, ularga qoʻshimcha imtiyoz va prefrensiyalar berish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi Prezidentimiz tomonidan taʼkidlandi va muhim vazifa sifatida kun tartibiga qoʻyildi. Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, isteʼmolchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi toʻgʻrisida axborot koʻmagini berish, davlatlararo kelishuvlarga koʻra mamlakat korxonalarini uchun xorijiy davlatlarda eng koʻp qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, transport tizimi va h.k)

rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko‘maklashish kabi chora–tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatdoshligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Poytaxtimiz va viloyat markazlarida har yili o‘tkazib kelinayotgan sanoat yarmarkalari, mamlaktimizning xalqaro savdo-sanoat yarmarkalaridagi ishtiroki mahsulot eksport qiluvchi korxonalarimizga o‘z mahsulotlarini reklama qilish, xaridor va sheriklar izlab topish imkoniyatini kengaytirmoqda, reklama xarajatlarini tejash imkonini bermoqda. 34 Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, eksport yarmarkalarini o‘tkazishni kengaytirish, yirik eksportchi korxonalarimizni nufuzli xalqaro yarmarkalarda ishtirok etishga jalb etish bo‘yicha ham Hukumat qarorini qabul qilish Prezidentimiz tomonidan alohida vazifa etib belgilandi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish, sug‘urta, risk, korxonalar, raqobat, tadbirkor, loyiha, inqiroz, rejalashtirish, subyekt, jamg‘arma, mulk, shirkat, korporatsiya, konsern, diversifikatsiya, kon’yunktura, segment, qurilish, ijara.

Takrorlash uchun savollar

1. Yo‘qotishlarni qisqartirish deb nimaga aytiladi?
2. Tavakkalchilikni kamaytirishning qanday yo‘llari mavjud?
3. Tavakkalchilikni o‘ziga olish qanday bo‘ladi?
4. Diversifikatsiyalash nima?
5. Xedj nima?
6. Xedjlarni amalga oshiruvchi subyekt nima deb ataladi?
7. Xedjerlashning necha xil turi bor?
8. Sug‘urta unosabatlari necha turga bo‘linadi?
9. Tadbirkorlik tavakkalchilik sug‘urtasida necha turga bo‘linadi?
10. Bu tarmoqlar qaysilar?

XV- BOB. LOGISTIKA KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

15.1. Logistika sohasini rivojlantirishning ahamiyati

Bugungi kunda O‘zbekistonda transport logistikasini rivojlantirish, undagi xizmat turlarini zamonaviylashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Ushbu strategiyada transport sohasini rivojlantirish sohasidagi bir qancha vazifalar belgilangan. Bular:

- milliy transport logistika kompaniyalarini o‘rtasidagi raqobat darajasini oshirish;
- avtomobil parklarini kengaytirish;
- yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish;

- eksportni gamo‘l-jallangan milliy mahsulotlarning narxlarini niraqobatdosh qilishni maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlarini oshirish;

- avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirishni belgilab o‘tilgan.

Risklar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 dekabr dagi “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlar to‘g‘risida”

g‘ijarorini qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida — temir yo‘l, avtomobil va aviatsiya transportini yanada rivojlantirish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yuk tashish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar darajasini sifatini oshirish, xalqaro logistika markazlarini barpo etish, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llarini, yo‘l bo‘yidagi zaruri infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilishni belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston transport sohasini rivojlantirish maqsadida ham ko‘rmamlakatlar bilan munosabatlar ni yanigib oshirishga olib chiqilmoqda. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yildavomidagi Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Rossiya hamda Xitoy davlatlariga amalga oshirgandavlat tashriflarichog‘idatashqi bozorlarga chiqish nita’minlovchi eng qisqavasamarali transport hamda tranzit yo‘laklarini rivojlantirish sohasidagi hamkorlik masalalaritomonlardiqqat -e’tiboridabo‘ldi.

Ushbu davlat tashriflarinatijasida Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida 2017 yilda M-39 yo‘lining Qozog‘istonning Maqtaraltumaniorqalio‘tuvchi qismiochilishi va “Toshkent - Olmaota” tezyurar poezdi hamda ikkimamlakat shaharlari o‘rtasida avtobus qatnovining yo‘lga qo‘yilishi bu ikki davlat o‘rtasidagi transport sohasini rivojlanishiga turki bo‘ldi. SHuningdek, Prezidentimizning Turkmanistonga qilgansafarlaridavomida, “Turkmanobod-Farab” avtomobil vatemiryo‘lko‘priklarining ochilishi muhim voqeabo‘lib hisoblandi.

SHuningdek, Prezidentimizning 2017 yil noyabr oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidamintaqaning tranzit-logistika salohiyati-dan yanadasamarali foydalanish va transport infratuzilmasini jadal rivojlanish nita’minlash maqsadida 2018 yilda Toshkentda “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklaritizimida: strategik istiqbol va amalga oshirilmagan imkoniyatlar” mavzusidaxalqaro konferensiya o‘tkazishtashabbusibilanchiqdi.

15.2. Logistika sohasini rivojlantirish imkoniyatlari

Mamlakatimiz xalqaro dengiz portlariga bevositachiqish imkoniyati ga ega emasligiuning transport

logistikasini rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kundaxalqaro yuktashuvlar bilan shugʻullanayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmoqdalar:

1-yoʻlak– Boltiqboʻy davlatlari portlari yoʻnalishida (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) – Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

2-yoʻlak– Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) – CHop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegaraoʻtishlari, keyinchalik Evropaga;

3-yoʻlak– Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali), Qoradengizgacha chiqish bilan;

4-yoʻlak– Gruziyaning Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qoradengizgacha chiqish bilan, TRASEKA yoʻlagideb nom olgan;

5-yoʻlak– Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors koʻrfazigacha chiqish bilan;

6-yoʻlak– SHarqiy yoʻnalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozogʻiston orqali) Sariqdengizga;

7-yoʻlak– sharqiy yoʻnalishda Uzoq SHarqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) Sariqdengizga.

8-yoʻlak– Turkiya va Evropaga (“Baku-Axalkalaki-Kars” yangi temir yoʻlida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali). Hozirgi kunda yanayouyidagi yoʻnalishlar rivojlantirilmoqda:

- Evropa va Janubii-sharqiy Osiyo yoʻnalishida (Turkiyaning Mersin porti orqali tranzit bilan Turkmaniston va Eron orqali);

- Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirgʻiziston orqali) Sariq, SHarqiy-Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlarigacha chiqish bilan.

- Afgʻoniston va Eronning Bandar-Abbos va CHaxbahor portlarigacha chiqadigan janubiy muqobil transport yoʻlaklarini ishlab chiqish boʻyicha yangi istiqbollarni ochilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, mamlakatimizda transport sohasini rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi bir qancha muammolar mavjud.

Birinchidan, transport xarajatlarining yuqoriligini hisoblanadi. Jumladan, avtomobil

transportitomonidanko‘rsatilayotganyuktashishxizmatlaritannarxitarki birivojlanganmamlakatlarningo‘xshashko‘rsatkichlaridanjudafarqqilar ekan. Ayniqsa, tannarxtarkibidayonilg‘i, amortizatsiya xarajatlari, soliqvayig‘imlarulushibirnechamarotabayuqoribo‘lib, rag‘batlantirishningengsamarylivositasihisoblanuvchihaydovchilarishh aqiulushi 3 barobardanhamkamroqekan [6].

8-jadval

Avtomobil transportidayuktashishtannarxiningtarkibiyuzilishi

Ko‘rsatkichlarnomi	Tashishtannarxidagiulushi% da	
	O‘zbekiston	Evropa ittifoqi
Xarajatlarnomi		
YOqilg‘i	37 - 40	16 – 20
Moylashmateriallari	2 - 2,2	3
Haydovchiningishhaqi	15 - 16	52 – 55
Shina xarajatlari	2 - 2,5	1 - 1,1
Amortizatsiya ajratmalari	10 - 12	5 – 6
Soliqvayig‘imlar	6 - 7	2
Boshqaxarajatlar	20 - 21	16

Jadvalma’lumotlarigako‘ra, tashishxarajatlaringasosiyoddalari transport vositalariga texnik xizmatko‘rsatishvayoqilg‘imoylashmateriallarihisobigato‘g‘rikeladi. Respublika hududiy avtomobil transportibirlashmalaridaishlatilayotgan transport vositalariningeskirishdarajasiularning avtomobil transportixizmatiko‘rsatishbozoridaqabatgabardoshberaolmasligini ngasosiyasabblaridanbiribo‘libqolmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimiz transport infratuzilmasiningrivojlanmaganligi. Jumladan, Xalqaro“LPI” (**LogisticsPerformanceIndex**) tashkilotima’lumotlarigaasosanmamlakatimizningxalqaro logistika ko‘rsatkichlariindeksiganazartashlasak, engyuqorinatijalaraynaninfratuzilmavao‘zvaqtidaetkazibberishindikato rlaridanisbatanijobiyiliginiuzatishmumkin (2-jadval). Ushbu ko‘rsatkichlarXitoydao‘rtacha 4.07 ni, Singapurda 4.14 ni, qo‘shniQozog‘istonRespublikasidaesa 2.75 ni tashkiletadi.

9-jadval

**2016 yildagi “LPI” (Logistics Performance Index)
ma’lumotlari (160 davlatorasida)**

	LRI dagi o‘rni	Bojx o- na	Infra- tuzilm a	Xalqarot ashuvlar	Logisti k raqobat	Kuzat uvva nazora t	O‘zvaqti daetkazi sh
O‘zbekis ton	118	2.32	2.45	2.36	2.39	2.05	2.83
Qozog‘is ton	77	2.52	2.76	2.75	2.57	2.86	3.06
Singapu r	5	4.18	4.20	3.96	4.09	4.05	4.40
Tailand	45	3.11	3.12	3.37	3.14	3.20	3.56
Xitoy		3 .94	4. 10	4.05	4.0 0	4. 03	4.29

Uchinchidan,

mintaqadoirasida ikkita tomonlamavako‘ptomonlamakelishuvlarning talab darajasida emasligi. Jumladan, O‘zbekiston va Tojikiston “Xalqaro avtomobil tashuvlaritog‘risida” gibitinning mavjud emasligi (3-jadval) vamavjud “ruxsatnomasiz” bitimlarda uchinchimamlakatlarga va ulardan tashish masalalaritilgaolinmaganligi ikkidavlat o‘rtasida transport tashuvlariga salbiy ta’siro‘tkazmoqda.

10-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarini xalqaro yuk tashuvlardagi ikkita tomonlamakelishuvlari

	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O‘zbekiston
Qozog‘iston		*	*	***	**
Qirg‘iziston	*		**	***	**
Tojikiston	*	**			—
Turkmaniston	***	***			***

O'zbekiston	**	**	—	***	
-------------	----	----	---	-----	--

Ikki tomonlamayuktashuvlarvatranzitdahauchinchidavlattomonidanyuk tashuvlardaruxsatnomasiztashish. Ikki tomonlamayuktashuvlarvatranzitdaruxsatnomasiztashish. Barcha tashuvlardaruxsatnomatalabetiladi. SHuningdek, mintaqa davlatlari tomonidan bir qator Xalqaro konvensiya va kelishuvlarni imzolanmaganligi (Tojikiston va Turkmaniston mamlakatlarining “Tijorat yuklarni vaqtinchalik o‘tkazish to‘g‘risida”gi va “Konteynerlar to‘g‘risida”gi bojxona konvensiyalariga a‘zo emasligi) xalqaro yuk tashuvlarning sekinlashuvi va transport xarajatlari ko‘payishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda transport logistikasinirivojlantirishuchunquyidagiishlarniamalgaoshirishlozim:

- mintaqadavlatlaribilan transport sohasidagihamkorlikniyanadakuchaytirish, normativ huquqiybazanitakomillashtirishva tranzit ta‘riflarisoddalashtirish;

- mamlakatimizningFarg‘onavodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro hududlarida logistika hablariyaratishva logistika va transport tizimigaxorijiyinvestitsiyalarnikengjalbqilishmaqsadgamuvofiq;

- mamlakatimizdazamonaviy logistika markazlarinibarpoetishvaulardansamaralifoydalanishborasidagiishlarni izchildavomettirish;

- mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasinirivojlantirishgako‘maklashuvchi logistika markazlaritashkiletishnio‘z ichiga oluvchimamlakat transport infratuzilmasinirivojlantirishgaalohidae‘tiborqaratish;

- avtomobil transportiorqalitashuvlardamahsulottannarxinikamaytirishmaqsadida, mahsulotlarniuzoqmasofagatashishiuchunfoydalaniladigan transport vositalarigabelgilangan import bojxonato‘lovlari ni kamaytirishyokiimtiyozlarberish(hozirda import boji tovar qiymatining 100-120% atrofida);

O‘zbekistonning geografik joylashuvizamonaviy omborkomplekslariva logistika markazlaritarmog‘irivojlanishida strategik muhim jihat bo‘lib, yuklarnitashish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqaris hvasavd kompaniyalarilogistikasinisamaralitashkiletishimkoniniberish imumkin.

YUqoridagilardankelib chiqibshunita’kidlash mumkinki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston hududi orqali harakatlanayotgan xalqaro yukl arkamayib bormoqda. Mamlakat hududi dantashilgan xalqaro yuklarning kamayishigata’sirko‘rsatuvchias osiyomillarsifatida transport tashuvlari uchun belgilangan tarif stavkalarining yuqoriligi, mamlakatgaki ribkelgan xalqaro, xususan, tranzit yuklarga nisbatan qo‘llanilayotgan bojxonanazoratishakllarining murakk abligi hamda respublikani aylanib o‘tuvchi muqobil transport koridorlarining ishga tushirilishini ko‘rsatish mumkin.

15.3. Logistika da risklarni boshqarish tizimini joriy etish algoritmi


Risklarni boshqarish sohasidagi tadqiqotchilarning ishlanmalarini tahlil qilish asosida biz logistika tizimida risklarni boshqarish tizimini joriy etish algoritmini taklif qilamiz, bu esa risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan besh bosqichni o‘z ichiga oladi. SHuni ta’kidlash kerakki, ushbu beshta qadam bir-biriga bog‘liqdir, ya’ni, bosqichlarning birida olingan natijalar keyingi bosqichlarni to‘g‘irlash zarurligiga olib kelishi mumkin.

Logistikada risklarni boshqarish tizimini joriy qilish algoritmining birinchi bosqichi SWOT tahlilidan foydalangan holda risklarni tahlil qilishdir (1-rasm). Ushbu bosqichda risklar aniqlanadi, ularning o‘ziga xosligi, ularni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, shu jumladan, iqtisodiy zarar miqdori, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan risklarning o‘zgarishi, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi va ularga ta’sir qiluvchi omillar. Ikkinchi bosqich - bu logistika menejerlari tomonidan ekspert uslubi yordamida eng muhim risklarni saralash, aniqlangan xujjatlarni maxsus hujjatlar

asosida ularning sifatlari ko‘tarilish yoki tushish tartibida buyurtma qilish orqali aniqlash.

Uchinchi bosqich - riskni baholash shkalasi yordamida risklar reytingini belgilash. Algoritmning to‘rtinchi bosqichi - risklarni boshqarish usullarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan modeldan foydalangan holda yumshatish vositalarini tanlash. Ushbu bosqichda, ta’sirni kamaytirish vositalarini tanlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilishning muhim jihati shundaki, risklarni boshqarish tizimining samaradorligi prinsipiga muvofiq, har qanday risk uchun tegishli vositalar qo‘llanilmasligi kerak.

Oxirgi bosqich - o‘rganilayotgan tizimda qayta aloqa o‘rnatishni ta’minlaydigan risklarni boshqarish tizimini tatbiq etish va amalga oshirishni sozlash. Bu juda muhim bosqichdir, chunki aynan shu narsa risklarni boshqarish moslashuvchanligi va moslashuvchanligini hamda logistika tizimida risklarni boshqarish tizimining barqarorligini ta’minlaydi.



Shunday qilib, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonalarda logistikada risklarni boshqarish tizimini joriy etish algoritmi aniq ierarxik tuzilishga ega bo‘lishi kerak, bu esa risklarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish natijalari asosida va o‘zgarishni hisobga olgan holda ta’sir qiluvchi omillardir. Taklif etilayotgan algoritmi amalga oshirish korxonaga logistika jarayonlarini umumiy korporativ boshqarish tizimini optimallashtirishga imkon beradi.

Risklarni boshqarishda, qoida tariqasida, risklarni boshqarishning to'rtta asosiy usuli qo'llaniladi: riskni bartaraf etish, oldini olish; korxonada faoliyatiga omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish; riskni o'tkazish; shuningdek, riskni qayta taqsimlash. Risklarni taqsimlashning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- biznes-taklifda yuqori darajadagi logistlarning ishtiroki ulushini qayta taqsimlash asosida risklarni boshqarish;

- sof risklar konsepsiyasi formatida sheriklarni jalb qilish orqali risklarni boshqarish;

- diversifikatsiyalashga asoslangan risklarni boshqarish;

- sug'urta asosida risklarni boshqarish.

Ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari bozorning mustaqil ishtirokchilari hisoblanadi. SHu bilan birga, o'zlarining vazifalarini bajarishda ular institutsional logistika infratuzilmalarining bir qismiga aylanadilar. Sug'urta shartnomasiga ko'ra, sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotlarini sug'urtalovchiga to'laydi va ikkinchisi sug'urta hodisasi yuz berganda etkazilgan zararni qoplaydi. SHuni yodda tutish kerakki, hech qanday sug'urta tovonlari u yoki bu risk tufayli etkazilgan zararni to'liq qoplay olmaydi. Sug'urta qoplamasi etkazilgan zararni to'liq bartaraf etish uchun etarli emas. Shuning uchun logistlarning vazifasi sug'urta hodisasi sodir bo'lishining oldini olishdir. Shunday qilib, maqsadi logistika tizimi faoliyatining yuqori ishonchliligini ta'minlash bo'lgan sug'urta tizimida markaziy o'rinni menejment egallaydi. Risklar to'plami shuningdek, siyosiy, tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy vositalarni o'z ichiga oladi va tizim sifatida riskni boshqarish bir necha usul va vositalarni bir vaqtning o'zida qo'llash imkoniyatini beradi.

Logistikada risklarni boshqarish murakkab ko'p o'lchovli vazifadir. Integratsiyalashgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida korxonada logistika sohasida risklarni boshqarish bo'yicha tashkiliy tuzilmani yaratish, shuningdek, shartnomalar tuzish jarayonini tartibga solish risk darajasini kamaytirishga yordam beradi. Kontragentlar bilan o'zaro aloqalar. Avvalo, har qanday shartnomani tuzishda risk boshqaruvchisi potensial sherik yoki etkazib beruvchini turli manbalardan sinchkovlik bilan kuzatib borish, shuningdek, "Kontragentlar reytingi" jurnalida keyingi tahlil qilish orqali tekshirishi kerak.

SHunday qilib, logistikada risklarni boshqarish bo'yicha asosiy amaliy qadamlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- korxonaning tashkiliy tuzilmasiga muvofiq logistika xizmatining tashkiliy tuzilishini optimallashtirish;

- risklarni boshqarish strategik omili sifatida elektron logistikani takomillashtirish;

- real vaqt rejimida tovarlarni taqsimlash zanjirining barcha ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sir o'tkazish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun korxonaning axborot-logistika tizimini yaratish;

- logistikada risklarni boshqarish tizimini joriy etish.

Asosiy tayanch tushunchalar

Transport, kompaniya, raqobat, infratuzilma, eksport, avtomobil, temir yo'l, logistika, dngiz porti, tannarx,amartizatsiya, yoqilg'i, mintaqa, tijorat, import.

Takrorlash uchun savollar

1. Bugungi kunda nimaga katta e'tibor qaratildi?
2. Xarakteristik strategiyasida soxani rivojlantirish bo'yicha qanday vazifalar belgilangan?
3. 2017-yil 2-dekabrda prezident qanday qaror chiqardi?
4. Qarorga muvofiq qanday transport infratuzilmalari rivojlatirildi?
5. Qaror natijasida qaysi yo'l ochildi?
6. Turkmaniston bilan bog'laydigan qaysi yo'l ochildi?
7. Transport koridorlarini sanab bering?
8. Bugungi kunda yana qaysi koridorlar qo'shildi?
9. Transport soxasini rivojlantirishga to'sqinlik kiluvchi qanday muammolar bor?
10. Bu muammolardan sanab bering?

XVI-BOB. RISK KOEFFITSIENTI VA UNING TAHLILI

16.1. Risk koeffitsienti va uning tahlili

E-bilan biror iqtisodiy kursatgichning bajarilish soxasini belgilaylik. Malumki bu iqtisodiy ko'rsatgichning bajarilishi r mikdorlarga bog'lik bo'lib, uni quyidagicha belgilash mumkin

$$E = G(r) = G(r_1, r_2, \dots, r_n)$$

Ko'rsatgichning E-ga tushishi r_1, r_2, \dots, r_n miqdorlardan bog'liq (masalan kapital kiritish miqdori).

$N=N(E)$ Esa iqtisodiy ko'rsatgichning E soxaga tushishi natijasida yuzaga keladigan N qaytimni ifodalovchi funksiya bo'lsin (masalan kiritilgan kapital miqdoridan kaytish).

$f(x)$ -esa x iqtisodiy ko'rsatgichning zichlik funksiyasi bo'lsin. Masalan x-iqtisodiy ko'rsatgichning E soxaga tushish extimoli, agar E-ning chegaralari (a, b) lar bulsa

$$P(E) = P(a < x < b) = \int_a^b f(x) dx \text{ bo'ladi.}$$

$$H_n = \sum_{i=1}^n H(E'_i) \int_{x_{i-1}}^{x_i} f(x) dx; E'_i = \frac{x_{i-1} + x_i}{2} \text{ deb belgilaymiz.}$$

H_n -ko'rsatgichlarning musbat soxaga ya'ni reja bajariladigan musbat soxadagi qaytimlar bo'lsin. Unda reja bajarilmaganligi (manfiy) soxasidagi qaytimlarni H_c bilan belgilasak.

$$H_c = \sum_{i=1}^n H(E_i^*) \int_{x_{i-1}^*}^{x_i^*} f(x) dx; E_i^* = \frac{x_{i-1}^* + x_i^*}{2}$$

Bo'ladi. Bu yerda miqdorlardagi rejalashtirilgan miqdorlardan chapda yotgan miqdorlarni ifodalaydi.

Shunday qilib reja bajarilmagandagi iqtisodiy ko'rsatgich qaytimi H_c -ning, reja bajarilgandagi qaytim H_n -ga nisbatini tavakkalchilik koeffitsienti deymiz va quyidagicha belgilaymiz $K = \frac{H_c}{H_n}$

Ma'lumkim $0 < H_c < \infty$ va $0 < H_n < \infty$ bo'ladi. Agar $H_c = 0$ bo'lsa $K=0$ tavakkalchilik koeffitsenti nolga teng, yani tavakkalchilikning yukligi, agar $H_n = 0$ bulsa $K \rightarrow \infty$ tavakkalchilik darajasi juda kattaligi yuzaga keladi.

Tavakkalchilik koeffitsentining boshqacha ifodasi quyidagicha.

$$K_z = \frac{M^-}{M^+}$$

Bu yerda z -iqtisodiy ko'rsatkichning rejalashtirilgan miqdori.

M^- -ko'rsatkichning z kichik qiymatining kutilmasi.

M^+ -kursatkichning z dan kata qiymatining kutilmasi. Ya'ni x biror faoliyat yuritish natijasidagi iqtisodiy kuo'satkichning qiymati bo'lsa, unda

$$M^- = M\{x - z / x < z\} = M(x / x < z) - z$$

$$M^+ = M\{x - z / x \geq z\} = M(x / x \geq z) - z$$

16.2. Risk koeffitsientining tahlili

I (x)-bilan foyda keltirish funksiyasini belgilaymiz, bunda x -biror iqtisodiy ko'rsatkich qiymati (masalan x qaror qabul etuvchining kiritiladigan kapitalining qiymati). Qaror qabul qilish natijasida biror natijaga (xosil, daromad va boshqalar) erishiladi, uning qiymatini z bilan belgilasak, birorta taqsimotga ega bo'lgan tasodifiy qiymat bo'ladi.

Anik pul mablag'i, qaysi kim karor kabul etuvchi noaniqlik evaziga olmoqchi, tasodifiy miqdor z bo'lib uni biz z -ning pul ekvivalenti deymiz. Z -ning kutilgan qiymatini pul ekvivalent deymiz. Z -ning kutilgan qiymatini pul ekvivalentidan farqini tavakkalchilik mukofoti deyiladi.

Tavakkalchilik mukofotini P -bilanbelgilasak, unda qaror qabul etuvchi shaxs ikki xolatdan: tasodifiy qiymat z va $E(z) - \pi$ mablag'larini, birini tanlashni befarq qiladi. Boshqa tomondan agar qaror qabul qiluvchiz kabul etadigan qiymatlari xaqida axborotga ega bo'lganda uni $E(z)$ mablag'iga sotgan bo'lar edi. Shu sabali pul ekvivalentini sotilishi narxi xam deyiladi.

Ma'lumki x -ning turli qiymatlari uchun tavakkalchilik mukofoti bir xil bo'lmaydi.

Shu bilan birga mukofot xajmi z -ning taksimot (asosan uning matematik kutilma va dispersiyadan) bog'liq bo'ladi. Shunday qilib.

$$\pi = \pi(x, z)$$

Funksiyasi bo'ladi. Pul ekvivalent (sotuv narxi) $\pi_a(x, z)$ -xam x vazning funksiyasi bo'ladi:

Sotuv narxi va tavakkalchilik mukofoti orasidagi bog'lanishni pik uyidagicha ifodalasak

$$\pi_a(x, z) = E(z) - \pi(x, z)$$

Bo'ladi.

Karor qabul etuvchining subyektiv baxosi va afzal ko'rish ifoyda keltirish funksiyasi $U(x)$ orqali ifodalanadi. Shu sababli tavalchilik mikro va sotuv baxosi orasidagi munosibat quyidagicha xam ifodalanadi:

$$U(x + E(z) - \pi(x, z)) = E\{U(x + z)\}, \text{ yoki}$$

$$U(x + \pi_a(x, z)) = E\{U(x + z)\}$$

Kutiladigan qiymatlar xaqiqatda bor deb farz etib, bu bog'lanishlardan $\pi_a(x, z)$ va $\pi_b(x, z)$ larni bir qiymatli ifodalash mumkin, chunki $U(x + E(z) - \pi)$ funksiyasi jiddiy monoton kamayuvchi funksiyadir.

Tavakkalchilik mukofoti qiymati belgisini $U(x)$ funksiyasining formasi orqali aniq ko'rsatish mumkin: agar $U(x)$ kabirik bo'lsa va ($U''(x) > 0$) $\pi < 0$ bo'ladi, agar $U(x)$ botiq bo'lsa ($U''(x) < 0$) va $\pi > 0$ bo'ladi.

Sotilish narxi $\pi_a(x, z)$ bilan birga sotib olish narxi $\pi_b(x, z)$ xam ifodalash mumkin.

Bu shu ma'noni bildiradi, agar qaror qabul etuvchi tasodifiy miqdor z ifodalovchi qiymat xakidagi axborotga ega bo'lmasa u qo'shimcha mablag' to'lab z ning bo'lajak qiymatini saqlab qoladi o'sha mablag' to'lab z ning bo'lajak qiymatini saqlab qoladi o'sha mablag' $\pi_b(x, z)$ dir.

$$U(x) = E\{U(x - \pi_b(x, z) + z)\}$$

Tavakkalchilikdan maxaliy (lokal) bosh tortish Farazetaylik z ning kutiladigan qiymati nol bo'lsin va dispersiyasi xam nolga intilsin, ya'ni $E(z) = 0$ $\sigma^2 \rightarrow 0$

$U(x - \pi) = E\{U(x + z)\}$ chap va unga tomonlarini darajali qatorga yoyamiz, tavakkalchilik mukofotini aniqlaymiz.

$$U(x - \pi) = U(x) - \pi U'(x) + 0(\pi^2)$$

$$E\{U(x + z)\} = E\left\{U(x) + zU'(x) + \frac{1}{2}z^2U''(x) + 0(z^3)\right\} = U(x) + \frac{1}{2}\sigma^2U''(x) + 0(\sigma^2)$$

Qatordagi yuqori darajadagi xadlarini etiborsiz qoldirib quyidagini xosil qilamiz.

$$\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x) + 0(\sigma^2) \text{ bunda } r(x) = -U''(x)/U'(x)$$

$E(z) \neq 0$ bo'lgani uchun $\pi(x, z) = \pi(x + \mu, z - \mu)$ lardan foydalanib

$\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x + E(z)) + 0(\sigma_z^2)$ xosil qilamiz.

$r(x)$ -funksiyasi, tavakkalchilikdan lokal bosh tortish funksiyasi x -urni va $U(x)$ funksiyasi deyiladi.

Farazetaylik-belgi foyda keltiruvchi funksiya $U(x)$ takriban chizikli ekvivalenti bilan ifodalanishni ko'rsatsin

$$U(x) \sim a + bU(x), \quad b > 0$$

Unda differensial tenglama

$$r(x) = -\frac{U''(x)}{U'(x)}$$

Ning foydalik funksiyasi $U(x)$ nisbatan yechimi $U(x) \sim \int e^{-\int r(x) dx}$ bo'ladi.

Yuqorida $r(x)$ nisbatan o'tkazilgan amallar natijasidan foydalanib $U(x)$ yo uning ekvivalentini aniqlash mumkin.

$r(x)$ tashkil etish uchun $r(x)$ va $\pi(x, z)$ orasidagi munosabatni foydalanib. $\pi(x, z) = \frac{1}{2}\sigma^2 r(x)$ $r(x) = \frac{2}{\sigma^2}\pi(x, z)$ ni topamiz. $\pi(x, z)$ -yuqorida o'rnatilgan funksiya amalda $r(x)$ -ning doimiligi muxim ahamiyatiga ega.

Agar $r(x) = \text{const}$ bulsa,

$$U(x) \sim x, \text{ fakat va fakat, agar } r(x) = 0$$

$$U(x) \sim e^{-cx} \text{ fakat va fakat, agar } r(x) = c > 0$$

$$U(x) \sim e^{-cx} \text{ fakat va fakat, agar } r(x) = c < 0 \text{ bulsa.}$$

Tavakkalchilikdan global bosh tortish. Karor kabul (va uning foydalik funksiyasi) tavakkalchilikdan bosh tortuvchi (tavakkalchilikni rad etuvchi) bo'ladi, agar xar qanday x va z tavakkalchilik mukofoti manfiy bo'lmasa: ya'ni: $\pi(x, z) \geq 0$ bulsa.

Agar xar qanday x yo z uchun $\pi(x, z) > 0$ bo'lsa tavakkalchilikda jiddiy bosh tortiladi deyiladi.

Agar $\pi(x, z)$ x ga nisbatan kamayuvchi funksiya bo'lsa ya'ni $\frac{\partial \pi(x, z)}{\partial x} \leq 0$ bo'lsa.

Tavakkalchilikdan bosh tortish global kamayadi. Agar tengsizlik jiddiy bajarilsa unda tavakkalchilikda jiddiy bosh tortish deyiladi. Maxsus qayd etish kerak agar tavakkalchilikda global bosh tortish kamayuvchi bo'lganda tavakkalchilikdan lokal bosh tortish $r(x)$ xam x nisbatan kamayuvchi funksiya bo'lsa va teekoria unda tavakkalchilikdan bosh tortishni lokal va globalga ajratishga uringan.

16.3. Foyda keltirish funksiyasi

Foydalilik funksiyasi tavakkalchilikdan bosh tortish kamayuvchi bulsa unda kuya ikki fikr xaqliydir.

Agar $U(x)$ - (x_1, x_2) inter valida tavakkalchilikdan bosh tortish kamayuvchi bulsa, $U(x) = U(a+bx)$ $b > 0$ buladi va $[a+bx_1, a+bx_2]$ intervalida tavakkalchilikdan bosh tortish kamayuvchi funksiya buladi va teskarisi.

Agar $U_1(x), \dots, U_n(x)$ (x_1, x_2) intervalida tavakkalchilikdan boshtortishi kamayuvchi funksiyalar bulsa unda ularning chizikli kombinatsiyasi xam shu interval (x_1, x_2) tavakkalchilikdan boshtortishi kamayuvchi funksiya buladi.

$$U(x) = \sum_{i=1}^n C_i U_i(x)$$

Tavakkalchilikka proporsional mukofot va proporsional tavakkalchilikdan local bosh tortish agar tavakkalchilikka mukofotni va tavakkalchilikka local bosh tortishni x nisbatan solishtirsak unda tavakkalchilikka proporsional mukofot va tavakkalchilikdan local bosh tortishni proporsionalligi xaqida gap yuritish mumkin. (Bu funksiyalarni $\pi^*(x, z)$ va $r^*(x)$ bilan belgilaymiz)

$$\pi^*(x, z) = \frac{1}{x} \pi(x, z) \text{ va } r^*(x) = xr(x)$$

Agar tavakkalchilikdan proporsional local bosh tortishning funksiyasi $r^*(x) = \text{const}$ bo'lsa unda $U(x) \sim x^{1-c}$ faqat va faqat $r^*(x) = c < 1$

$$U(x) \sim \log x \text{ faqat va faqat } r^*(x) = 1.,$$

$$U(x) \sim x^{-c-1} \text{ faqat va faqat agar } r^*(x) = c > 1 \text{ bulsa.}$$

Tavakkalchilik natijasiga ko'ra undan bosh tortish. Yuqorida keltirilgan tavakkalchilikdan bosh tortishning local va global ko'rinishlaridan boshqa turlari xam bor.

Farazetaylik qaror qabul qiluvchi W mablagibulsin. Uning tavakkalchilik bo'lgan munosabatini tasodifiy o'zgaruvchi Z ifodalovchi noaniq oqibatli xodisa misolida ko'ramiz. Z ning faqat ikkita oqibatga ega $\{z = \lambda\}$ va $\{z = 0\}$

$P\{z = -\lambda\} = p$ va $P\{z = 0\} = 1 - p$ bo'lsin. y - bilan sug'urta mukofotining qaror qabul qiluvchi to'laydigan sug'urta mukofotini y bilan

belgilaymiz. Buni p extimoli bilan yuzaga keladigan λ -miqdordagi zararni qoplash uchun ajratiladi.

Unda:

$$U(w-y) = p^{U(w-\lambda)+(1-p)U(w)}$$

Qaror qabul qiluvchi uchun tenglamaning ikkala tomoni xam birxil etiborga ega ya'ni u xatmida aniq zararga erishish yoki p extimoli bilan λ zararga erishishi bir xil etiborga egadir.

Foyda keltiruvchi funksioner, aniqrog'I qaror qabul etuvchining xatti xarakterini biz tavakkalchilikdan zararning ma'lum xajmi bilan bilan bosh tortadi deymiz, agar $\lambda > 0$ uchun y/λ o'suvchi bo'lsa.

Endi tasodifiy o'zgaruvchi z quyidagi taqsimot qonuni bilan olamiz.

z	0	γ
p	$1-p$	p

ya'ni z faqat ikki qiymatga

0 va γ erishib extimollar $P(z=\gamma) = p$ $P(z=0) = 1-p$ ishonchli ekvivalenti y^* deb shunday summani belgilaymiz, u quyi tenglamadan aniqlanadi. $pU(w+\gamma) + (1-p)U(w) = U(w+y^*)$

y^* shunday mablag'dirki buni qaror qabul etuvchi r extimol γ yutiq o'rniga olishga rozidir.

Foydalilik funksiyasi anig'i qaror qabul etuvchini xatti-xarakterini yutiq xajmi bilan tavakkalchilikdan yuz o'grish deymiz, agar $\gamma > 0$ uchun y^*/γ kamayuvchi bo'lsa.

Yana quyidagi belgilanishni kiritamiz $S(x, w) = x \cdot r(w+r)$.

Bu belgilashda foyda keltirish funksiyasi U uchun quyidagi o'rinlik.

Foydalik keltirish funksiyasi Undan kichik yutiq uchun tavakkalchilikdan ma'lum xajmidagi yutiq bilan yuz o'girish deyiladi, agar $s(x, w)$ Funksiyasi x nisbatan $0 < x < m$ da o'suvchi bo'lsa.

Umumiy xolda foydalik funksiyasi U , tavakkalchilikdan uning natijasi xajmiga ko'ra bosh tortish deyiladi agar $S(x, w)$ o'suvchi funksiya bo'lsa.

Xajmiga ko'ra tavakkalchilikni rad etuvchi foydalilik funksiyasi uchun, quyidagi teorema o'rinli:

Agar $U_1(x)=U(a+bx)$ $b>0$ $x_1<x<x_2$ intervalda foydalilik funksiyasi bo'lsa unda $U(x)$ xam foydalik funksiyasi bo'lib tavakkalchilikni xajmiga ko'ra rad etish bo'lib u $a+bx_1<x<a+bx_2$ intervalda bo'ladi.

Tavakkalchilikni natija xajmiga ko'ra rad etuvchi foydalik funksiyalar summasi shart emas yana shu kabi funksiya bo'lishi ikki ko'rinishdagi tavakkalchilikni rad etish funksiyalari orasidagi munosabat quyidagi ayniyat bilan ifodalanadi

Bir necha o'zgaruvchili foydalilik funksiyasida tavakkalchilikni mustaqilligi.

Farazetaylik foydalilik funksiyasi bir necha o'zgaruvchilardan quyidagi ko'rinishda bo'lsin.

Tavakkalchilikni shartli rad etish va $U(x)$ ning x_i o'zgaruvchisidan bog'liq funksiyasini $r_1(x)$ bilan belgilab quyidagicha aniqlaymiz.

$$r_i(x) = -\frac{U_i''(x)}{U_i'(x)}$$

$$\text{bunda } U_i''(x) = \frac{\partial^2 U(X)}{\partial x_i^2} U_i'(x) = \frac{\partial U(X)}{\partial x_i}$$

x_i o'zgaruvchiga muvofiq keladigan tavakkalchilik $x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, x_{i+1}, \dots, x_n$ o'zgaruvchilardan bog'liq emas deyiladi, agar $r_i(x)$ funksiya $x_1, x_2, \dots, x_{i-1}, x_{i+1}, \dots, x_n$ bog'liq bo'lmasa, ya'ni $r_i(x)$ doimiy yoki x_i ning funksiyasi bo'lsa.

Asosiy tayanch tushunchalar

Risk,

tahlil, koeffitsient, qiymat, funksiya, reja, tavakkalchilik, dispersiya, narx, qaror, ekvivalent, foyda, foydalilik, funksiyasi, interval, funksioner.

Takrorlash uchun savollar

1. Xo'jalik tavakkalchiligining nazariy asoslari nima?
2. Lokal va global tavakkalchilik tugrisida ayting?
3. Tavakkalchilik turlarini asoslab bering?
4. Xo'jalik tavakkalchiligini alohida xislat va xususiyatlarini izoxlang?
5. Normativ usullar deb nimaga aytiladi?
6. Iqtisodiy ko'rsatkich qanday belgilanadi?
7. Natijaning qiymati qanday qiymat bo'ladi?
8. Z-ning kutilgan qiymati pul ekvivalentidan farqi nima deyiladi?
9. Tavakkalchilik mukofoti nima bilan belgilanadi?

10.X-ning turli qiymatlari uchun tavakkalchilik mukofoti qanday bo‘ladi?

XVII-BOB. RISKLARNI BOSHQARISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

17.1. Risklarni boshqarish usullarining tasnifi

Iqtisodiy kategoriya sifatida tavakkalchilik - bu bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki avvaldan aytib bo‘lmaydigan hodisa. Agar bu ijobiy hodisa bo‘lsa (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (harajatlarni, zarar, yo‘qotish) natija bo‘lishi yoki hech qanday natija bo‘lmasligi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalar tavakkalchilik darajasini baholashni, uning miqdorini aniqlashni va uni kamaytirish chora-tadbirlarini qo‘llashni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga o‘z sarmoyasini kiritayotgan investor nuqtai-nazarida, shu mamlakatdagi holat, vaziyat investitsion muhit deb ataladi. Investitsion muhit bir qator tavakkalchilik omillarini o‘z ichiga oladi. Bu omillar rivojlanish istiqbollari, ichki va tashqi shart-sharoitlar va vaziyat ta’siri ostida vujudga keladi. Ko‘p hollarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holat va uning rivojlanish istiqbollariga qarab ijtimoiy-siyosiy, ichki va tashqi tavakkalchiliklar taxmin qilinadi.

Investitsiya loyihasini tavakkalchiliklarini tasnifini turli tizimlari mavjud.

Birinchidan, loyiha faoliyatining bosqichlari va fazalari bo‘yicha tasniflash: investitsiyalash oldi fazasidagi, investitsiyalash fazasidagi, ishlab chiqarish fazasidagi tavakkalchiliklar.

Ikkinchidan, loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun tavakkalchilik tahdidlariga ta’sir etishning imkoniyatlarini mezonlari bo‘yicha tasniflash.

Shu nuqtai – nazar bo‘yicha tavakkalchilikni: ichki va tashqi tavakkalchiliklarga ajratish mumkin.

Tashqitavakkalchiliklarga siyosiy tavakkalchiliklar va fors-major tavakkalchiliklari kiradi. Fors-major tavakkalchilikiga tabiiy ofatlar: yong‘in, suvtoshqini, qurg‘oqchilik kabilar kiradi.

Tashqitavakkalchiliklar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida mavjud.

Uchinchidan, tavakkalchilikdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash:

1. Sug'urtalanadigan tavakkalchiliklar;
2. Sug'urtalanmaydigan tavakkalchiliklar.

Sug'urtalanadigan tavakkalchiliklar o'znavbatida:

- a) kafolat;
- b) sug'urta;
- c) zahira fondi hisobiga qoplanadigan tavakkalchiliklarga bo'linadi.

Bundan tashqari, loyiha faoliyatining haqiqiy amaliyotiga asoslangan, eng ko'p uchraydigan tavakkalchiliklar ham bo'lib, ularga loyiha ishtirokchilari e'tibor bersalar ham, hech bir guruhlash mezonidirasiga kirmaydigan tavakkalchiliklar ham mavjud. Ular:

- iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o'zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog'liq tavakkalchiliklar;

- tashqi iqtisodiy tavakkalchiliklar-savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish, chegaralarning berkilishi va shu kabi ehtimolliklar tavakkalchiligi;

- siyosiy holatning noaniqligi, hududdagi yoki mamlakatdagi noma'qul ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tavakkalchiligi;

- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki noaniqligi;

- bozor, ya'ni aniq davrdagi iqtisodiyotning joriy holatini harakterlovchi belgilar, masalan, baho, valyuta ko'rsaklari, yalpi ichki mahsulot va boshqalarning o'zgarib turishi;

- tabiiy iqlim sharoitlarining, tabiiy ofatlar ehtimolining o'zgarib turishi;

- ishlab chiqarish texnik tavakkalchiliklari asbob-uskunalarining buzilishi va to'xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi brak va boshqalar;

- loyiha ishtirokchilarining o'zlarini tutishlari, qiziqishlari, maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro'si haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi, noaniqligi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va loyihaning ayrim turlari bo'yicha tavakkalchiliklar bo'lishi mumkin. Masalan, konchilik va neft-gaz qazib chiqarish sanoatida geologik tavakkalchilikka, ya'ni zahiralarni

to'g'ri baholash tavakkalchilikiga alohida e'tibor beriladi. Kimyosanoati, kon qazibolish, qoravarangli metallurgiya loyihalarida ekologik tavakkalchilika katta e'tibor beriladi.

Yuqorida keltirilgan tasniflashlarga asoslangan holda, loyiha faoliyatidagi tavakkalchiliklarni quyidagi guruhini keltirish mumkin:

1. Loyiha ishtirokchilari tavakkalchiligi;
2. Loyiha smeta qiymatining oshish tavakkalchiligi;
3. Qurilishni o'z vaqtida tugamaslik tavakkalchiligi;
4. Ishva obyekt sifatining pastligitavakkalchiligi;
5. Konstruksion va texnik tavakkalchiliklar;
6. Ishlab chiqarish tavakkalchiligi;
7. Boshqaruv tavakkalchiligi;
8. Sotish tavakkalchiligi;
9. Moliyaviy tavakkalchilik;
10. Mamlakat tavakkalchiligi;
11. Ma'muriy tavakkalchilik;
12. Huquqiy tavakkalchilik;
13. Fors-major tavakkalchiligi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish ma'lum darajada uch guruh omillarga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, investitsiya quvvatining mavjudligiga. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi. Ikkinchidan, mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor, me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlanish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar kiradi. Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun, yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto, yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi. O'tish iqtisodida bo'lgan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun investitsiya tavakkalchiligi tavakkalchilikning muhim turlaridan biridir. Shuning

uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Investitsion loyihalar kelajakka tegishli bo'lganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlariga ega bo'lgan hollarda, qaror tavakkalchilikli yoki noaniqliklarga ega deb ataladi. Tavakkalchilikni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha harajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Tavakkalchilik - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir. Loyiha tavakkalchiligi - bu investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan tavakkalchiliklarning yig'indisidir.

Tavakkalchilik, boshqacha qilib aytganda, kutilishi mumkin bo'lgan xatar - bu investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan noaniqlikdir. SHu bilan birga potensial investor tomonidan qo'yilgan pul mablag'larini yo'qotish mumkinligi hamdir. Tavakkalchilik tushunchasiga juda ham yaqin bo'lgan noaniqlik tushunchasi ham mavjud bo'lib, u tavakkalchilikning aniq turlarini tasniflash uchun "tavakkalchilik" atamasining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Noaniqlik deganda, investitsion loyihani amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni to'la yoki aniq emasligi tushuniladi. Masalan, inflyasiya haqidagi, texnika va texnologiyalardagi o'zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, obyektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, harajat va natijalarning noto'g'ri hisob-kitobi kabi ma'lumotlarning to'la yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik kelib chiqadi. Bundan tashqari noaniqlik deganda, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatga etarlicha baho bermaslik va boshqa shu kabilar tushuniladi. Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar va oqibatlar noaniqligi tavakkalchilik tushunchasi bilan izohlanadi.

Tavakkalchilik bilan noaniqlikning farqi shundaki, natijalar ehtimolligi joriy davr ma'lumotlari asosida baholanayotgan vaqtda tavakkalchilik e'tiborga olinadi. Noaniqlik esa bunday ehtimollik o'tgan va kelasi davr ma'lumotlari etishmasligi yoki to'la emasligi sababli subyektiv aniqlangan vaqtda e'tiborga olinadi. Har qanday holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyasiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish va sotish va boshqalar) kelajakning ma'lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo'lishi mumkin. Chunki o'tgan davr ma'lumotlari asosida faqat noma'lum kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'tgan rivojlanish tendensiyasini aniqlash mumkin.

Investitsion rivojlanishga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

- siyosiy, ijtimoiy, savdo va ishga aloqador muhitdagi ko'pgina o'zgarishlar;

- texnika-texnologiyadagi, mehnat unumdorligi va baholardagi o'zgarishlar;

- atrof-muhitholati;

- amaldagi soliqqa tortish, huquq bo'yicha va boshqalar bo'yicha muammolar ta'sir ko'rsatadi.

Bularning barchasi loyihalarda aniq tavakkalchilikning mavjudligini – loyihani muvaffaqiyatsizlikka uchrash xatarini yoki foydani o'rniga zarar olishi mumkinligini oldindan aniqlab beradi. Iqtisodiy kategoriya sifatidagi tavakkalchilik agar bu ijobiy hodisa bo'lsa (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (harajatlar, zarar, yo'qotish) natija bo'lishi yoki hech qanday natija bo'lmasligi mumkin. Moliyaviy operatsiyalar tavakkalchilik darajasini baholashni, uning miqdorini aniqlashni va uni kamaytirish chora-tadbirlarini qo'llashni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritayotgan investor nuqtai-nazarida, shu mamlakatdagi holat, vaziyat investitsion muhit deb ataladi. Investitsion muhit bir qator tavakkalchilik omillarini o'z ichiga oladi. Bu omillar rivojlanish istiqbollari, ichki va tashqi shart-sharoitlar va vaziyat ta'siri ostida vujudga keladi. Ko'p hollarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holat va uning rivojlanish istiqbollari qarang ijtimoiy-siyosiy, ichki va tashqi tavakkalchiliklar taxmin qilinadi. Noaniklik- kelgusidagi xolatlar xaqida gapirishni imkoni bo'lmagan xolatlarga aytiladi. Tavakkalchilik-oddiy noaniklik

emas balki u yoki bu xarakat qilayotganda etiborga olish kerak bo'lgan xolat bo'lib, kishilarni moddiy yashashiga ta'sir etadi. Xar bir tavakkalchilikli xolatlar noaniklik bo'lib, noaniklik va tavakkalchilik mavjud.

Bu muxokamadan kelib chiqib, kredit berishni rejalashtirayotganda siz uchun xamma xolatlar bir xildek bo'lib ko'rinadi, kredit qaytadimi yoki yukmi. Buxolda tavakkalchilik bo'lmay, noanikliq yuzaga chiqadi. «V etom sluchae tavakkalchilika»¹. Kup xollarda tavakkalchilik bilan bog'liq xolatning extimolligi oddiy bo'lishi mumkin, bu to'g'ridan to'g'ri daromadli yoki zararli bo'lishini aniqlaydi. Misol uchun siz pulingizni qimmatli qog'oz sotib olish uchun qo'ymoqdasiz. Agar sizni qimmatli qog'ozli portfelingiz qiymati kamayayotgan bo'lsa, - bunda zararli xolat, agar ortsa u xolda daromadli xisoblanadi. Oddiy qilib, tavakkalchilik – kelayotgan zararining darajasi bo'lib, bu ko'zlangan daromadni olish imkoniyati bo'lmaydi.

Shuning uchun xalqaro amaliyotda tavakkalchiliklarni avval o'zining yuzaga kelish sabablari ko'rib chiqiladi va so'ng unga ta'sir etuvchi omillarni boshqarib boriladi yoki ta'sir etuvchi omillarni ta'sirini kamaytirish yo'llari taxlil qilib natijalar bog'lanib boriladi.

17.2. Risklarni boshqarish bosqichlari, tavakkalchilikni baxolashning asosiy mezonlari va uning uslublari

Oxirgi o'n yillarda loyihani tayyorlash va amalga oshirish malakaviy faoliyatning alohida bir ko'rinishiga aylandi. Ko'pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorlarida loyihani tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha tajribalar to'plana boshlandi. Loyihani boshqarish doirasida echiladigan masalalardan biri - bu loyiha faoliyatining tavakkalchilikni boshqarishdir. Bu masala loyihani boshqarishning boshqa

funksiyalaridan alohida emas. Moliyaviy talabni aniqlashda ham, smeta va byudjetni hisoblashda ham, shartnomalarni tayyorlash va to'zishda ham loyiha faoliyati ishtirokchilarini turli xil tavakkalchiliklardan himoyalash bilan bog'liq masalalar echiladi. Tavakkalchiliklar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida bo'lganligi sababli, loyiha tavakkalchiliklarini boshqarish funksiyasi loyiha tugagunga qadar davom etadi.

Loyiha tavakkalchiliklarini boshqarishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- loyiha tavakkalchiliklarining tasnifi;
- loyiha tavakkalchiliklarini aniqlash va baholash usullari;
- loyiha tavakkalchiliklarini boshqarishning axborot ta'minoti;
- tavakkalchiliklarning monitoringi va istiqbolini belgilash;
- tavakkalchiliklarni kamaytirish texnologiyalari;
- tavakkalchiliklarni boshqarishni tashkil etish;
- tavakkalchiliklarni boshqarish harajatlarining optimal darajasini asoslash va samaradorlikni baholash.

Tavakkalchilikni boshqarish turli faoliyat doiralarida tavakkalchilikni kamaytirish bo'yicha texnologiyalarni va bilimni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda tavakkalchilikni boshqarish faoliyatini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Tavakkalchilikni aniqlash.
2. Tavakkalchilikni baholash.
3. Tavakkalchilikni boshqarish choralari va usullarini tanlash.
4. Tavakkalchilikni oldini olish va nazorat qilish.
5. Tavakkalchilikni moliyalash.
6. Natijalarni baholash.

Tavakkalchilikni aniqlash va uni baholash bosqichlari tavakkalchilikni tahlili deb, ham ataladi. Bunda tavakkalchilikni aniqlash sifat tahliliga, tavakkalchilikni baholash miqdor tahliliga kiradi. Tavakkalchilik tahlilining miqdor usullari orasida tavakkalchilikni boshqarish nazariyasida eng mashhurlari quyidagilar:

- statistik va statistik tajribalar usuli;
- maqsadga muvofiq keladigan harajatlar tahlili;
- ekspert baholari usuli;
- analitik usullar va boshqalar.

Tavakkalchilik tahlilining ahamiyati loyihaning potensial ishtirokchisiga loyihani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish haqidagi qarorlarini qabul qilishi uchun zaruriy ma'lumotlarni berishdir.

Tavakkalchilikni boshqarish choralari va usullarini tanlash juda muhim bosqich hisoblanadi. Aniq tanlangan usul doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash mumkin. Bu bosqich loyihani amalga oshirishni boshlash haqidagi qarorni qabul qilishdan avval o'tkazilishi kerak.

Tanlashda kechiqish loyiha ishtirokchisi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki ishtirokchilar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Tavakkalchilikni boshqarishda chora va usullarni optimal variantini tanlash barcha loyiha ishtirokchilari o'rtasida jiddiy muzoqaralar bo'lishini talab qiladi.

Tavakkalchilikni oldini olish va nazorat qilish bosqichi ma'lum reja va dasturlar asosida aniq tashkiliy-texnik tadbirlarni ko'rib chiqadi.

Bu bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- tavakkalchiliklar monitoringi;
- tavakkalchilikni istiqbolini belgilash;
 - tahdid soluvchi xatarlar haqida rahbarlarga ma'lumot berish va bu bilan bog'liq ko'rsatmalarni ishlab chiqish;
 - tavakkalchilikni oldini olish va nazorat qilish dasturi doirasida maxsus tashkiliy-texnik tadbirlar.

Ko'p tavakkalchiliklarni oldini olish va nazorat qilish mumkin. Lekin shunday tavakkalchiliklar mavjudki, ularni oldini olish yoki kamaytirish mumkin emas, ya'ni ular loyiha ishtirokchilari ta'siridan tashqarida bo'ladi. SHunday tavakkalchiliklar ko'p harajat talab qilganligi sababli, ularni moliyalash usuli qo'llaniladi. Bunda loyiha ishtirokchilarini o'z-o'zini sug'urtalash, tajribali sug'urtachi yordamida sug'urtalanishga mablag' ajratishi tushuniladi. Sug'urta shartnomalarida tavakkalchilikning ko'pgina turlari bo'yicha sug'urtachining zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishi ko'rib o'tilgan moddalar mavjud bo'ladi. Tavakkalchilikni boshqarishda loyiha ishtirokchilaridan tashqari, sug'urta tashkilotlari ham bevosita ishtirok etadi. Ular tavakkalchilikni baholashda o'z usullari va

yo'llarini amalga oshiradilar, bu amalga oshirish reja - dasturlarini nazorat qilib boradilar.

Natijalarni baholash - bu ma'lum bir loyiha doirasidagi tavakkalchilik - menejmenti bo'yicha faoliyatlarining yig'indisi. U keng ma'lumotlar to'plami asosida o'tkaziladi va tavakkalchilik tahliliga to'zatishlar kiritish, tavakkalchilik-menejmentining alohida choralarni qo'llash samaradorligini baholash, tavakkalchilikni boshqarishda barcha qilingan harajatlarni baholash maqsadida o'tkaziladi.

Natijalarni baholash orqali olingan ko'rsatma va xulosalar keyingi loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

17.3. Risklarni o'lchash usullari

Umuman olganda, xavfni miqdoriy baholashning to'rtta guruhini ajratish mumkin:

Statistik usullar. Ushbu usullar bir qator kuzatuvlarda ushbu hodisaning nisbiy chastotasi asosida tasodifiy hodisa ro'y berish ehtimolini baholashga asoslangan. Ushbu usullar eng maqbuldir, chunki birinchidan, ular juda sodda, ikkinchidan, ularning baholari haqiqiy ma'lumotlarga asoslanadi (va bilasizki, amaliyot haqiqatning mezonidir). Ammo kuzatuv etarli bo'lmagan joyda statistik usullar qo'llanilmaydi. Noyob hodisalar riskini to'g'ri baholash uchun juda katta miqdordagi statistik ma'lumotlar talab qilinadi. Bundan tashqari, bunday ma'lumotlar to'plamlarini yig'ish va qayta ishlash juda ko'p vaqt va qimmatga tushishi mumkin.

Ehtimoliy - statistik usullar. Agar mavjud statistik ma'lumotlar etarlicha to'liq bo'lmasa, ba'zida mavjud bo'shliqlarni qo'shimcha bilvosita ma'lumotlarni tahlil qilish yoki mantiqiy fikrlash orqali to'ldirish mumkin. Riskni baholash uchun statistik ma'lumotlar va nazariy gipotezalar kombinatsiyasidan foydalanish **ehtimollik-statistik** usullarning asosiy g'oyasidir. Bu ushbu guruh usullarini qo'llash sohasini kengaytiradi, ammo olingan natijalarning ishonchliligi statistik usullardan foydalangandan past bo'lishi mumkin.

Ehtimollik-nazariy usullar. Ikki avvalgi ko'rilgan guruhleri o'rganilayotgan hodisa to'g'risida etarli yoki hech bo'lmaganda cheklangan miqdordagi statistik ma'lumotlarni talab qiladi. Biroq,

risklarni boshqarishda juda jiddiy oqibatlariga olib keladigan kam uchraydigan hodisalarni baholash zarurati tug'ilishi kerak. Ilgari, ushbu hodisalar ularning "kamdan-kamligi" (ya'ni ehtimolligi pastligi) yoki ko'rib chiqilayotgan obyektlarning o'ziga xosligi sababli umuman sodir bo'lmasligi mumkin edi. Bunday holda, statistika umuman yo'q, yoki tekshirilganidan sezilarli farq qiladigan boshqa obyektlarni nazarda tutadi. Bu statistik va ehtimollik-statistik usullardan foydalanishni imkonsiz qiladi. Biz o'rganilayotgan tavakkalning matematik modelini tuzishga va uning parametrlarini nazariy baholashga asoslangan ehtimollik-nazariy usullaridan foydalanishimiz kerak. Ushbu usullar juda mashaqqatli va nisbatan past aniqlikka ega, ammo ba'zi hollarda bu yagona ilmiy asoslangan baholash usuli hisoblanadi. Xususan, ular korxonalar uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Ekspert usullari. Uskunalar mavjud bo'lmagan yoki matematik modelni tuzish imkoniyati bo'lmagan vaziyatda mutaxassislarining tajribasi va bilimlaridan foydalanish mumkin. Bu aniqlanmagan parametrlarga yoki o'rganilmagan xususiyatlarga ega bo'lgan obyektlarni tekshirishda yuz beradi. Riskni miqdoriy baholash maxsus tanlangan mutaxassislarining javoblarini qayta ishlashga asoslangan. SHu bilan birga, mutaxassislarni tanlash va baholash shkalalarini shakllantirish tartibiga katta e'tibor berilishi kerak. Jarayonni tashkil qilish uchun Delfi (Delfi (Delfi, talaffuzi / 'dɛlˌfiː /) - bu qat'iy, tuzilgan, obyektga yo'naltirilgan, yuqori darajadagi dasturlash tizimi. Foydalanishning asosiy sohasi - dasturiy ta'minotni yozish.) usulidan foydalanish mumkin. Biroq, bu natijalarning ishonchligini kafolatlamaydi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Tasnif, risk, baho, iqtisod, kategoriya, foyda, daromad, tushum, xarajat, zarar, moliya, investitsiya, loyiha. fors, major, siyosat, sug'urta, kafolat, zaxira, iqtisod, qonun, kon'yunktura, texnika, kostruksiya. infratuzilma.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy kategoriya sifatida tavkkalchilik nima?
2. Moliyaviy operiyatsiyalar nimani talab qiladi?
3. Loyixa faoliyatidagi tavakkalchiliklarning qanday guruxlari bor?

4.Loyixa tavakkalchiliklarini boshqarishda qaysi masalalarga e'tibor qaratiladi?

5.Tavakkalchilikni boshqarish nazariyasida eng mashxurlari qaysilar?

6.Tavakkalchilikni boshqarish faoliyati qanday bosqichlarga bo'linadi?

7.Statistik usullar nima?

8.Extimoliy statistik usul deb nimaga aytiladi?

9.Extimoliy-nazariy usullarni tushuntirib bering?

10.Ekspert usullar qanday bo'ladi?

XVII- BOB. RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGI

18.1. Risklarni boshqarishda baholash usullari

Investitsiya loyihasi tavakkalchilikini baholash usullari orasida eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilar:

1. Loyihaning sezgirlik tahlili.
2. "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash.
3. Barqarorlikni tekshirish.

Sezgirlik tahlili loyihaning o'xshash parametrlaridan biri o'zgarganda, loyiha samaradorligi qay darajada o'zgarishiga miqdoriy baho berishda qo'llaniladi. Sezgirlik tahlilini investitsiya loyihalari natijalariga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni taqqoslash tahlili uchun o'tkazish tavsiya etiladi. Bu omillar bilan bog'liq vazifalarni echishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi. Avvalo, sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi. Keyin ma'lum oraliqlarda omillardan biri o'zgartirilib, sof joriy qiymat hisoblab chiqiladi, ushbu yo'l har bir omil uchun takrorlanadi. Bundan so'ng hamma hisoblar jadvalga joylashtiriladi, har bir omil o'zgarishiga nisbatan loyihaning sezgirlik darajasi solishtiriladi va loyihaning muvaffaqiyatiga eng ko'p darajada ta'sir etuvchilari aniqlanadi. Sezgirlik tahlili yordamida, hisoblar uchun zarur bo'lgan turli xil o'zgaruvchilar berilganda, naqd foyda yoki investitsiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash mumkin. Turli xil o'zgaruvchilarga ishlab chiqarish harajatlari, sotish hajmi, investitsiya davri davomiyligi, kredit foizi, xom-ashyo va yoqilg'i qiymati, soliqlar miqdori va boshqalar misol bo'ladi.

"Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum uni ishlab chiqarish harajatlariga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxonada zararlarni qoplashi mumkin, agar pul kirimi harajatlarga teng bo'lsa, korxonada ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. "Zararsizlik" tahlili loyiha quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi miqdorini topish maqsadida qo'llaniladi. Agar ishlab chiqarish hajmi past bo'lsa, korxonada zararga ishlayotgan bo'ladi. Bu tahlil loyihani

baholashda turli narx va qiymatni hisobga olishga bir qator zararsizlik nuqtalarini hisoblashga imkon beradi.

Barqarorlikni tekshirish usuli yordamida investitsiya ishtirokchilari uchun eng xatarli variantlarda investitsiya loyihasini rivojlantirish rejasini ishlab chiqishni oldindan ko‘rib chiqish mumkin. Har bir rejada har bir ishtirokchining rejalashtirilayotgan daromadi, yo‘qotishlari, samaradorligi e‘tiborga olinadi. Agar barcha ko‘rib o‘tilgan holatlarda ishtirokchilar qiziqishlari ko‘zatsilsa, kutilayotgan ko‘ngilsiz munobatlar mavjud zahira va rezervlar hisobiga cheklatilsa yoki sug‘urta to‘lovlari bilan qoplansa, loyiha barqaror va samarali deb hisoblanadi. Loyihaning barqarorlik darajasi uni amalga oshirish sharoitlarining ehtimolli o‘zgarishlarga nisbatan ishlab chiqarish, narx va mahsulotning eng yuqori darajadagi qiymati orqali ifodalanishi mumkin.

18.2. Risklarni boshqarishda statistik, ekspertlik, o‘xshashlik uslubidan foydalanish va kombinatsiyalashgan baxolash usublari

YUqorida ko‘rib o‘tilgan tavakkalchilikni boshqarish bosqichlari va tavakkalchilikni baholash usullari yordamida tavakkalchilik sababli bo‘ladigan yo‘qotishlarni pasaytirish, ular bilan bog‘liq ko‘ngilsiz oqibatlarni kamaytirish quyidagi usullari qo‘llaniladi.

Loyihalarni moliyalashtirishda tavakkalchilikni taqsimlash usullari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- kafolatlar;
- harid
- haqidagi forvard kelishuv;
- ishlab chiqarish to‘lovlari;
- xedjirlashtirish:
- sug‘urta:
- svoplar.

Odatda, kafolat beruvchi tomonlar sifatida yoki loyiha egalari-homiylar yoki manfaatdor tomonlar bo‘lishi mumkin. Loyiha egalari-homiylar. Davlat, sho‘ba korxonalarini nazorat qiladigan kompaniyalar, qo‘shma korxonalaridagi ichki va tashqi investorlar va boshqa egalari-homiylar loyihani ishlab chiquvchi kompaniya qarzining kafolatini berishlari mumkin. Agar kompaniya loyihani o‘z

hisobidan moliyalashtirish uchun kapitali etishmasa yoki etarli tajribaga ega bo'lmasa, kreditorlar, odatda, ushbu shakldagi kafolatni talab qiladilar.

Manfaatdor tomonlar. Bu juda muhim guruhga quyidagilar kiradi:

1. Uskuna va materiallarni sotuvchilar. Loyiha uchun uskuna va materiallarni sotishda, zavodni yoki uskunani ijaraga berishda manfaatdor tomonlar kafolat berishga tayyor bo'ladilar. Masalan, o'zida ortiqcha uskunaga ega bo'lgan kompaniya, shu uskunaga muhtoj loyihani kafolatlashi mumkin.

2. Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni etkazib beruvchilar. Mol etkazib beruvchilar loyiha tugagandan keyin o'zlarini bozor bilan ta'minlash uchun kafolat berishlari mumkin. Ular loyihani amalga oshirish mobaynida yaratilgan yangi quvvatlarda foydalanishdan yutishlari ham mumkin.

3. Loyihaning yakuniy mahsulotidan foydalanuvchilar. Bular kafolat berishlari va hatto bevosita moliyalashtirishlari mumkin. Barqaror mol etkazib berilishidan manfaatdor aniq bir xom ashyo iste'molchilarini misol qilib keltirish mumkin.

4. Qurilish tashkilotlari. Loyihada ishtirok etadigan pudratchilar, odatda qurilish bilan bog'liq ishlarni bajaradilar va kelgusida buyurtma qabul qilish maqsadida kafolat berishga tayyor bo'ladilar.

5. Milliy hukumat va xalqaro agentliklar. Bu tashkilotlar mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy talablari bilan qiziqadilar. Hukumat kafolatlari, loyihaning boshqa ishtirokchilari qoplay olmaydigan tavakkalchiliklarni qoplash uchun juda zarur va shu sababli, moliyalashtirishning yutug'i uchun hayotiy jihatdan muhimdir.

6. Boshqa tomonlar. Ko'p hollarda, yuqorida sanalganlardan tashqari, loyiha qurilishidan aniq bir daromad oladigan boshqa tomonlar ham bo'ladi va ular kafolat berishga tayyor bo'ladilar. Masalan, loyiha bilan bir qatorda amal qilayotgan kompaniya loyiha amaliyotida rivojlangan infrato'zilmadan yutishi mumkin, shuningdek loyiha amalga oshishi natijasida milliy iqtisodiyotni rivojlanishidan ham yutishi mumkin.

Tavakkalchilikni taqsimlashda kafolat eng ahamiyatli usul, lekin bundan boshqa usullar ham bor. Ko'p hollarda harid haqidagi forward

kelishuv va ishlab chiqarish to'lovlari qo'llaniladi. Harid haqidagi forvard kelishuv. Forvard harid haqidagi oddiy kelishuvni moliyalashtirishda, kreditor etkazib berilmagan yoki yaratilmagan minerallar yoki boshqa resurslarni sotib olish uchun kredit beradi. Loyiha ishga tushgandan keyin va minerallar qazib olinishi boshlangandan keyin, kreditorlar qarzni o'zish jadvaliga muvofiq keladigan miqdorni olish huquqiga egalar.

Forvard shartnomalaridan olinadigan daromadlar qat'iy foizga va barqaror tushumga ega emas. Chunki ulardan olinadigan daromadlar bitim valyutasining spot kursini o'zgarishiga bog'liq.

G'arbiy Evropadagi bir qator tijorat banklari, shu jumladan, Doyche bank faoliyatida forvard shartnomasidan foydalanish tajribalari shuni ko'rsatdiki, agar forvard kursi spot kursidan yuqori bo'lsa, bank forvard shartnomasi bo'yicha sotib olinadigan miqdordagi valyutani bitim imzolanishi bilan spot sharti bo'yicha sotadi va baholovchi valyutada olingan tushumni shartnoma muddati tugagunga qadar boshqa bankka muddatli jamg'arma sifatida joylashtiradi. Bunda forvard shartnomasi bo'yicha sotib olinayotgan valyuta muddatli depozit shaklidagi valyuta rezervlari hisobidan to'lanadi.

Agar forvard kursi spot kursidan kichik bo'lsa, bank shartoma bo'yicha sotib olinayotgan valyuta miqdoridagi mablag'ni kreditga beradi. Odatda kreditni qaytarish muddati forvard shartomasining tugash muddatiga mos keladi.

Agar bitim valyutasi va baholovchi valyuta bo'yicha foiz stavkalari teng bo'lsa va bu tenglik uzoq vaqt davom etadiganligiga treyder ishonsa, unda forvard kursi darajasida bo'ladi. Bunda treyder ikki mamlakatdagi foiz stavkalarining shu davrgacha bo'lgan holatini tahlil qiladi va shunga qarab ustama yoki diskontning darajasini aniqlaydi.

O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi qoidalari va hisob varaqlari rejasiga ko'ra, Markaziy bank forvard shartmalarini muddatidan qat'iy nazar hisobotlarda qayta baholash natijalarini aks ettirishni talab qilmoqda. Ushbu talabnomaga ko'ra, bank forvard shartomasi qiymatini qayta baholashi zarur.

Masalan: forvard shartomasi uch oyga tuzilgan, ya'ni 10 sentyabrda tuzilgan bo'lib, 10 dekabrda tugaydi. Bank 1 oktyabr

holatiga Markaziy bankka hisobot topshiryapti deylik. Ushbu hisobotda u mazkur shartnoma bo'yicha foyda va zarar summasini aniqlaydi. Buning uchun sotib olinishi lozim bo'lgan valyutaning hisobot davridagi ko'rs bo'yicha so'mdagi ekvivalenti uning forvard kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalenti bilan solishtiramiz. Agar foyda hosil bo'lsa, u quyidagi buxgalteriya provodkasi orqali- foyda schyotiga olib boriladi:

Debet 16901 Realizatsiya qilinmagan foyda - forvard valyuta kursi 100000 so'm.

Kredit 45405 Forvard (opsion) fyuchers valyuta bitimlari bo'yicha foyda 100000 so'm.

Demak, yuzaga kelgan foyda summasi asosiy foyda schyotiga kiritiladi. Bizning fikrimizcha, bu maqsadga muvofiq emas. Chunki hali bank balansi bo'yicha hech qanday mablag'lar harakati sodir bo'lmadi. Bundan tashqari, Markaziy bank xohlagan vaqtda forvard operatsiyalari bo'yicha zarar summasini aniqlash imkoniyatiga ega.

Qayta baholash natijasida zarar yuzaga kelsa, u ham to'g'ridan-to'g'ri zararlar schyotiga olib boriladi. Bunda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi:

Debet 55306 Forvard (opsion) fyuchers bitimlari bo'yicha xorijiy valyutadagi zararlar 100000 so'm.

Kredit 22802 Realizatsiya qilinmagan zararlar - forvard valyuta kursi 100000 so'm.

Demak, bankning foyda va zararlar summasi mavhum summaga ko'payadi yoki kamayadi. Buni hatto potensial foyda yoki zarar deb ham baholash maqsadga muvofiq emas. Chunki bank forvard operatsiyasini amalga oshirishda ma'lum tavakkalchilikni zimmasiga oladi va bunda foyda olish maqsadini ko'zlaydi.

Realizatsiya qilinmagan foyda va zararlar summasi forvard operatsiyasi haqiqatda amalga oshirilgan vaqtda teskari provodka berish yo'li bilan voz kechiladi:

Debet 45405 100000 so'm

Kredit 16901 100000 so'm

yoki Debet 22802 100000 so'm

Kredit 55306 100000 so'm

Forvard operatsiyasini amalga oshirayotgan bank uchun tavakkalchilik darajasini yuqori ekanligini hisobga olib, bizning fikrimizcha, banklarda analitik hisob jarayonlarini chuqurlashtirish lozim.

Buning uchun har bir valyuta bo'yicha sotish va sotib olish miqdorini muvozanatlashtirib borish lozim.

Quyida mazkur jadvalni taxminiy ko'rinishini keltiramiz.

11-jadval

Forvard operatsiyalarini hisobga olish jurnali

Operatsiya	EVRO(mln.)			USD (mln)		
	Sotib olish	Sotish summasi	farqi	Sotib olish	Sotish summasi	farqi
1\V- 2018	10	10	0	14	14850	
1\VII- 2018	10	10	0	14	14774	

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ko'rinadiki, bunda forvard shartnomasi bo'yicha 10 million. EVRO ga 14774 ming AQSH dollari sotib olish to'g'risida kelishilgan. Bunda forvard kursi quyidagicha:

$1 \text{ EVRO} = 1,4850 - 0,0076 = 1,4774 \text{ \$}$. Bu erda foiz stavkalarini jiddiy o'zgarish xavfi mavjud. Chunki diskont darajasi 76-74 ni tashkil qiladi:

$$1.4850 - 0.0074 = 1.4776 \text{ \$}.$$

Bank rahbariyati treyderga limit o'rnatadi. Masalan, uch oy muddatga amalga oshiriladigan forvard operatsiyalari uchun limit belgilaydi. Ayniqsa, nobarqaror valyutalar bilan bog'liq forvard operatsiyalariga nisbatan qat'iy limit belgilash lozim.

Bu limitlarga rioya etilishi doimiy nazorat ostida bo'lmog'i kerak. Buning ustiga ko'pgina banklar o'z valyuta bo'linmalari uchun ancha tor, pozitsion deb ataladigan limitlarni belgilab ko'yadilar.

Ular, bir tomondan, kun davomida tug'iladigan xatarlarning yuqori chegarasini (kundo'zgi limitlarni), ikkinchi tomondan esa, ertasi kuni vujudga kelishi mumkin bo'lgan xorijiy valyutadagi pozitsiya uchun yuqori chegarani (tungi (overnight) limitlar) belgilab qo'yadilar.

Limit belgilash bankni yuqori darajada zarar ko'rish xavfidan saqlaydi. Limit doirasida treyder faoliyatining moliyaviy natijasi

aniqlanadi. Masalan, yuqoridagi jadvalda 2000 dollar miqdorida foyda olinganligini aniqlash mumkin.

Hozirgi kunda jahon bank amaliyotida 30 ta valyutada forvard operatsiyasi amalga oshirilmoqda, shundan 15-16 tasi likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan valyutalardir.

Forvard operatsiyasi bilan shug'ullanayotgan bank xodimlari foiz stavkalari o'rtasidagi farqni doimiy tarzda ko'zati boradilar.

Ishlab chiqarish to'lovlari. Bu usul kreditning asosiy summasi uchun kreditorlar tomonidan loyihaning kelgusidagi ishlab chiqarishining ma'lum qismini sotib olishini anglatadi. Bu usulning harid haqidagi forvard kelishuvdan farqi shundaki, kelgusidagi to'lovlar oqimi oldindan aniq qarzni o'zish jadvaliga emas, balki haqiqiy ishlab chiqarishga bog'liq. Odatda bu usul tog'-kon qazilmalarini ishlashda qo'llaniladi, kreditorlar qazilmalarda ulushga ega bo'lganlari uchun ishlab chiqarish to'lovlari odatda ta'minlangan. Ishlab chiqarish boshlanganda, haridor- kreditor har bir davrda umumiy ishlab chiqarishdan oldindan kelishilgan ulush bo'yicha o'z foyda ulushini oladi.

Xedjirlashtirish, sug'urta va svoplar. Bu usul va mexanizmlar loyiha ishtirokchilari tomonidan tavakkalchilik ulushini butunlay nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Har bir usulning o'z harajatlari bo'lib, ular tavakkalchilik/foyda nisbatida kiritilishi kerak.

Tavakkalchilikni boshqarishda asosiy vazifa – bu amaldagi bozor kon'yunkturasiga mos darajada tavakkalchiliklarni minimallashtirish, kreditlash xizmatlari bozorida bank pozitsiyasini minimum saqlab qolishdir. Tavakkalchilikni boshqarishda asosiy yo'llar quyidagilar:

- tavakkalchilikni ajratish;
- tavakkalchilikni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash;
- moddiy ta'minotni olish (garov);
- moliyaviy ta'minotni olish (kafolat yoki kafillik);
- tavakkalchilikni kredit bo'yicha yuqori foiz stavkasiga ko'chirish;
- tavakkalchilikni venchur kreditlashga qabul qilish;
- qarzlarni bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish;
- sug'urtalash.

Bular tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha quyidagi ish yo'nalishlarini

talab qiladi:

- har bir mijoz bo'yicha doimiy monitoringni olib borish;
- ma'lum bir mijozning asosiy xo'jalik faoliyatiga aloqador tarmoq holatining doimiy monitoringi;
- kafolatni jalb qilish va tahlil etish;
- tavakkalchilik uchun kompensatsiya olish (garov, kafolat va boshqalarni amalga oshirish).

Tavakkalchilikni ajratish bosqichida kredit summasi investitsiya loyihasining haqiqiy qiymati qo'shuv zaruriy rezervlarni shakllantirish harajatlariga muvofiq bo'lishi kerak. Bular loyihaning karakteri va uni amalga oshish muddatidan kelib chiqib hisoblanadi. Tavakkalchilikni minimallashtirish bahonasida kredit summasini kamaytirish, loyiha to'liq moliyalashtirilmasligi yoki uni oxirgi bosqichda amalga oshmay qolish xatari tufayli tavakkalchiliklar ko'payadi. Bu aytilganlar kredit muddatini tanlashga ham tegishli.

Kreditning uzoqroq muddati uning tavakkalchilikini oshiradi, lekin kredit muddatini sun'iy kamaytirish qarzdor uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, uni o'ta tavakkalchilikli va hatto xato xo'jalik qarorlarini qabul qilishiga majbur qilishi, natijada esa qarzdorning ham bankning ham umumiy tavakkalchiliklari oshishi mumkin.

Yuqori foiz stavkasi tavakkalchiliklarni boshqarishning asosiy vositalaridan biridir. Lekin jahon tajribasi ko'rsatishicha, banklarning kichik biznes korxonalarini bilan aloqasida, tavakkalchiliklarni boshqarishda bu vosita kam samara beradi. Agar bunday holda davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning rivojlangan mexanizmi va banklararo kuchli raqobat mavjud bo'lsa, tavakkalchilikni kompensatsiyalash omili sifatida yuqori foiz stavkasini amalda ko'llab bo'lmaydi.

Tavakkalchiliklarni ajratish deganda, moliyalashtirish manbalarining harakatidagi og'irlikni qarzdorning o'zi bilan birgalikda boshqa bir necha investorlar o'rtasida bo'linishi tushuniladi. Yirik qarzdorlarning loyihalarini moliyalashtirishda bu tabiiy, bu amaliyot kichik tadbirkorlik doirasidagi tadbirkorlar uchun keng tarqalmagan. Bu shu bilan bog'liqki, so'ralayotgan kreditning chegaralangan summasida investorlar o'rtasida tavakkalchiliklarni taqsimlanishi va

nazorati bo'yicha operatsion harajatlar bank kreditlash tavakkalchilikini kamaytirishga qilinadigan iqtisodni oshirishi mumkin. Investitsion kreditlashda tavakkalchiliklarni taqsimlash shakllaridan biri kredit bo'yicha kafolatni jalb qilishdir. Odatda, bu loyiha qiymatining taxminan 50%idan 2/3 qismigacha va kredit qiymatining 75-80%ini qamrab oladi. Tavakkalchilikni taqsimlash shakllaridan biri bo'lgan tavakkalchilikni bo'linishi kichiq tadbirkorlik sferasiga yo'naltirilayotgan kredit resurslari uchun ayniqsa harakterli bo'lib, bunda resurslar bevosita qarzdorlarga emas, balki kichiq biznes ehtiyojlari uchun mo'ljallangan va ishlab chiqilgan yo'nalishlar, kadrlar va boshqalarga ega bo'lgan oraliq moliyaviy institutlarga yo'naltiriladi. Bunday institutlarga kichiq korxonalarining kredit birlashmalari, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududiy fondlari, tadbirkorlik subyektlariga ma'lum xizmat turlarini ko'rsatuvchi lizing kompaniyalari kiradi.

18.3. Risklarni (cheklash) limitlash

Limitlash (cheklash) - bu chegarani belgilash, ya'ni. xarajatlar limitlari, sotish, kreditlar va boshqalar. Cheklash - bu tavakkalchilik darajasini pasaytirishning muhim usuli bo'lib, banklar tomonidan kreditlar berishda, overdraft ((Overdraft (kredit-overdraft) - mablag'ga vaqtincha muhtoj bo'lgan qarz oluvchi foydalanishi mumkin bo'lgan kredit)) shartnomasini tuzishda va hokazolarda qo'llaniladi.

Deyarli har qanday tashkilotning faoliyati ko'pincha turli xil risklar bilan bog'liq. Ushbu risklar ko'plab moliyaviy tahdidlarni keltirib chiqaradi. Ular tashkilotning risklar portfelida muhim rol o'ynaydigan moliyaviy xatarlarning alohida guruhiga ajratiladi.

Avvalo, xavfni (cheklash) limitlash usuli nima ekanligini tushuntirish kerak. Bu limitni, xarajatlarning, kreditlarning ruxsat etilgan miqdorlarini belgilash qobiliyati. Ushbu usul risk qadamini kamaytirishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi va banklar kreditlarni to'lashda, overdraftshartnomasini hal qilishda foydalanadilar. U mahsulotni kreditga sotishda, kredit berishda, investitsiya mablag'lari miqdorini aniqlashda ishlatiladi.

Riskni (cheklash) limitlash turlari

Muayyan tashkilot uchun kredit tavakkalchiliklarini cheklash kredit depozitining tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan barcha

vositalarni cheklashni o‘z ichiga oladi: qarz oluvchiga beriladigan kreditlar, qarindosh (rasmiy yoki xususiy) kompaniyalarga berilgan kreditlar, berilgan kafolatlar.

Qaror qabul qilishning individual limitlari	mansabdor shaxs va qo‘mitalarning vakolat limitlari.
SHaxsiy kontragentning limitlari	ichki qoidalarga muvofiq belgilanadigan va bank siyosati va strategik manfaatlarini hisobga olgan holda tuzilgan kredit risklari limitlari.
Tarmoq limitlari	kredit portfelidagi risklarni iqtisodiyot tarmoqlari (tarmoqlar) bo‘yicha konsentratsiyasi limitlari.
Garov turi bo‘yicha limitlar	portfelning kredit risklarini ma’lum bir garov turi bilan qoplash limitlari
Kredit muddati limitlari	portfeldagi ma’lum bir davr uchun berilgan kreditlar hajmi yoki ulushi limitlari
Valyutalarni kreditlash bo‘yicha limitlar	ma’lum bir valyutada taqdim etilgan portfeldagi kreditlar hajmi yoki ulushi limitlari
Mahsulot turi bo‘yicha limitlar	kredit mahsulotlarining ayrim turlarining hajmi yoki portfelidagi ulushi limitlari
Boshqa limitlar	individual operatsiyalarni yoki muayyan turdagi operatsiyalarni limitlash.Bukerak bo‘lganda o‘rnatiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Samaradorlik,risk,baho.usul.investitsiya,loyiha,zararsizlik, nuqtasi,barqarorlik.rentabellik,statistika, ekspert,kombinatsiya,limit,kafolat,forvord.xjlashtirish.sug‘urta,svop,x om- ashyo, uskuna.agentlik.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Baxolash usullari orasida eng ko‘p foydalaniladigani qaysilar?
- 2.Loyixani moliyalashtirishda tavakkalchilikni taqsimlash uchun qanday usullar bor?
- 3.Uskuna va materiallarni sotuvchilari qanday bo‘ladi?
- 4.Qurilish tashkidotlari qanday bo‘ladi?

5. Forvard shartnomalarida olinadigan daromadlar nimaga ega emas?
6. Agar forvard kursidan spot kichkina bo'lsa, nima bo'ladi?
7. Kreditni qaytirish muddati nimaga mos keladi?
8. Bank raxbariyati nimaga limit o'rnatadi?
9. Tavakkalchilikni boshqarishda asosiy vazifa deb nimaga aytiladi?
10. Ularni boshqarishda asosiy yo'llar qaysilar?

XIX-BOB.RISKLARNI BOSHQARISH VA ULARNI SUG'URTALASH

19.1. Sug'urtalash uchun rezerv fondi

Kuyida biz tavakkalchilikni boshqarish uchun kupincha sugurtalashdan foydalaniladi. Buning uchun rezerv fondini o'lchovini ma'lum ishonch darajasi bilan statistik usul bilan xisoblash mumkin.

Quyida ikki savolni belgilaymiz.

1. Kelajakda mumkin bo'lgan ziyonni qoplash uchun sug'urta orqali yig'ilgan rezerv fondini xatminianiklash?

2. Rezerv fondini tashkil etishda uchraydigan tavakkalchilik quyidagi xollarda.

A) agar rezerv fondi yetarli bo'lmagan yetishmagan summani 100% karzorkali qoplash mumkin.



B) Ortikcha rezerv fondinisaklash uchun tulov 100% stavkada bo'lsa.

Birinchi savolni ko'rib chiqamiz. Buning uchun «zararkvotasi» tushinichasini kiritamiz. «Zararkvotasi» keltirilgan zarar summasini yig'ilgan sug'urta to'lovlarini olamiz:

$$\text{Zarar kvotasi} = \frac{\text{Zarar summasi}}{\text{Sug'urta to'lovlarining summasi}}$$

Sug'urta tashkilotlari uchun turli yillarda zarar summasi zarar kvotasi orqali belgilanadi ma'lum davr uchun zarar xatmi aniklash uchun shu davr zarar kvotasini taxlil etish natijasida aniklash mumkin. Bu axborot esa unga tasodifiy xolatlar ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'ramiz. Shu bilan birga bu tasodifiy qiymatini taqsimot qonunini aniqlash mumkin. Asosiy masala agar biz kelasi yilda zarar kvotasi qancha bo'lishini bilsa kunda biz zaxira fondining aniq qiymatini aniqlashimiz mumkin. Kvotasini sug'urta to'lovlari summasiga ko'paytirib rezerv fondining xatmini topamiz. Shunday qilib biror ishonch darajasi bilan zarar qoplaydigan rezerv fondining hajmini aniqlash masalasi quyidagi masala zarar chegarasini (kvotasini) shunday miqdorini aniqlash kerak kim u avvaldan xisoblangan kvota miqdoridan ko'p bo'lmasin

O'tgan yillar uchun zarar kvotasi miqdori tasodifiy omil sifatida aniqlab uni taksimot grafigini zichlik va taqsimot funksiyalarni ifodalash mumkin. Agar x bilan zarar kvotasi miqdorini belgilasak unda $f(x)$ zichlik $F(x)$ taksimot funksiyalari quyidagi ko'rinishni oladi.



$F(x)$ -ning x -nuqtadagi qiymati $X < x_0$ bo'lish ehtimolini aniqlaydi $F(x_0) = P(X < x_0)$

Masalan $x^* = 0,55$ va $F(0,55) = 0,80$ bo'lsa unda zarar kvotasining miqdori $0,55$ kichik bo'lish ehtimoli $0,80$ tengbuladiya'ni ishonch darajasi 80% bilan zarar kvotasi 55% xajmidarezervlansibiz shunday mablagga ega bulamiz kim u bilan 80% xolatdayuzagakelgan zarar ni ko'payolamiz.

Agar taksimot funksiyasi $F(x)$ vazaruriy ishonch darajasi a belgilangan bulsalar unda bizni vazifa mijoz shunday x^* topish kerak.



$$F(x^*) = a$$

bulsin.

Grafikda x^* ni $F(x)$ ning a -ga munosib qiymatdagi grafikdagi nuqtasini ox o'qiga proeksiyasini tushirib topamiz.

x^* -ning qiymati kerakli rezerv fondini qiymatini beradi.

Rezrv fondining miqdorini o'zgartirish ishonch darajasiga munosib quyidagi ko'rinish orqali bajariladi.



Yana quyidagi misolni ko'rib o'tamiz Biz o'rganayotgan obyektlarning sug'artalar birtimemas deb olamiz chunki turli «tarmoklarda» kutiladigan zararlar xajmi turlichadir. Masalan davlat tasorufidagi tormoklar uchun 30% atrofida, qishloq xo'jalik tarmoqlarida 100% tashkiletadi. Turli olimllarning tarmoqlarga ta'siri xam turlichadir. Extimollarning taqsimoti tarmoqlar ichida biroz qiyinlik tug'diradi agar tormoqlar ulushi xalq xo'jaligi strukturasi o'zgaruvchan bo'lsa.

Masalan:

Xisoblash kiyinchiliklar kuyidagicha engib utiladi xar bir tarmok uchun aloxida zichlik funksiyasi aniklanadi keyin umumiy zichlik funksiyasi kuyidagicha olinadi.

$$f(x) = \frac{d_1}{D} f_1(x) + \frac{d_2}{D} f_2(x) + \frac{d_3}{D} f_3(x)$$

$$F(x) = \frac{d_1}{D} F_1(x) + \frac{d_2}{D} F_2(x) + \frac{d_3}{D} F_3(x)$$

bu erda d_1, d_2, d_3 - tarmoklarning sug'urta to'lovlari $D = d_1 + d_2 + d_3$ $f_i(x)$ $F_i(x)$ tegishli tarmoqlarning funksiyalari.

To'la Gosstrax bo'yicha zarar kvotasining yillik taqsimoti kerak bo'lsa uning uchun zarar kvotasining taksimot qonuni va uning paremetrlari ma'lum bo'lishi kerak edi.

Barcha tarmoqlar taxlili uchun zarar kvotasi 1967y(1968y)dan 1973 yilgacha ma'lum edi. Bu 6-7 tarmoqlar nuqtalari uchun taqsimot qonunini tipini matematik kutilma dispersiyasini aniqlash imkondan tashqari edi.

1970-1973yillar uchun berilganlar ular asosida taqsimot qonuning aniqlash mumkin edi, chunki xar bir tarmoq uchun zarar kvotasining 20 qiymatiga (4sektor uchun 80 kursatgichga) ega edik. Agregirlashga qishloq xo'jalik sektori uchun 150 ko'rsatgichga ega edik.

Bu berilganlar asosida xalq xo'jaligi darajasida zarar kvotasining taqsimot qonunini aniqlashga ega bo'ldik.

Ma'lumki zarar kvotasining taqsimot qonuni va uning paremetrlari viloyat darajasida o'zaro turlicha bo'lishi mumkin va mamlakat taqsimot konuni va paremetrlariga o'xshash bo'lmasligi xam mumkin. Ammo o'zaro kata farq qilish extimoli juda kichik.

Olingan axborotlarga asoslangan xolda shuni aytish mumkin ayrim tarmoqlari chidazarar kvotasiga berilganlarning viloyatlarga tegishli ekanligi kata ta'sir yetkazmaydi.

Shu sababli zarar kvotasining taqsimot qonuni x sug'urta to'lovlari tasodifiy miqdor sifatida barcha viloyatlar uchun bir xil deb qabul etamiz x-tasodufiy miqdorning matematik kutilma va dispersiyalarning $M(x)$ va $D(x)$ bilan belgilaymiz.

d_1, d_2, \dots, d_{20} turli viloyatlar uchun sug'urta to'lovlari mablag'i bo'lsin. Unda butun mamlakat zararlar kvotasini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Y = \frac{d_1 x_1 + d_2 x_2 + \dots + d_{20} x_{20}}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}}$$

$$E(Y) = \frac{d_1 E(x_1) + d_2 E(x_2) + \dots + d_{20} E(x_{20})}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}} = \frac{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20}) E(x)}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}} = E(x)$$

$E(x_i) = E(x)$ bo'lgani uchun

$$D^2(Y) = \frac{d_1^2 D^2(x_1) + d_2^2 D^2(x_2) + \dots + d_{20}^2 D^2(x_{20})}{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20})^2} = \frac{d_1^2 + d_2^2 + \dots + d_{20}^2}{(d_1 + d_2 + \dots + d_{20})^2} D^2(x)$$

$$C_i = \frac{d_i}{d_1 + d_2 + \dots + d_{20}} \text{ belgilasak}$$

$$D^2(Y) = (c_1^2 + c_2^2 + \dots + c_{20}^2) D^2(x)$$

$$c_i < 1 \quad c_i^2 < c_i \quad (c_1^2 + c_2^2 + \dots + c_{20}^2) < c_1 + c_2 + \dots + c_{20} = 1$$

$$D^2(Y) = D^2(x) \text{ buladi.}$$

19.2. Tarmoqlar zarar kvotasining matematik kutilmasi va dispersiyasi

Bunday mamlakat bo'yicha zarar kvotasining Dispersiyasi viloyatlar dispersiyasidan kichik bo'ladi. Endi katta miqdordagi berilganlarni kayta ishlov berishda uchraydigan kiyinchiliklarni kanday engib utishni urganamiz. Axborotlarni ishlov berishda tasorufidangi xujaliklar berilganini birgalikda olindi, chunki mulkdorlik kurinishi zararga ta'sir etuvchi omil bulmaydi. Yana yillik urtacha zarar kvotasi karib uzaro tengdir kishlok xujaligi kooperativlarning urtacha zarar kvotasi biroq kichikrokdir. Chunki kishlok xujaligi uchun kurilgan yillar biroq «omadli» edi, bunday kooperativlar ko'plab sug'urtalash, davlat xujaliklar esa yuk.

Tarmoqlar zarar kvotasining matematik kutilma va dispersiyalarni xisoblashda keskin farq etuvchi zarar kvotalarining qiymatlari ayrim qiyinchiliklar yaratdi. Masalan oblastlar bo'yicha davlat korxonalarini zarar kvotalari o'zaro 10-50% o'zaro farq etsa ayrim yillarda shunday viloyatlar uchrar edikim zarar kvotasi 800% tashkil etadi.

Agar bu zarar kvotasi 800% xisobga qo'shsak dispersiyani o'zi 70-80% tashkil etadi ammo bu xolat 100 yilda bir marta yuzaga keladi. Agar bu qiymatni etiborga olinmasa, tanlanma o'zgarib matematik kutilma va dispersiyaning qiymati kamayib ketadi.

Buning uchun sodda yo'l topiladi keskin o'zgaruvchi qiymatlar chegarasini belgilab qo'ydik (masalan davlat tasorufidagi xujaliklar uchun 100% kishloq xo'jalik korxonalarini uchun 200%)

Taqsimot tiplarini o'rganish shuni ko'rsatdiki biz o'rganayotgan miqdor gamma taqsimotga yaqinroq ekan. Uning zichlik funksiyasi.

$$f(x/\lambda, p) = \frac{x^{p-1} e^{-x/\lambda} \lambda^p}{\Gamma(p)}$$

$$E(x) = \frac{p}{\lambda} \quad D^2(x) = \frac{p}{\lambda^2} \quad p, \lambda \text{ lar taqsimot parametrlari.}$$

19.3. Tijorat tavakkalchiligi

Tijorat tavakkalchiligini taxlil etish uchun iqtisodiy sistemani ayrim elementlarga kuyi sistemalarga ajratib matematik metod, usullar, modellardan foydalanib shu bilan birga mutaxassislar tajribasi va eksprtizalar xisoblash texnikasini amalda kullab anikmaslikni xar bir soxaga elementlariga boglik ravishda taxlil etish mumkin. SHunday kilib tavakkalchilikni taxlil etish nazariyasidan foydalanib bajariladigan faoliyatining natijasining extimolini avvaldan aniklab tavakkalchilikka iqtisodiy matematik modeilardan foydalanib baxolaù mumkin. Bu metod va modellar asosida tavakkalchilik darajasini pasaytirish yoki uning bo'lajak xavfidan qutilish mumkin. Ya'ni bu metodlar asosida tadbirkor o'z faoliyati natijasiga foydali bo'lgan aarorga kelishi mumkin. Yaponiya, AQSH iqtisodida firmalar, tashkilotlar, kompaniyalar iqtisodining o'sish jarayonida ko'plab

ishlab chiqarishda tavakkalchilikka bog'liq bo'lgan faoliyat yuritib tavakkalchilik strategiyasini tuzadilar. Buning uchun korxonalar kelajagini aniq taxlil etib, zamonaviy, sistemali rejalar tuzib, uni sivilizatsiyalashgan biznes va marketingga asoslangan xolda tuziladi. Tavakkalchilikni tijoratda xaqiqiy yo'nalishini aniqlab beradi.

Tijorat tavakkalchilikni taxlilini tavakkalchilik darajasini minimallashtirish uchun korxonalar raxbarining birinchi vazifasi qaysi miqdorda maxsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan maxsulotni qaysi bozorda sotishni aniqlash sharoitida aniqlab oling' zarur. Bunday faoliyatni oldi sotdi bashorat etish extimollik xarakteriga ega, ya'ni bashorat etilgan bajarilishi xam bajarilmasligi xam mumkin. Shu sababli bashorat etilgan natijalar qanchalik aniq taxlil etilsa aniqlash va tavakkalchilik darajasi kamayadi. Ya'ni tavakkalchilik darajasi kamayadi. Ya'ni tavakkalchilik darajasining pasayishi kelajakni tug'ri baxolash natijasida kabul qilingan qarorlarga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki xar qanday tijorat faoliyati firmaning ichki xujjati, biznes rejani tuzish bilan va bu reja asosida tijorat tavakkalchiligining dasturini tuzish bilan boshlanadi. Tavakkalchilik dasturining taxlili ko'pincha tavakkalchilik asosida yuritadigan korxonalar uchun zarurdir. Bunday korxonalarda talab xajmi va strukturasi, marketing axborotlarining yetishmovchiligi xavfli xolatlarining yuzaga kelishi, ashaddiy konkurentlar, rakobatchilar va bu raqobatchilarning o'sishi shu bilan birga korxonaning o'zini kelajakda rivojlanishi xarakterlidir.

Tavakkalchilik dasturlarni tuzishda bashorat etish natijalaridan foydalanish uchun iqtisodiy matematik usullardan foydalanish ko'p qulayliklar yaratadi. Bu usul asosida tavakkalchilik dasturining bir necha variantlarni tuzib, faoliyat yuritishdan yuzaga kelgan xolatlar uchun kerakli va o'sha xolatga munosib dastur variantidan foydalanish mumkin. Bunday dasturlar tashkilot faoliyatida ishonchsizlik darajasini ma'lum miqdorda kamaytiradi. Yaponiyaning xar bir to'rtinchi korxonasi tavakkalchilikni oldini olish dasturiga ega.

Tijorat tavakkalchilikni taxlil etish va axborot bazasi. Tijorat tavakkalchilikni baxolashda axborotlar tizimi bilan ta'minlanish asosiy negizidir.

Axborotlar tizimi bir tomondan tavakkalchilik darajasini baxolasa, ikkinchi tomondan uni pasayishiga yordam beradi. Bozor munosabatlarida xamma va kerak bo'lgan axborotga ega bo'lish

murakkabdir. Bu murakkablik ka korxonaldagi tijorat siri kerakli ta'sirini yetkazadi. Ma'lumki kerakli, yetarli axbortga ega bo'lgan xolda aniq va eng yaxshi bashoratni tuzish va bu asosida tavakkalchilik darajasini pasaytirish mumkin. Shu sababli axborot bozor o'z baxosiga ega bo'lib, tadbirkorlar uni shu baxoga sotib oladi. Tijorat axbortlari ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Xisob-kitobli.
2. Xisob-kitobdan tashqari.

Xisob kitobli axborotlarga buxgalteriya xisobi va xisobotlar, strategik xisob va xisobotlar tezkor xisob va xisobotlar tanlov xisobotlari kiradi.

Xisobdan tashqari axborotlar korxonada ichida va undan tashqarida o'tkaziladigan reviziyalar natijasi ichki va tashqi audit natijalari, laboratoriya va tibbiy va sanitar tekshiruvlar, kontrol tekshiruv natijalari doimiy ishlab chiqarish yig'ilishlari, mexnat jamoasining yig'ilishlari aksionerlar yig'ilishlari, bosmaxona xatlari, tushuntirish xatlari, xabar xatlari, kichik ma'ruza xatlari yuqori organlariga yuboriladigan xatlari moliya va kredit bo'limlariga yuboriladigan xatlar o'zaro shaxsiy axborotlar.

Kupincha tijorat axborotlari yuqorida ko'rsatilgan xisobda va xisobdan tashqari axborotlar asosida tuzilib va undan tavakkalchilik darajasini pasaytirish uchun o'rinli foydalaniladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Sug'urta, risk, rezerv, kvota, matematika, tijorat, dispersiya, fond, farar kvotasi, funksiya, grafik, gosstrax, tarmoq, dispersiya, model, struktura, marketing, axborot.

Takrorlash uchun savollar

1. Risk qiymatini mohiyati nimada?
2. Risklarni pasaytirish usullarini izohlang?
3. Monte Karlo usulining mohiyati nimada?
4. Var va Monte Karlo metodlarining farqli jihatini ko'rib chiqing.
5. Tijorat axborotlari nechiga bo'linadi?
6. Xisob kitobni axborotlariga nimalar kiradi?
7. Barcha tarmoqlar taxlili uchun zarar kiotasi qaysi yillar ma'lum edi?

8. Agregirlashga qishloq sektori uchun nechta ko'rsatkichga ega edik?

9. Tijorat axborotlari qaysilar? 10. Zarar kvotasining dispersiyasi nimadan kichik bo'ladi?

XX- BOB. RISKLARNI TAHLIL QILISH VA BOSHQARISH

20.1. Risklarni hisobga olish va baholashning ahamiyati

Bozor riskini aniqlash ishlarini olib borishdagi izchillik bosqichma bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muammolarning qo'yilishi;
- kerakli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- baholash usullarini tanlash va ularni qo'llash;
- biznesning bahosiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- bozor riski haqida belgilangan shaklda hisobot tuzish.

Biznesni baholash jarayonini tashkil etuvchi bu bo'g'inlarni hartomonlama ko'rib chiqamiz.

Bozor riski qiymatning kerakli darajasi va uni baholash maqsadini muvofiqlashtirishi zarur bo'lgan umumiy qoidadan istisno holatlari hammavjud. Bu tugatish qiymatlarini belgilashga taalluqli. Ushbu holatlarda buyurtmachi tugatish qiymatining muayyan turini aniqlashni talab qilishi mumkin va baholovchi uning talabini bajarishga majbur.

Endi pasayish tartibiga qarab qiymatlar darajalarining namunaviy ketma-ketligini keltiramiz:

- takror ishlab chiqarishning to'liq qiymati;
- o'rin bosishning to'liq qiymati;
- foydalanishda davom etishdagi asoslangan bozor qiymati;
- foydalanilmayotgan ko'chmas mulkga asoslangan bozor qiymati;
- o'rinbosishga asoslangan bozor qiymati;
- rejali tugatish qiymati (tartibga solingan tugatish qiymati);
- tezlashtirilgan tugatish qiymati;
- utilizatsiya qiymati;
- sinishq iymati.

Bu saflashni amaliyotda qiymat darajalarining boshqa nisbati bilan ham qo'llash mumkin. Masalan, ba'zan yangi texnikaning eski texnika oldida katta ustunliklarga ega bo'lishi va bu bilan bog'liq kapital xarajatlarning ortib ketishi tufayli ko'chmas mulkning o'rin bosish qiymati uning takror ishlab chiqarish qiymatidan kattaroq bo'ladi. Yoki foydalanishda davom etishdagi asoslangan bozor qiymati

tugatish qiymatidan ham, hatto sinish qiymatidan ham past bo‘ladi. Bunday holat, ko‘pincha asosiy fondlarning iqtisodiy eskirishida yuz beradi

Bozor riskni boshqarishdan maqsad, eng avvalo, riskning oldini olishdir. Qaror qabulqilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo‘lgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Buning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Risk boshqaruvi xodimlari o‘z ishlarini amalda joriy qilishlari uchun riskni oldini olish taktika va strategiyasini ishlab chiqishlari kerak.

Har-qanday loyihalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini hal etishda risklarni baholash asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday baholash asosida loyiha yuzasidan mumkin bo‘lgan barcha yo‘qotishlar o‘rganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni benuqson hal etish yoki pasaytirish choralari ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yo‘qotishlarni kamaytirish yoki barham toptirish va ular bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun, engavvalo, risklarning vujudga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, ya’ni “risk tahlili” deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim bo‘ladi.

